

ISBN-978-9943-22-143-7



9 789943 221437



*A. PARDAYEV*  
*F. AQCHAYEV*

---

**OLIY**  
**TA'LIMDA**  
**USLUBIY**  
**JARAYONLAR**



432  
P-214


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

A. PARDAYEV, F. AQCHAYEV

# OLIV TA‘LIMDA USLUBIV JARAYONLAR

*(Tashkil etish va bajarish usullari)*

*Uslubiy qo‘llanma*



TOSHKENT  
«YANGI NASHR»  
2014

УЎК: 378.1(075)

74.58 p

P 21

*Uslubiy qo'llanma Jizzax davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashi tomonidan muhokama etilib 2014-yil 27-martda 7-sonli bayonnoma bilan chop etish va o'quv-uslubiy jarayonga tadbiq qilishga tavsiya etilgan.*

**Pardayev A.**

Oliy ta'limda uslubiy jarayonlar: uslubiy qo'llanma / A.Pardayev, F. Aqchayev. – Toshkent: «Yangi nashr», 2014. – 160 b.

ISBN-978-9943-22-143-7

КБК 74.85p

Taqrizchilar:

*Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar prorektori,  
k. f. n. dotsent M. Sultonov,  
Jizzax davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i,  
i. f. n. dotsent F. Hayitov,  
Jizzax davlat pedagogika instituti umumiy tarix kafedrasi mudiri,  
f. f. n. dotsent A. Amanlayev*

Ushbu uslubiy qo'llanma Oliy ta'lim tizimida uslubiy jarayonlarni tashkil qilish va ularni bajarish bo'yicha vakolatli vazirlik va idoralar tomonidan so'nggi yillardagi tasdiqlangan ta'lim sohasiga tegishli me'yoriy hujjatlar, uslubiy ko'rsatmalar, dastur va Nizomlar asosida tayyorlangan. Uslubiy qo'llanmada oliy ta'lim tizimidagi darslarning tuzilishi va shakllari, ta'lim berishning modeli va darsning texnologik xaritasi, o'quv-uslubiy va EO'UM tayyorlash, test topshiriqlarini ishlab chiqish, mavzular yuzasidan taqdimotlar va tarqatma materiallar tayyorlash, iqtidorli talabalar bilan ishlash, fan to'garaklari va mustaqil ta'limni tashkil etish, uzluksiz malakaviy amaliyot, kurs ishlari loyihasi va BMIGA qo'yiladigan talablar, ularni tayyorlash va rasmiylashtirish, talabalarning bilimni nazorat qilishning reyting tizimi mazmun-mohiyati va OTM o'quv-uslubiy jarayonlariga oid bo'lgan atamalarning izohi o'rin olgan.

Uslubiy qo'llanma barcha OTMlari professor-o'qituvchilari va bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan.

ISBN-978-9943-22-143-7

© «Yangi nashr», 2014.



## KIRISH

Respublikamizda o'tkazilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda tub islohotlar o'z samarasini berib, xalqimizning ozod va obod yurt, farovonlik va to'kin-sochinlik, huquqiy adolatli jamiyat haqidagi asriy orzu-umidlari, istak va rejaları amalga oshmoqda.

Mazkur islohotlar, o'z navbatida, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlarni ham tubdan yangilash, sifat darajasini tobora yaxshilash, vatanparvarlik g'oyalarini keng xalq ommasiga va, ayniqsa, yoshlarga tatbiq qilish singari dolzarb vazifalarni kun tartibiga asosiy masala sifatida qo'ymoqda. «Chunki jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifatdir», – deb ta'kidlaydi Islom Karimov o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asarida. Shu nuqtai-nazardan respublikamizning bosh ma'rifat maskani bo'lmish oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, ta'limdagi uslubiy jarayon va vositalarni yangilash va zamonaviylashtirish amalga oshirilmoqda.

Ushbu uslubiy qo'llanmada ta'lim muassasalarida darslarning sifatini oshirish va berilayotgan ma'lumotlarni talabalar samarali o'zlashtirishi maqsadida oliy ta'lim muassasasida o'quv-uslubiy jarayonlarni tashkil-lashtirishning bir qator metod, shakl va vositalari keltirilgan. Jumladan, oliy ta'lim tizimida darslarning tuzilishi va turlari, ta'lim modeli va darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish, darslarda taqdimot va tarqatma materiallar tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar, o'quv-uslubiy va elektron o'quv uslubiy majmua tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar mavzulari uslubiy qo'llanmaning asosini tashkil etadi. Uslubiy qo'llanmada ma'ruza matnini tayyorlash va ma'ruzani tashkil etishda quyidagilarga alohida e'tibor berilgan.

Ma'ruza matnini bayon etishda zamonaviy pedagogik, psixologik, didaktik qoida va talablar hisobga olinadi. Ma'ruza matnlari faqatgina bayoniy axborotlardan iborat bo'lmay, undagi savollar, muammolar, yechimlar asosida muammoli vaziyatlar keltirib chiqarishga, matnni mustaqil mutolaa qilishga, erkin fikrlashga undashi kerak.

Ma'ruza matnlarida mavzu bayoni mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar va taraqqiyot yuksalish jarayoni, jo'shqin hayot tarzi, ilg'or fan yutuqlari bilan chambarchas bog'lanishi kerak. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yangiliklar, muvaffaqiyatlar aniq dalillar asosida keltiriladi.

Uslubiy qo'llanmada iqtidorli talabalar bilan ishlash va fan to'garaklarini tashkil etishda quyidagilarga alohida e'tibor berilgan. Oliy ta'lim muassasasida talabalarning tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari ularda chuqur, mustahkam bilim egallashni, egallagan bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi. Mustaqil, puxta bilimlarsiz amaliy ishlarga yondashish, o'quv va ilmiy tadqiqot ishlarni bajarish mumkin emas. Shu bois ham oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning qiziqishlari va imkoniyatlarini shakllantirish maqsadida ular bilan ishlash uchun ko'plab fan to'garaklari, klublar va markazlar tashkil etiladi.

OTMlarida iqtidorli talabalarni izlash o'qishning dastlabki kunlaridan va kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Iqtidorli talabalar boshlang'ich bilimlar hisobga olingan holda, psixologik va pedagogik hamda intellektual testlar o'tkazish orqali qobiliyatning rivojlanganlik darajasiga qarab aniqlanadi.

Aniqlangan iqtidorli talabani aniq maqsadli tayyorlash quyidagi o'quv-ijodiy, tarbiyaviy masalalar va yo'nalishlardan iborat:

– kengaytirilgan o'quv rejasi bo'yicha o'qish va qo'shimcha malakaga ega bo'lish;

– aniq maqsadli dastur bo'yicha yakka tartibda (individual) o'qitish;

– chuqurlashtirilgan dastur bo'yicha o'qitish (fundamental fanlar; umumkasbiy fanlar; menejment, marketing, audit; ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar; ekalogiya va boshqalar).

Buyurtmachilar talablariga asoslangan holda OTM iqtidorli talabalarning kasbiy yo'nalishi, o'quv-ijodiy va tarbiyaviy tayyorgarligining qo'shimcha yo'nalishlarini belgilash va ta'lim xizmatlari joriy etiladi.

Iqtidorli talabalarni aniq maqsadli tayyorlash dasturlarida quyidagi omillar nazarda tutiladi: fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish, kompyuter va yangi axborot texnologiyalar bilimdonligi hamda programmalashtirish, chet tillaridan birini puxta egallash, kurs va bitiruv ishlarini hamda magistrlik dissertatsiyasini yozishda kompyuter va chet tilidan samarali foydalanish, ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlash,

yangi fikr va mulohazalarni bildirish, amalda tadbiq etish, soha bo'yicha mustaqil bilim olishga yo'naltirish va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni tezkorlik bilan egallash xususiyatlarini shakllantirish, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri tushunadigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan, vatanparvar, barkamol inson etib shakllantiriladi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlovchi rahbar va professor-o'qituvchilarni tanlash – iqtidorli talabalarga dars berishga va ular bilan auditoriyadan tashqari individual ishlashga ilmiy darajali va talabani aniq mo'ljalli tayyorlash dasturi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar jalb etiladi. Iqtidorli talabalarga ilmiy rahbar etib, ijodiy va uslubiy ishlash tajribasiga ega o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha reytingi yuqori professor va dotsentlar tayinlanadi.

Uslubiy qo'llanmada ta'lim tizimida test topshiriqlari tayyorlash, testlarning turlari va shakllari, mustaqil ta'lim, uning turlari va bajarish usullari, oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz malakaviy amaliyotlarni o'tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish, kurs ishlari, BMI tayyorlash, rasmiylashtirish va unga qo'yiladigan talablar, talabalar bilimni nazorat qilishning reyting tizimi kabi o'quv jarayonidagi masalalarning yechimi ochib berilgan.



## Oliy ta'limda darslarning tuzilishi va turlari

Oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim tizimidan farqli o'laroq, mashg'ulotlar ma'ruza, seminar (amaliy), laboratoriya va ekskursiya shakllarida amalga oshiriladi.

Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, oliy o'quv yurtida dars berishning asosiy shakllaridan biri. U talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

*Ma'ruza* (arabcha — *o'qish*) — o'quv materiallari, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma'lum bir tizimiga solingan bayoni.

Ma'ruza o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanib, u bir qator vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Hozirgi pedagogik texnologiyalar tizimida ma'ruza o'ziga xos modul, uni tayyorlash va o'tkazish esa kichik pedagogik texnologiya jarayonidan iborat. Bu jarayon dastlab ma'ruza uchun matreallarni to'plash, o'rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, tegishli amaliy vazifalarni belgilash va ularni sifatli amalga oshirish yuzasidan tavsiyalarni shakllantirish bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Shundan so'ng ma'ruza matnini tayyorlash bosqichi boshlanadi. Ma'ruza matnlari kursning o'quv-mavzu rejasida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha tayyorlanadi. Shu mavzularni tegishli tinglovchilar guruhi bilan o'rganishdan ko'zda tutilayotgan maqsadlar belgilanadi. Bunda mavzuning dolzarbligini aniq ko'rsatib berish, unda tegishli muammolarni hal qilish yo'nalishlarini belgilab berish va shunga muvofiq ilmiy, metodik va amaliy xulosalarni sharhlash, ularni amalga tadbiq etish yuzasidan zarur tavsiyalar berish nazarda tutiladi.

Ma'ruza mazmuni uning mavzusini to'liq qamrab olishi zarur shartlardan hisoblanadi. Buning uchun ma'ruza materialini, odatda, asosiy tarkibiy bloklarga ajratish yaxshi natija beradi. Buning natijasida ma'ruza matnini tayyorlashda ham va shu ma'ruzani guruhda o'tkazishda ham zarur tartib hamda mantiqiy izchillikka erishiladi.

Ilmiy-pedagogik mavzulardagi ma'ruzalar materiallarning tarkibi ko'proq quyidagi bloklardan tashkil topadi:

— nazariy blok. Bunda tinglovchilarni mavzuning ilmiy-nazariy asoslari, qonuniyatlari va qoidalari bilan tanishtiriladi, ya'ni bu nimani o'rgatish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

– metodik blok. Mavzunining qonun-qoidalarini o‘rganish, o‘rgatish, qo‘llash, foydalanish masalalarini o‘zlashtirish, ya’ni bu «qanday bajarish kerak» degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

– amaliy blok. Ma’ruza davomida o‘rganilgan, ya’ni ma’lumotlarni «qayerda, qachon, nima maqsadda, qanday vositalar orqali, qanday me’yorlarda qo‘llash» bilan tanishtirish, ya’ni bu «nima uchun kerak» degan umumiy savolga javob deb belgilanishi mumkin;

– xulosalar bloki. Nazariy, metodik va amaliy bloklar bo‘yicha umumlashtiruvchi natijalarni ifodalashga xizmat qiladi va bu «nima qilish kerak» degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

– nazorat bloki – tinglovchilarning o‘zlashtirishlarini ma’ruza davomida tezkor nazorat qilishga xizmat qiluvchi har turli didaktiv materiallar va usullardan iborat bo‘lib, bu «tushunarlimi» degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

– tavsiyalar bloki. Ma’ruza mavzusi bo‘yicha xulosalarni har turli real sharoitlarda amalga oshirish yuzasidan tinglovchilarning fikr-mulohaza va takliflarini hisobga olgan holda hamkorlik va hamfikrlikda belgilangan asosiy yo‘l-yo‘riqlardan iborat bo‘lib, bu navbatdagi hamda kelgusi vazifalarni belgilab beradi. Uni majoziy ma’noda «ma’qulmi» degan savolga javob deb belgilash mumkin.

Ma’ruza bloklarini yuqorida keltirilgan shartli savollar bilan qo‘shimcha ravishda belgilab nomlashdan maqsad shuki, ular har bir blokning maqsad va mazmunini o‘ziga xos yaqqol ifodalashi bilan ma’ruzani tayyorlash hamda o‘tkazish davrida ma’ruzachi uchun foydali mo‘ljal sifatida qulaylik tug‘diradi. Bu esa ma’ruzaning matn tayyorlash va ma’ruzani o‘tkazishda kamchiliklarsiz, aniq izchillikda faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratadi.

Ma’ruza matnini bayon etishda zamonaviy pedagogik, psixologik, didaktik qoida va talablar hisobga olinadi. Ma’ruza matnlari faqatgina bayoniy axborotlardan iborat bo‘lmay, undagi savollar, muammolar, yechimlar asosida muammoli vaziyatlar keltirib chiqarishga, matnni mustaqil mutolaa qilishga, erkin fikrlashga undashi kerak.

Ma’ruza matnlarida mavzu bayoni mamlakatimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlar va taraqqiyot yuksalish jarayoni, jo‘shqin hayot tarzi, ilg‘or fan yutuqlari bilan chambarchas bog‘lanishi lozim. Mustaqillik yillarida qo‘lga kiritilgan yangiliklar, muvoffaqiyatlar aniq dalillar asosida keltiriladi.

Ma'ruza matnida tinglovchilarning qanday tushuncha, malaka, bilimlarni o'zlashtirishlari zarurligini nazarda tutish muhimdir. Tayanch signal, sxema, diogramma, tasviriy matreallarga alohida e'tibor berish kerak.

Ayniqsa, materiallarni hayotiy misollar asosida tayyorlash zarur. Ta'lim tizimida milliy g'oya, madaniy, tarixiy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirish orqali ularni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida va e'tiqodli qilib tarbiyalashga erishish lozim.

Oliy ta'limda fanlarni o'qitish tizimida mashg'ulotlarning ma'ruza, seminar (amaliy) va laboratoriya shakllari bo'lib, ular quyidagi maqsad va vazifalarga yo'naltirilgan:

**Ma'ruza.** O'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli bo'lib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

**yo'naltiruvchilik** – o'quvchilarni o'quv materialining asosiy holatlariga, uning kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;

**axborotlilik** – o'qituvchi ma'ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

**metodologiklik** – ma'ruza vaqtida o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;

**tarbiyalovchilik** – ma'ruza o'quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo'lishni uyg'otish;

**rivojlantiruvchilik** – bilim olish qiziqishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'ruza ilmiy xarakterga ega bo'lishi, turli nazariy yo'nalishlar, ilmiy maktablarning asosiy g'oyalarni talabalar ongiga yetkazishi va olgan bilimni ishonchga aylantirishi kerak.

Har qanday ma'ruzaning eng zarur sharti tinglovchilar bilan qizg'in aloqaga kirishishdir. Ma'ruzani ko'tarinki ruh bilan o'qish kerak.

Ma'ruza o'qish, eng avvalo, unga tayyorlanishdan boshlanadi. Shuning uchun birinchi navbatda ma'ruza mavzusi bo'yicha adabiyotlar tanlash hamda ular bilan tanishib chiqish kerak.

Ma'ruzada talabalar o'tilayotgan fanning dasturi asosida mavzuga oid bilimlar va unga doir oxirgi erishilgan yutuqlar bilan birinchi marta tanishtiriladi, yechimini topgan va yechimini kutayotgan muammolar haqida tushunchalar beriladi. Ma'ruza – bilimlar majmuasini berishning eng ratsional usuli.



Ma'ruza talabalar bilan muloqotda bo'lishning alohida shakli bo'lib, uni boshqa hech qanday o'quv shakli bilan almashtirib bo'lmaydi. Ma'ruza-ning oldiga qo'yadigan maqsadi har xil bo'lib, bu maqsad maksimal darajada amalga oshishi uchun uning vazifalariga ahamiyat berish kerak.

**Ma'ruzaning vazifalari:**

- professional ta'lim berish va dunyoqarashni shakllantirish.
- talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Ularni axloqiy, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, mehnatga munosabati, sotsial-psixologik xislatlarini shakllantirish.
- bilim berish, o'rganayotgan fani bo'yicha axborot olish, olgan axboroti asosida tadqiqot o'tkazib, xulosa chiqarishga o'rgatish.

**Ma'ruzaga qo'yiladigan talablar.**

Ma'ruza ma'lum bir yo'nalishga: yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim. Ma'ruzada asosiy maqsadga etish uchun talabalar-da fanlarni o'rganishga barqaror qiziqish uyg'otish kerak. Ma'ruzani shunday tuzish kerakki, talabada fanni chuqur o'rganish uchun mustaqil ravishda adabiyotlarni topish, ularning ustida ishlash, tushunishga xohish-istak tug'ilsin. Shuning uchun zarur material, kitoblar, jurnal va boshqa ma'lumotlar tanlash prinsipial ahamiyatga ega.

Shu bilan birga talabalarga duch kelinadigan qiyinchiliklarni, ularni obyektiv va subyektiv tomonlarini ham tushuntirish kerak.

Tajriba ko'rsatadiki, talabaga dekloratsiya, shior emas, balki ishonchli dalillar, chuqur tahlil ko'proq ta'sir qiladi. Har qanday fanni o'qitish ham ishonchli dalillar, ma'lumotlar, nazariy va amaliy xulosalarga tayanadi.

Ma'ruzaning ilmiyligi materialni bayon qilishning izchilligi, savollarning aniq, tushunarli qo'yilishini nazarda tutadi. Ma'ruzaga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi mavzu bo'yicha savollarni qanday bayon qilishni, qanday uslublar qo'llashini ko'z o'ngiga keltirishi kerak. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni, zarur ma'lumotlarni ana shundagina to'g'ri tanlashi mumkin. Yana shuni ham hisobga olishi lozimki, o'qituvchi zarur dalillar, ma'lumotlarga ega bo'lsa-da, ularni ishonarli, asoslangan holda bayon qilmasligi, fandagi dolzarb savollarga javob berishdan chetlab o'tishi yoki chetga chiqishi mumkin. Bu talabalarda ma'ruzadan qoniqmaslikka olib keladi.

## Ma'ruza turlarining o'ziga xos xususiyatlari

Ma'ruza shakllari	O'ziga xos xususiyatlari
Kirish	Ma'ruzaning eng an'anaviy turi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> o'quv ma'lumotini bayon qilish va tushuntirish
Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli	Kursni yoki uning bitta bo'limini bayon etilgan nazorat holatlari negizida, avvalo, ilmiy-tushunchaviy va konseptual asos tashkil etadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish. Ichki va fanlararo aloqani voritib berish
Muammoli	Yangi bilimlar savol, vazifa, vaziyatlarning muammoligi orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilimi o'qituvchi bilan hamkorlikda va suhbatda tadqiqotchilik faoliyatiga olib kelinadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini yoritib berish; muammoni aniqlash, uni yechish, jamlash va an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarni tahlil qilishni tashkillashtirish
Ko'rgazmali	Bunday ma'ruzaning olib borilishi ko'rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlashga olib keladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> ma'lumot mazmunini ta'limning texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish
Binarli	Bunday ma'ruzaning olib borilishi ikki nafar o'qituvchi, ikki nafar maktab vakillari, olim va amaliyotchilar, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi suhbatni namoyon qiladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotlarini ikki tomon nuqtai nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berish
Oldindan ko'zlangan xatoliklar bilan	O'qituvchi ongli ravishda yo'l qo'ygan mazmuniy, metodologik xatolar: talabalar tomonidan topishga qaratilgan. Ma'ruza yakunida talabalarning tashxisi va yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlili olib boriladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi material mazmunini yoritib berish; talabalarni taklif etilayotgan ma'lumotni doimo nazorat qilishlariga qiziqtirish
Anjuman	O'qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur miqyosida, oldindan belgilangan muammo va ma'ruza tizimi bilan ilmiy-seminar mashg'uloti olib boriladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini izlash va tizimlashtirishga harakat qildirish

Maslahatli	<p>Turli yo'l bilan o'tkazilishi mumkin. 1. «Savol-javob». O'qituvchi ma'ruza davomida butun kurs yoki bo'lim bo'yicha talabalarning savollariga javob beradi. 2. «Savol-javob-munozara». Yangi ma'lumotni nafaqat bayon etadi, balki qo'yilgan savollarga javob izlab topishni tashkillashtiradi.</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> talabalar bilimini mustahkamlash, rivojlantirish, ularni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish</p>
------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

**Kirish ma'ruzasida ta'lim berish texnologiyasi.** Hozirgi vaqtda o'quv materialini tuzilmaga solish modul asosida amalga oshirilmoqda. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishning psixologik nazariyasiga muvofiq, bu muammoni o'qitish tuzilmasiga qiziqtiruvchi bosqichni kiritish orqali hal etish mumkin. Uning vazifasi – ta'lim oluvchilarda kutilayotgan o'quv materialini egallash uchun qiziqishni (bizning holatda o'quv fani, kursga) ta'minlash, zero harakatning to'liq yo'nalishi o'quv materialining barcha tashkil etuvchilari o'rtasidagi aloqani aniqlashi mumkin.

Oliy maktabda ta'lim fan, kursning qiziqtiruvchi bosqichi kirish ma'ruzasi hisoblanadi. Uning maqsadi – o'quv fanining kursi to'g'risida birinchi umumiy tasavvurni berish va talabalarni ish jarayonida, oldindagi o'quv faoliyati natijalariga va ularning nazorat tizimi va baholashiga yo'naltirish hisoblanadi.

*Pedagogik vazifalar quyidagilardan iborat:*

- talabalarni fan, kursning ahamiyati, vazifasi va uning o'rni, o'quv fanlar tizimida hamda kasbga tayyorgarligidagi o'rni bilan tanishtirish;
- tuzilmaga qisqacha sharh berish, fanni va amaliyot rivojlanishini, bunda mashhur olimlarning xizmatini aytib, bu sohadagi erishilgan yutuqlarni yoritib berish;
- ushbu bilimlar sohasidagi tadqiqot istiqbollari yo'nalishlarini bayon etish;
- fan, kurs doirasida uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini yoritish; tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini amalga oshirish;
- hisobot, baholash shakllari va vaqtini aniqlash.

Quyida ma'ruzaning o'zaro faol usuli, o'tkazish texnologiyasiga to'xtalamiz. Har qanday yuqori saviyada o'tkaziladigan ma'ruza, garchi u faktlarga boy bo'lsa ham, uzoq vaqt bir maromda davom etaversa, tinglovchilarning eshitish qobiliyati susayadi va charchaydi. Bu holat uni



loqayd eshituvchiga aylantiradi. Ma'ruza qancha uzoq davom etsa, samaradorlik shuncha kamaya boradi. Ma'ruzani samarali o'tkazish uchun nima qilmoq kerak?

Buning uchun ma'ruzani kichik pedagogik texnologiya darajasida biz yuqorida keltirgan talablar asosida quydagicha tashkil etish tinglovchilar uchun qulaylik tug'diradi.

Ma'ruzachi o'z ma'ruzasini bir nechta bloklarga bo'ladi. Har bir blokni 15 – 20 minut davom ettiradi va har bir blokdan so'ng to'xtab, mavzu bilan bog'liq qisqa savol-javob, fikr almashuv olib boradi. Tinglovchilarni kichik guruhga bo'lib, muhokama, munozara tashkil etadi.

Ma'ruza davomida ayrim muammolarni o'rtaga tashlaydi. Shu vaqt oralig'ida bu muammoga tinglovchilarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikrlarini tinglaydi. Har bir fikr bildiruvchiga imkoniyat yarata-di. Ammo uni tanqid ostiga olmay, boshqalarning fikrlarini ham tinglay-di. Bu holat ma'ruzaga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartira-di, ma'ruzaga befarq qaramaslikka sabab bo'ladi, tinglovchilar orasida o'zaro faollik paydo bo'ladi, muhokama etilayotgan mavzu bilan bog'liq muammolarga qiziqish ortadi. Tinglovchilarni yakka tartibda suhbatga tortish 5 minutgacha davom etishi mumkin.

Ma'ruzachi tinglovchilarning qiziqishi, intilishi, ma'suliyati oshib borishini kuzatib boradi. Ma'ruza davomida muntazam faol ishtirok etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar ma'ruzachining tayanchiga aylanadi va ular ma'ruzachi tomonidan rag'batlantirilib boriladi.

Ma'ruza davomida mavzuni asta-sekin tinglovchining kundalik faoliyatiga doir misollar bilan bog'lab boriladi (tarixdan dars o'tish jarayonida talabalarga har xil tarixiy davrlarda ilm oluvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar, ulardan ko'zlangan mafkuraviy maqsadlar va rag'batlantirishlarning ko'rinishlari) va qisqa munozaralar orqali tegishli yechimlar topiladi va bundan esa o'z navbatida tinglovchi ma'ruza mazmunining kundalik hayotda naqadar zarurligini his etadi.

Shu holda kechgan ma'ruzalarda tinglovchilar vaqt qanday o'tganini bilmay qoladi. Ma'ruzaning yana davom etishini xohlab, befarqlik o'rni-ni hushyorlik, ichki intilish, yechim qidirish egallaydi, o'zlari ham yechimini topishda shaxsan ishtirok etib, hissa qo'shishga intiladi va ular ma'ruzaning mazmunini hayotiy misollar orqali yoritishda ishtirokchilarga aylanadi.

**Seminar (amaliy) mashg'uloti** – bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulot shaklidir.

**Seminar (amaliy) mashg'ulotining asosiy maqsadi** nazariy materialni (bilimlarini) tartibga solish, amaliy malaka va ko'nikmalarini hosil qilish va bilimlarini nazorat qilishdan iborat.

Seminar (amaliy) mashg'uloti darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma'ruza darsi mavjud bo'lgan va ma'ruza darsi mavjud bo'lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlari. Seminar (amaliy) mashg'uloti darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar-tematik rejalariga qat'iy amal qilingan holda o'tkaziladi. Seminar (amaliy) mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha zarur adabiyotlar ro'yxati beriladi. Ma'ruza darsi mavjud bo'lgan seminar (amaliy) mashg'ulotlarda, asosan, ma'ruza darslarida o'tilgan materiallar, mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi.

Seminar (amaliy) mashg'uloti quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- nazariy materialni tartibga solish;
- ko'nikmalarni hosil qilish;
- bilimlarni nazorat qilish.

Ta'lim beruvchi seminar (amaliy) mashg'ulotini samarali o'tkazish uchun quyidagilarni hisobga olishi zarur:

- o'zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo'lishi;
- o'quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, tashkil etilish xususiyati;
- o'quv jarayonining texnik jihozlanishi.

Seminar (amaliy) mashg'uloti darslarida yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib, tashkiliy ishlarni o'tkazadi. Xonaning darsga tayyorlik darajasi, doskaga yozish va o'chirish vositalarining mavjudligi hamda talabalar davomati aniqlanadi. Darsda o'tiladigan mavzu e'lon qilinib, doskaga yozib qo'yiladi. O'tgan mavzuning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinib, yangi mavzu rejasi beriladi. Ma'ruza darslari mavjud bo'lgan fanlardan seminar mashg'uloti, darslari, albatta, ma'ruza o'tilgandan keyin o'tkaziladi. Ma'ruzada o'tilgan materiallarning asosiy xulosalari tushuntiriladi, ma'ruza bilan seminar mashg'uloti bog'lanadi.

Seminar (amaliy) mashg'ulotlari fanning, hattoki mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqib, turli xil usullarda o'tkazilishi mumkin.

Seminar (amaliy) mashg'uloti darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantirilib ball qo'yiladi. Seminar (amaliy) mashg'uloti darslarining qat'iy dastur bo'yicha sifatli o'tilishini, talabalar bilimining o'z vaqtida baholanishini fandan ma'ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek, amaliyot o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi, amaliyot darslarida nimalarga alohida e'tibor qaratilishi, ma'ruzada mavzularning qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilganini va boshqa o'quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib, fikrlashib turishi lozim.

Ma'ruza darslari rejalashtirilmagan, faqat amaliy dars o'tkaziladigan fanlardan seminar (amaliy) mashg'ulotlari o'tkazishda nazariy bilimlar bilan amaliy mashqlar bajarish birgalikda olib boriladi. Dastlab mavzu bo'yicha nazariy bilimlar beriladi, o'qituvchi misol va mashqlar bajarib ko'rsatadi. Shundan so'ng talabalar mustaqil mashqlar bajaradi. O'qituvchi talabalar bilimini baholab boradi. Amaliy darsni o'qituvchi xulosalab yakunlaydi.

Seminar (amaliy) mashg'ulotlarini o'tkazishning asosiy yo'li ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlangan ma'ruza va ma'lumotlarni jamoaviy muhokama qilishni tashkillashtirishdan iborat bo'ladi.

Seminar (amaliy) mashg'ulotlari samaradorligi ta'lim oluvchilarni seminar mashg'ulotiga tayyorlanish sifati bilan aniqlanadi. Ma'ruza va yangiliklar bilan chiquvchi, ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir mashg'ulot uchun texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlanadi.

O'quv maqsadlari muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni belgilaydi. Har bir fanning o'quv maqsadlari to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'quv maqsadlarining mazmuni yo'naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. O'qituvchi tomonidan seminar (amaliy) mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi, dars ishlanmasi va texnologik xaritasi ishlab chiqiladi. Har



bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini to'laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil qilish imkonini beradi.

**Laboratoriya darslari** – o'quvchilarga turli jihoz, maxsus uskuna, qurol, texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish imkoniyatini yaratuvchi metodlar bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Ushbu metod o'quvchilarda asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish, ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma, jihoz va materiallarni, vaqtni sarflash hisobiga ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi.

**Ekskursiya darslari** – narsa va hodisalar mohiyatini tabiiy sharoitlar (ishlab chiqarish muassasalari, fermer xo'jaliklari, tabiat) yoki maxsus muassasalar (muzey, ko'rgazma zallari va h. k.) da bevosita o'rganilishini tashkil etish bo'lib, ana shu maqsadga xizmat qiladigan dars ekskursiya darsi deb nomlanadi.

### **Ta'lim modeli va darsning texnologik xaritasi**

Hozirgi vaqtda o'quv materialini tuzilmaga solish modul asosida amalga oshirilmoqda. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishning psixologik nazariyasiga muvofiq, bu muammoni o'qitish tuzilmasiga qiziqtiruvchi bosqichni kiritish orqali hal etish mumkin. Uning vazifasi – ta'lim oluvchilarda kutilayotgan o'quv materialini egallash uchun qiziqishni (OTMda o'quv fani, kurs) ta'minlash. Zero harakatning to'liq yo'nalishi o'quv materialini barcha tashkil etuvchilari o'rtasidagi aloqani aniqlashi mumkin.

Oliy ta'limda fan, kursning qiziqtiruvchi bosqichi kirish ma'ruzasi hisoblanadi. Uning maqsadi – o'quv fanining kursi to'g'risida birinchi umumiy tasavvurni berish va talabalarni ish jarayonida oldindagi o'quv faoliyati natijalariga va ularning nazorat tizimi va baholashiga yo'naltirish hisoblanadi.

*Pedagogik vazifalar quyidagilardan iborat:*

– talabalarni fan, kursning ahamiyati, vazifasi va uning o'rni, o'quv fanlar tizimida hamda kasbga tayyorgarligidagi o'rni bilan tanishtirish;

– tuzilmaga qisqacha sharh berish, fanni va amaliyot rivojlanishini, bunda mashhur olimlarning xizmatini aytib, bu sohadagi erishilgan yutuqlarni yoritib berish;

– ushbu bilimlar sohasidagi tadqiqot istiqbollari yo‘nalishlarini bayon etish;

– fan, kurs doirasida uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini yoritish; tavsiya etilayotgan o‘quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini amalga oshirish;

– hisobot, baholash shakllari va vaqtni aniqlash.

### Kirish ma’ruzasida ta’lim texnologiyasi modeli

<i>Vaqt: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: . . .ta</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Kirish ma’ruzasi
<i>O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘quv kursi va mashg‘ulot mavzusiga kirish</li> <li>2. Bilimlarni faollashtirish – aqliy hujum</li> <li>3. Ma’ruza matnini tarqatish</li> <li>4. Ma’ruzani Power point tartibida olib borish</li> <li>5. Asosiy atamalarni aniqlash (pinbord)</li> <li>6. Yakunlash. Baholash</li> </ol>
<i>O‘quv mashg‘ulot maqsadi: O‘quv fani to‘g‘risida umumiy tasavvurlarni berish</i>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>–... fanning ahamiyati va vazifalari, uning o‘quv fanlar tizimida tutgan o‘rni bilan tanishtirish;</li> <li>–... o‘quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o‘quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlash;</li> <li>–... nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritish;</li> <li>–... fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini, muddat va baholash shakllarini ochib berish;</li> <li>–... tashkillashtirish, ... jarayonning umumiy chizmasini tavsiflash;</li> <li>–... jarayonni tashkillashtirishning asosiy bosqichlarini ifodalash;</li> <li>–... jarayonni tushuntirish</li> </ul>	<p><i>O‘quv faoliyat natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>–... fanning ahamiyati va vazifalarini ifodalaydi;</li> <li>–... o‘quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o‘quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlaydi;</li> <li>–... nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritadi;</li> <li>–... fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini, muddat va baholash shakllarini ochib beradi;</li> <li>–... jarayonning umumiy chizmasini tavsiflaydi;</li> <li>–... jarayonni tashkillashtirishning asosiy bosqichlarini ifodalaydi;</li> <li>–... jarayonni tushuntiradi</li> </ul>

<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, insert jadvalini to'ldirish, aqliy hujum
<i>Ta'limni tashkillashtirish shakli</i>	Ommaviy, guruhli va individual
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, kompyuter jaml., grafikli tashkil etuvchilar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov, jadval asosida baholash

### Darsning texnologik xaritasi

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyati (o'quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilishga yordam beradi.

#### *Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari:*

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1 – 1,5 – 2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

#### *1-bosqich (5 – 10 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.*


**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.** *Ta'lim beruvchi* mavzuning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, o'rgatuvchili o'yin va boshqalar), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini, o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash me'zonlari bilan tanishtiradi.

*Ta'lim oluvchilar* tinglaydi, aniqlashtiradi, savollar beradi, yozib oladi.

#### *2-bosqich (55 – 65 daqiqagacha). Asosiy ma'lumot beruvchilik.*

**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.** *Ta'lim beruvchi* o'quv mashg'ulotining rejasi tuzilishiga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

*Ta'lim oluvchilar* ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradi.





3-bosqich (10 – 15 daqiqagacha). Yakuniy-natijaviy.

**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.** *Ta'lim beruvchi* mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylariga qaratadi, bajarilgan ishlarning kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholash yakunini chiqaradi: o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

*Ta'lim oluvchilar* o'zaro baholashni o'tkazadi, savol beradi, topshiriqni yozadi.

### O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (... daq.)	1. 1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1. 2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1. 3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlari baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydi, yozib oladi.  Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich. Asosiy (... daq.)	2. 1. Tezkor so'rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2. 2. Ma'ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi.	Javob beradi, Yozadi. Guruhlarda ishlaydi, taqdimot qiladi va bosh.
3-bosqich. Yakuniy (... daq.)	3. 1. Mavzu bo'yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3. 2. Guruhlar ishini baholaydi, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3. 3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadi. Savol beradi, topshiriqni yozadi.

*Ilova.* O'quv jarayonining tashkiliy-didaktik vazifasini bajaradi: o'quv, mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek, chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

### **Darslar yuzasidan taqdimot va tarqatma materiallar tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar**

Ta'lim muassasalarida darslarning sifatini oshirish va berilayotgan ma'lumotlarning ta'lim oluvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishida taqdimot (prizentatsiya) asosida tashkil etilgan ma'ruzalarning o'rni ahamiyatlidir. Tayyorlanadigan taqdimot ma'ruzalarining quyidagi qonuniyatlarga javob berishi samarali natijaga olib keladi:

1. Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn asosida) ifodalang.
2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni (5 – 6 so'z bilan) asoslang.
3. Loyihangizning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulning qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1 – 3 taklif orqali) ko'rsating.
4. Loyiha vazifalarini (qisqa va ma'noli) ifodalang.
5. Loyihaning ish rejasi (jadval) ni bayon eting.
6. Vazifa yechimining natijalari va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.
7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiring.
8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.
9. Baholang.
10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (xohishingizga ko'ra).

## 1. MS Power Pointda taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnomasi.

1. MS Power Pointda taqdimotga tayyorlash jarayoni quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;
- yangi slaydlarni qo'shish;
- slaydlarni belgilashni tanlash;
- zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

2. Slaydlarni texnik namoyish etish quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

- slaydlar miqdori (8 – 12);
- slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlari: birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, o'quv guruhi raqami, yaratilgan kundan iborat;
- oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;
- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi;
- slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3. Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi:

- agar matn og'zaki bo'lsa, quyidagicha bo'lishi zarur:
- yuqori axborotlilik;
- bog'lovchilik;
- aniq va qisqa;
- oddiy sintaktiklik (... *quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlar kamroq bo'lsin*) – bularning barchasini ma'ruzachining o'zi so'zlashi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;

• (asosan atama va ta'riflarda) tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etishdan oldin matnni tekshirishga erinmang;

• ovoz tiniq bo'lishi kerak. Taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchining ovozini eshitib bo'lmaydi, eng yaxshisi ma'ruzachining jonli ovozi hisoblanadi;

• rasmlar aniq va yetarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlar o'lbami-ni katta qilishga urinmang, bunda siz sifatni yo'qotasiz;



- videotasmalar taqdimot oynasining uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin;
- jadvallarda ajratuvchi ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi, jadvallarning nomlanishi tagiga katta yozuvlarda berilishi zarur. Jadvallarni haddan ziyod ko'p ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumot kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi. Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur. Chizmalar bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

**Tarqatma materiallar tayyorlash.** Ta'lim muassasalarida berilayotgan bilimlarni ta'lim oluvchilar tomonidan samarali o'zlashtirishlarida, ta'lim sifatini oshirish va belgilangan maqsadga natijaviy erishishlarida ta'lim vositalari asosiy hal qiluvchi o'rinni egallaydi.

**Ta'lim vositalari** – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

**Ta'lim vositalari:**

1. Ta'lim berishning texnik vositalari.
2. Yordamchi texnik vositalari.
3. O'quv-uslubiy materiallar.

**Ta'limning texnik vositalari** – o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (diaproektor, grafoproektor, doska-bloknot, doska-stend, flipchart, vidiofilmlar).

**Yordamchi ta'lim vositalari** – grafiklar, chizmalar, na'munalar va boshqalar (model-mulyajlar, diagrammalar, sxema, xaritalar va boshqalar).

**O'quv-uslubiy materiallar** – o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarining mustaqil ishlashlarini faollashtirishga yordam beradi (ish varaqasi, eslatma, nazorat varaqasi, matnlar).

Ta'lim vositalari o'qituvchi va o'quvchi uchun hamda dars o'tkazish uchun alohida variantlarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Jumladan, dars jarayonida tarqatma materiallardan foydalanish ham

o'rganilayotgan mavzularning samarali bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Quyida mavzular yuzasidan tarqatma materiallarni tayyorlash va ularga qo'yiladigan talablar xususida to'xtalamiz.

**Tarqatma materiallar** – ta'lim oluvchilar uchun o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo'lmagan (1 – 2 varaq) yozma o'quv materiali hisoblanadi. Mazkur materiallar mashg'ulotni qiziqarli qilish imkonini berib, ko'p hollarda ta'lim oluvchilar uchun mustaqil ravishda o'qib chiqib, muhokama qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Tarqatma materiallarni tayyorlash va qo'llashda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

– ta'lim oluvchilarga haddan tashqari ko'p tarqatma materiallar bermaslik kerak;

– sarlavhalarni bosh harflar bilan yozish, bir mashg'ulot uchun ikkita tarqatmali material;

– material zarur bo'lsa, ularga kod-nom berib, ularni ajratishni osonlashtirish kerak;

– matn shrifti 12 dan kichik bo'lmasligi kerak;

– bir betda 80 tadan ko'p belgi (harf, qavs, undov belgisi va h. k.) ishlatmaslik kerak;

– matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo'lishi kerak;

– varaq dizayni e'tiborni o'ziga tortishi kerak.

**Ishchi varaqalar** – guruhlarda, juft bo'lib va individual mashqlar bajarishda qo'llaniladi. Ular turli jadvallar shaklida bo'lib, ta'lim oluvchilar tomonidan to'ldirish talab qilinadi.

**Nazorat varaqalari** – mashg'ulot yakunida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishda qo'llanilib, ular test savollari, masalalar va shu kabi shakllarda bo'lishi mumkin.

**Matular** – mashg'ulot mavzusi bo'yicha tayyorgarlik ko'rishda, mashg'ulot davomida, shuningdek, bilimlarni mustahkamlashda foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga taqdim etiladi.

O'quvchi uchun vosita darslik, o'quv qo'llanma yoki o'qituvchining ma'ruza matnlari, jadvallar, turli-xil xaritalar, topshiriq kartochkalar va hokazolar.

Dars o'tkazish uchun plakatlar, diagrammalar, modellar, maketlar, etalonlar, namoyish qilish jihozlari, laboratoriya amaliy ishlarni o'tkazish uchun jihozlar, audiovizual vositalar, diafilm, videoyozuvlar, diopozitivlar.

Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to'ldirishi, ya'ni uyg'unlashuvi kerak. Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim vositalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchi qaysi vositani qachon qo'llashini mashg'ulot maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda belgilab olishi muhimdir.

## **O'quv-uslubiy va EO'UM tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar**

O'quv-uslubiy majmua (keyinchalik O'UM) tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari.

*So'z boshi.*

O'UM bu qismida:

- berilgan o'quv fanini o'rganishga kirishishida o'qituvchining talabaga murojaati;
- O'UM tuzilishi;
- uning mazmuniga qisqacha tavsif beriladi.

*I Bo'lim. O'quv faniga kirish.*

Quyidagi o'quv ma'lumotli materiallaridan iborat:

- 1) o'quv fanini o'rganishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari;
- 2) mutaxassislik bo'yicha talabalar tomonidan fan mazmunini muhim o'zlashtirish darajasiga davlat ta'lim standartlarining talablari;
- 3) fanning o'quv dasturi: o'quv vaqtining umumiy hajmi va uning mavzular va ish turlari bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatiladi, o'quv fanining mavzuviy mazmuni izchillikda bayon etiladi;
- 4) fan bo'yicha nazorat shakli va reyting baholash;
- 5) asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati;
- 6) fan bo'yicha bilimlarni yakuniy tekshirish savollari.

*II Bo'lim. O'quv fani bo'yicha reja-topshiriq va o'quv-uslubiy materiallar to'plami.*

Berilgan o'quv mashg'uloti to'g'risida ma'lumotni, jumladan, ko'zlanayotgan o'quv natijalar, mustaqil ish uchun topshiriqlar, ularni bajarishni ta'minlovchi o'quv material va uslubiy tavsiyalar; o'quv yutuqlarini o'zi tekshirishi uchun test, topshiriq va savollardan iborat. Talabaning o'quv mashg'ulotiga mustaqil tayyorlanishida va o'quv jarayoni vaqtida uning mustaqil faoliyatini tashkiliy-didaktik ta'minlash vazifasini bajardi. O'quv yutuqlarini doimiy o'zi nazorat qilishini ta'minlaydi.



### ***Fan bo'yicha glossariy.***

Asosiy toifa va atamalar lug'atidan iborat.

### ***O'quv fani bo'yicha talabaning o'quv natijalari ko'rsatkichlari varag'i.***

Talaba tomonidan reyting ballar to'planishi to'g'risida tezkor ma'lumotlarni olishni ta'minlaydi.

O'quv fani bo'yicha talabaga mo'ljallangan O'UM ishlab chiqishning vositalari.

Talabaning O'UM quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqilishi kerak:

- 1) o'quv ma'lumotining maqsadi, tuzilishi, mazmuni va hajmi;
- 2) talabaga DTS tomonidan belgilangan, berilgan sharoitda va o'quv rejasida belgilangan vaqtda ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlovchi fan bo'yicha ta'lim texnologiyasi.

### ***Reja-topshiriq***

Reja-topshiriq har bir o'quv mashg'uloti uchun tuziladi. Jadval ko'rinishida bajarilib, quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- mavzuning nomi, o'quv mashg'uloti shakli va turi;
  - o'quv mashg'ulotining tuzilishi, olib borish rejasi;
  - o'quv mashg'uloti maqsadi;
  - talabaning o'quv faoliyati natijalari – ta'lim berish natijasida talaba bajarishi lozim bo'lgan harakatlar. Ular aniq (... aytadi,... . sanab beradi,... . tasniflaydi va h. k.) ifodalanib, olingan natijalarni bir xil ma'noda va haqqoniy baholash, ularning belgilangan maqsadga mos kelishini aniqlash imkonini beradi;
  - mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq. Ular qisqa maslahat va ularni bajarish bo'yicha tavsiyanomalardan iborat bo'lgan aytib berishlar bilan berilishi mumkin;
  - nazorat shakli: kuzatuv-o'quv topshiriqlarini bajarish, savol-javob shakli, test va boshqalar;
  - o'quv fani bo'yicha talaba olishi mumkin bo'lgan, eng yuqori ball.
- O'quv fan bo'yicha talaba olishi mumkin bo'lgan haqiqiy ball.

### ***O'quv-uslubiy materiallar***

O'quv-uslubiy materiallar o'quv mashg'uloti maqsadi va mazmuni-dan tashqari, ta'lim berish texnologiyasiga muvofiq quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv materiallar: ma'ruzaning qisqa (tayanch) chizma va jadval ko'rinishidagi yozmalari;

- o'quv guruhi uchun topshiriq, ularni bajarishning ko'rsatkich va baholash mezonlari;

- talabalar o'quv ish jarayonida amal qilishlari lozim bo'lgan axborot beruvchi materiallar (aqliy hujum, guruhlarda ishlash) *qoidasi*; (esse, referat yozishga) *talablar*; (keys va boshq.) *materiallar*;

- o'zini tekshirish uchun topshiriqlar (test, savol, topshiriq va mashqlar). Joriy pedagogik nazoratni va talaba tomonidan ko'zlanayotgan ta'limiy maqsadlarga erishish darajasini doimiy o'zi baholashni ta'minlaydi. Oraliq va yakuniy nazoratning savol va topshiriqlarini o'z ichiga oladi.

*O'quv-uslubiy materiallar hajmi chegaralanmaydi. Lekin ular ma'qul hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli ramsiylashtirilgan bo'lishi kerak.*

**Elektron o'quv uslubiy majmua (keyinchalik EO'UM)** – bu fanning barcha tarkibiy qismlari elektron hujjat shaklida tayyorlanadigan o'quv-uslubiy majmuasi. EO'UM o'z ichiga majburiy va qo'shimcha qismlarni qamrab oladi.

Majburiy qism qo'yidagi 4 ta komponentdan iborat:

1. Dasturiy komponent:

- fan dasturi – uslubiy me'yoriy hujjat bo'lib, davlat ta'lim standarti-ning muayyan fan bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi va mutaxassisligi bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarga muvoffiq ishlab chiqiladi;

- fanning ishchi dasturi – uslubiy me'yoriy hujjat bo'lib, fan dasturi bo'yicha bakalavr (magistr) bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarga muvoffiq ishlab chiqiladi.

2. Fanning mazmunini belgilovchi komponentlar:

- elektron o'quv qo'llanma (yoki ma'ruzalar matni) – davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlariga muvoffiq ravishda o'quv fanining to'liq yoki alohida bo'limlarining tizimli bayoniga ega bo'lgan yagona kompu-ter dasturi muhitida gipermatnli texnologiya asosida multimedia kompo-nentlaridan foydalangan holda interaktiv muloqot imkoniyatini yaratuv-chi, zarur hollarda qo'shimcha dasturiy modullarga ega bo'lgan elektron o'quv nashri;

- virtual amaliy-laboratoriya – o'tilgan nazariy materiallarni o'zlash-tirishga, amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan, tadqiqot obyektiga bevosita muloqotga chiqmagan holda turli xil hodisa

va jarayonlarni modellashtirish orqali tajriba-sinov o'tkazish imkonini beruvchi maxsus dasturiy vositalar majmuasi;

– elektron lug'at – komputer yoki boshqa elektron tashuvchida o'rnatilgan lug'at bo'lib, zarur so'zlarni uning morfologiyasi yoki u bilan bog'liq so'z jumlasini orqali tezlik bilan topish imkonini beradi. Uning ichki tuzilishi lug'at maqolalari jamlamasidan iborat ma'lumotlar bazasi shaklida qurilgan bo'lib, tarjima qilish yo'nalishini o'zgartirish funksiyasiga (misol uchun: ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha) ega bo'ladi. An'anaviy lug'atlardan farqli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga media-obyektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin.

### 3. Metodik komponentlar:

– o'qituvchiga mo'ljallangan metodik komponent: elektron metodik qo'llanma (yoki ma'ruzalar matni) – pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron uslubiy qo'llanmada pedagogik tajriba mashg'ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga o'girilgan shaklda yaratilgan talabalar ishlarini darslar bo'yicha rejalashtirilgan shaklida ko'rsatiladi. Unda mashg'ulotlar uchun texnologik xarita va didaktik materiallar beriladi. Didaktik materiallarga o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilar tushuniladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'quv-didaktik materiallar sifatida qo'llaniladigan matnli-vizual vositalar, amaliy mashg'ulotlarda ko'rsatma materiallari, uslubiy qo'llanmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar hamda elektron ta'lim resurslari ro'yxati beriladi;

– talabaga mo'ljallangan metodik komponent: seminar, amaliy va laboratoriya ishlar va ularni bajarishga mo'ljallangan metodik tavsiyalar; mustaqil ishlar va ularni bajarishga mo'ljallangan metodik tavsiyalar.

### 4. Baholash komponentlari:

– joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha elektron test savollar, elektron topshiriqlar, nazorat ish variantlari, muammoli vaziyatli topshiriqlar, boshqotirmalar, taqdimotlar, kurs ishi mavzulari va h. k;

– elektron testlar – saqlangan, ishlov berilgan va testlashtiruvchiga komputer yoki telekommunikatsion texnikasi yordamida taqdim etiladigan testlar. Testlashtiruvchi «qog'oz» blankalarni to'ldirib, so'ngra unga komputerdan ishlov bersa, bular komputarli test bo'lib hisoblanmaydi;



– elektron topshiriqlar – o‘qituvchiga ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil va nazorat ishlari uchun tartibga keltiradigan topshiriqlar majmuini o‘zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko‘rinishidir. Yaratilgan topshiriqlar ta’lim oluvchilarga an’anaviy «qog‘oz» li va elektron variantlarida taqdim etiladi.

– EO‘UMning qo‘shimcha qismlari elektron xrestomatiya, elektron jurnallar, Internet saytlar kabi manbalardan iborat bo‘ladi.

### **Ta’lim tizimida test topshiriqlari tayyorlash. Testlarning turlari va shakllari**

Ta’limda test topshiriqlarining bajarilish darajasi o‘quvchilarning o‘quv materiallarini ruhiy jihatdan qay darajada o‘zlashtirganligini aniqlashga yordam beradi:

- axborotni bilish, yod olish va so‘zlab berish;
- reproduktiv fikrlash;
- produktiv fikrlash;
- izlanuvchi-ijodiy fikrlash.

**Eslab qolish, bilib olish va axborotni tahlil qilish.** Bu o‘rinda eslab qolish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar tekshiriladi.

**1-misol.** Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan joy va yili to‘g‘ri keltirilgan javobni aniqlang?

- A. Kesh, 1336-yil 9-aprel
- B. Shaxrisabz, 1338-yil 9-may
- C. Qarshi, 1337-yil 9-mart
- D. Samarqand, 1335-yil 9-aprel

Bu topshiriq o‘quvchidan Amir Temur tavalludini eslash, u tug‘ilgan joyini aniqlash, yil va oyni farqlashni talab qiladi. Bu juda oson savol bo‘lsa ham lekin hududning tarixiy nomi, yil va sanalarni eslab qolish zaruriyatini tug‘diradi. Lekin bu testni yechish o‘quvchidan faqat axborotni eslab qolishni talab qiladi. Qiyosiy tahlil qilishni ko‘rsatmaydi. Shuning uchun axborotni yodlab qolish va uni tahlil qilish bilan bog‘liq testlarda yana ularni qiyosiy tahlil qilish ham inobatga olinishi lozim.

Reproduktiv o‘zlashtirish darajasi ushbu test topshiriqlarida sinoluvchidan, oldin o‘rganilgan bir nechta mavzular asosida mustaqil ish ba-

jarish talab etiladi. Ulardan oldingi yodlangan mavzular va voqealarni eslash talab etiladi.

**2-misol. Amir Temurning Xorazmga birinchi yurishidan qancha vaqt o'tib, u uzilkesil buysundirildi?**

Bu testni yoddan yechish mumkin emas, shuning uchun bo'lib o'tgan voqealarni eslash, tahlil qilish va yillarni hisoblash lozim.

Sodir bo'lgan voqea va hodisalarni tahlil qilamiz:

1. Qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan so'fiylar sulolasi vakili Husayn So'fining Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lgan janubiy Xorazmni, Kot va Xiva shaharlarini bosib olishini eslang;

2. Amir Temur 1372-yil Xorazmga Husayn So'fi huzuriga elchi yuborib, uning hududiga tegishli bo'lgan bosib olingan yerlarni qaytarishini so'rashi. Amir Temur va Husayn So'fi o'rtasida bo'lib o'tgan jang va Husayn So'fi yengilishi voqealarini esga oling;

3. 1373-yilda Amir Temur Xorazmga ikkinchi marta lashkar tortishi sabablarini o'ylab ko'ring;

4. 1388-yilda Xorazm hukmdori Sulaymon So'fi Oltin O'rda xoni To'xtamishxonning ig'vosi va fatvosiga uchib isyon ko'targani va natijada Amir Temur Xorazmga yurish qilib uni uzil-kesil buysundirishi voqeasini eslang va yillar o'rtasidagi farqni hisoblang.

Voqea va hodisalar tahlili – 4 ta.

Reproduktiv darajasidagi test topshiriqlari pedagogik yo'nalishdagi testlarda keng qo'llaniladi. Ular yordamida o'rganilgan mavzu, bo'lib o'tgan voqea va hodisalar mohiyati o'rganiladi. Lekin faqatgina reproduktiv sifat bilan chegaralansa, keyinchalik o'quvchining fikrlashini chegaralab qolishi mumkin, shu sababli testlarga yanada murakkabroq topshiriqlar kiritilishi lozim.

Produktiv darajadagi test – bu o'quvchining noan'anaviy holatlarda olgan bilimlarini ishlatishda mustakil fikr yuritishni talab qiladi. Bu faoliyat tayyor qoida yoki tasavvur asosida emas, balki o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'liq. Lekin bu darajadagi test topshiriqlarining tuzilishini boshqa o'zlashtirish sifati bilan bog'lash lozim.

**3- misol. Amir Temur shaharlar obodonchiligi yo'lida qurdirgan quyidagi binolarni qurilgan shaharlari bilan to'g'ri joylashtiring.**

1. Tabriz, 2. Sheroz, 3. Bog'dod, 4. Turkiston

a) masjid, b) madrasa, c) saroy, d) maqbara



- A) 1 – b, 2 – d, 3 – c, 4 – a
- B) 1 – c, 2 – c, 3 – a, 4 – d
- C) 1 – d, 2 – b, 3 – a, 4 – c
- D) 1 – a, 2 – c, 3 – b, 4 – d

Produktiv o'zlashtirish darajasi topshiriqlari katta diagnostik va didaktik qiymatga ega. Ularning bajarilishi uzviy bog'liqlikni, fikrlashni, aqliy tahlilni, yangi axborot tuzishni talab etadi. O'qitish natijalari bu holda bilim va tajribaga tayanadi.

Bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning bilim saviyasini bosqichma-bosqich ko'tarishga, qurilgan tarixiy inshootlar joylari va turlarini aniqlashga ko'maklashadi.

Produktiv darajadagi test topshiriqlariga murakkab savollar kiritish shart emas. Eng asosiysi, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan aqliy xulosalarni talab qilsa bo'lgani.

Bu topshiriq o'rta maktablarda o'quvchilarning tarixiy bilimlarini tekshiruvchi testlarga o'xshash ushbu testning tuzilishi murakkabligi shundan iboratki, bunga darsliklarda uchramaydigan misollar keltirilishi lozim. Shu bilan birgalikda o'quvchining maktabda tarix fanidan olgan bilimlari chegarasidan chiqmaslik lozim. Agar bu qiyinchilik yengilsa, demak test topshiriqlari yangi savollarni yechishdagi layoqatlariga to'g'ri yo'naltirilgan deb hisoblanadi. Bunday «mantiqiy topshiriq» qisqa muddatli o'qitish jarayonida emas, balki maktabdagi butun tarix kurslarining yaxshi o'tilganligidan keyin paydo bo'ladi.

Yana bir marta ta'kidlash lozim, ushbu test topshiriqlaridagi tarixiy savollar juda sodda va hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu topshiriq o'quvchidan Amir Temur davrida qurdirilgan inshootlarni joyi va turlarini aniqlashda mantiqiy yondashuvni talab qiladi.

Test topshiriqlari tahlili shuni ma'lum qiladi: eslab qolish, so'ngra ifodalash, keyin reproduktiv axborotga o'tish, undan so'ng produktiv axborotga, fikrlashga yo'naltirilganligi o'quvchilarning bilimini nazorat qilishni takomillashtiradi, ularning bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi. O'zlashtirish saviyasi qanchalik yuqori bo'lsa, fikrlash operatsiyalar soni shunchalik ko'payadi.

**Izlanuvchi-ijodiy daraja.** Ma'lumki, ijod – bu moddiy va ma'naviy afserada yangilik barpo etish, hozircha javobi yo'q masalani yechish.

Test topshirig'i to'g'ri javob talab qilganligi sababli ijodiy test topshiriqlarini «toza» holda tuzish mumkin emas. Shu sababli izlanuv-



chi-ijodiy daraja deb biz ijodga yaqinlashuvni, noan'anaviy yondashuvni, fikrlashni, fantaziyani tushunamiz. Tajriba shuni ko'rsatdiki, savollarning yechimi hatto o'qituvchilar uchun ham qiyinchilik tug'diradi.

Umumlashgan holda test topshiriqlarining to'rtala darajasi haqida ma'lumot quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

### Har bir test topshiriqlarining yutuq'i, kamchiligi, yo'nalishi

Daraja	Nima tekshiriladi	Yutuq	Kamchilik
Axborotni qabul qilish va yetkazish	Sanalar, faktlar, hodisalar, joylar, sanalar va boshqa axborotlarni eslab qolish	Bu topshiriqlar bilimni nazorat qilishda juda zarur	Agar test faqat shu topshiriqlardan iborat bo'lsa u holda natijalar haqiqatdan uzogroq bo'ladi
Reproduktiv fikrlash	Eslab qolish qobiliyatini tekshirib, uning natijalarini eslata bilish	Test topshiriqlarining soddaligi	Faqat tayyor ma'lumotlar bo'yicha ishlashga o'rgatadi
Produktiv fikrlash	Noan'anaviy holatlarda o'zlashtirgan bilimlarni ishlata bilish qobiliyati	Aqliy harakatni tekshirishdagi zaruriy element hisoblanadi	Test topshiriqlarini tuzish murakabligi
Izlanuvchi-ijodiy	Nostandart yondashuvni rivojlantirish	Yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qo'shimcha material sifatida foydalanish mumkin	O'quvchilar uchun katta qiyinchilikka ega

### Test topshiriqlarining shakllari va xususiyatlari.

Test topshiriqlarining tarkibi quyida keltirilgan 4 xil formalardan iborat: yopik, ochiq, o'xshashlikni shakllantirish va ketma-ketlikni tartibga solish. Test topshiriqlarining boshqa turlari ham mavjud (zanjirsimon, tekstsimon va h.)



### **Yopiq test topshirig'i.**

Bu xil topshiriqlar shartlar va savollardan iborat bo'lib, unda bitta javob to'g'ri, qolganlari noto'g'ri, lekin haqiqatga yaqin.

Bu topshiriq «yopiq» deb atalishining sababi shundan iboratki, o'quvchi o'z javobini bera olmaydi, u bir qancha berilgan tayyor javoblardan uningcha to'g'ri bo'lgan javobni tanlaydi. Yopiq test topshiriqlarida bir nasha to'g'ri javoblar bo'lishi mumkin. Bir xil test topshiriqlarida shartlarni savol tariqasida berish mumkin. Test ishlab chiquvchi bir qancha berilishi mumkin bo'lgan savollar ichidan aynan keraklisi berilganligiga ishonch hosil qilish zarur. Keyin u shartlarni va javoblarni shunday tuzishi kerakki, toki unga berilgan javob yuzaki emas, aql ishlatib topilishi lozim.

Yaxshi tuzilgan test topshirig'i o'quvchidan o'ylab, butun olgan bilimlarini ishga solgan holda javob berishiga undashi lozim. Test topshiriqlari o'zlashtiruvchi uchun murakkab bo'lmay, balki o'z bilimini namoyon etishga imkoniyat berishi shart.

Yopiq test topshiriqlari abituriyentlarning oliy o'quv yurtlariga kirishlarida, yakuniy va boshqa nazorat turlarida ishlatiladi. Ular kompyuterlar bilan «til topishadilar» va kompyuterlarga kiritiladigan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi test sistemalarida qo'llaniladi.

**Misol. O'quv predmetiga asoslangan test topshiriqlari sonlari pedagogik o'lchovga nisbatan qanday o'lchanadi?**

- A. Ko'payadi
- B. Kamayadi
- C. O'zgarmaydi
- D. Qonuniylik yo'q. **To'g'ri javob: A.**

*Eslatma:* pedagogik o'lchamning test yordamidagi aniqligi, turg'unligi testning ishonchliligi demakdir.

**Misol. O'quv jarayonining sifati test nazoratining sifati bilan...**

- A. Yuqori darajada bog'liq
- B. Ma'lum darajada bog'liq
- C. Sezilarli darajada bog'liq emas
- D. Hech qanday bog'liq emas. **To'g'ri javob: A.**

### **O'xshash test topshirig'i.**

**Misol. Ular xalqlarning kelib chiqishini o'rganadi, bu soha vakillari...**

- A. Tarixchi-etnologlar
- B. Tarixchi-antropologlar



C. Tarixchi-numizmatlar

D. Tarixchi-arxeologlar. **To'g'ri javob: A.**

Bu test topshirigini yechishda xalqlarning kelib chiqishi tushunchasi kalit hisoblanadi. Bu yerda tarixchi – mutaxassislik, etnolog – ixtisoslikdir.

### **Ochiq test topshiriqlari.**

Bu test turiga xohlagan javobni berish mumkin.

Topshiriqda kalit tushirilib qoldiriladi.

**Misollar:** 1. Agar test topshirig'ida kalit vazifasini bajaruvchi so'z (yoki bir necha so'z) tushirib qoldirilgan bo'lsa, unda bu \_\_\_\_\_ topshiriq deb ataladi.

**To'g'ri javob: ochiq.**

2. Agar test topshirig'ida \_\_\_\_\_ tushirib qoldirilgan bo'lsa va javobi bo'lmasa, unda bu test topshirig'i ochiq deb aytiladi.

**To'g'ri javob: kalit so'z.**

Ochiq test topshiriqlari programmalashtirilgan o'quvda qo'llaniladi. Xohlagan javob berilishi mumkinligi tufayli ochiq test topshiriqlari komputer test nazorati uchun noqulaydir. Ochiq topshiriqlar faset shaklga ega bo'lishi mumkin.

**Misol.** Qadimgi faylasuf dunyoning birlamchisi deb \_\_\_\_\_ ni hisoblagan.

Fales

Anaksimenes

Geraklit

Pifagor

Parmanid

**(Javob: suv, xavo, olov, son, aql).**

Faset shakl bitta ochiq topshiriqdan ularning «oila»sini shakllantirishga imkon beradi. Bunda tekshiriluvchilar bir tipli, ammo turli o'zgaruvchili (tushunchalar, parametrlar) topshiriqlarni yechishadi. Bu ko'chirish, aytib berish va boshqa tartib buzishlar imkonini qiyinlashtiradi.

### **O'xshashlikni shakllantirish**

Bu topshiriqlarning ma'nosi bir ko'plikning elementlarining ikkinchi ko'plik elementlariga o'xshashligini isbotlashdan iborat. Bunday topshiriqlarda «moslikni o'rnatish» ko'rsatmasi berilishi kerak.



**Misol:**

1. Bilimlarni nazorat qilishning test usuli kamchiliklari muloqotda ko'rsatilishi.

A. Baholashdagi subyektivizm. B. Imtihonchining o'quvchi bilan  
C. Baholashning qo'pol ko'rsatkichi.

2. Bilimlarni nazorat qilishning an'anaviy usuli kamchiliklari

D. Bilimlarni nazorat qilish tanlov xarakteriga ega.

G. Javoblarning chegaralanganligi.

H. EXM ishlatilishidagi qiyinchilik

**To'g'ri javob quyidagi ko'rinishda beriladi:**

1 - B,G; 2 - A,C,D,E.

**Tartibga solish uchun mo'ljallangan test topshiriqlari**

Bu uslub berilgan harakat, hisob-kitob, fikrlarni to'g'ri tushunishini tekshirish.

**Misol:** Pedagogik test ishlashda harakatlarning ketma-ketligiga rioya qiling.

A. Testning spetsifikatsiyasini tuzish.

B. Test topshiriqlarining sonini aniqlash.

C. Umumiy va xususiy o'quv rejalarini aniqlash.

D. Test topshiriqlarini ishlab chiqish.

G. Testni tajribadan o'tkazish.

E. Testni ekspertizadan o'tkazish.

F. Test sifati ko'rsatkichlarini aniqlash.

**Javob indekslar ketma-ketligi tariqasida beriladi:**

**B,C,A,D,E,G,F.**

Hunday ketma-ketlik tushintirilishga muxtoj.

Birinchi bo'lib testlar soni belgilanadi. Chunki bu narsa tashqi muhit ko'rsatkichlari: vaqt, o'quv materiallari limiti, yakuniy nazorat topshiriqlari soniga bog'liqdir. Keyin umumiy va alohida maqsadlarni aniqlash lozim. Chunki test sinovlari boshlangunga qadar uning sifatini, yutuq, kamchiliklarini aniqlab berish lozim.

## Test topshiriqlari to'rt asosiy shaklining yutuq va kamchiliklari

No	Test topshirig'ining shakli	Asosiy afzalliklari	Kamchiliklari
1.	Ikki xil javobli yopiq test topshiriqlari	Komputerda test o'tkazishga mos keladi. Ekspres nazorat o'tkazish mumkin	To'g'ri javobni topish imkoniyati baland. 50%
	Uch xil javobli yopiq test topshirig'i	Bu usul javoblar soni uchtdan ortiq bo'lmagan holda ishlatiladi	Aniq javobga yaqinlik imkoniyati 33%
	To'rt javobli yopiq test topshirig'i	Jahon test uslubiyatida qo'llaniladi	To'g'ri javobni topish imkoniyati 25%
	Besh javobli yopiq test topshirig'i	Bu uslub abituriyentlarni OO'Yuga qabul qilishdek mas'uliyatli damlarda qo'llanilgan	Besh javobli topshiriqni boshqalariga nisbatan tuzish qiyinroq
	Bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshirig'i	Javoblarni to'g'ri topish imkoniyati past. Ko'p marotaba fikrlashni rivojlantiradi	Asosiy qiyinchilik haqiqatga yaqinroq noto'g'ri javobni tanlashda
2.	Ochiq test topshirig'i	To'g'ri javobni osonlikcha topish imkoniyati yo'qotiladi	Bilimlarni baholash doirasi torayadi
3.	O'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	Bir ko'plik elementining ikkinchi ko'plik elementiga bo'lgan o'xshashliklarini aniqlashga yordam beradi	Baholash mezonini aniqlashdagi qiyinchiliklar
4.	To'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlar	Algoritmik bilimlarni tekshirishga mo'ljallangan	Harakatning ketma-ketlik, uzunlik zanjiri hamma vaqt ham bir xil emas

Pedagogik texnologiyaga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishda nazorat topshiriqlarini tuzish maqsad (o'quv maqsadi) bilan uzviy bog'liq



o'tkazilishi lozim. Bunday paytda o'quv reja va dars konspektlari (nazorat topshiriqlardan so'ng o'tkazilgan darslar ham) samaraliroq bo'lgan holda o'qitishning maqsad va vazifalari bilan bog'liq bo'ladi.

Yakuniy test ishlanmasi test topshiriqlarining kerakli sonini aniqlash uchun ishlatiladi. Ularning soni nazorat turlari va rejalashtirilgan o'quv maqsadi va vazifalarining chuqurligiga bog'liq.

Respublikaning ayrim o'quv yurtlarida yakuniy testga kiritilishi kerak bo'lgan test topshiriqlarining soni aniqlangan.

Agar test savollarining sonini tuzuvchining o'zi aniqlashi lozim bo'lsa, unda quyidagicha bo'lishi mumkin:

Joriy nazorat – 10 – 15 topshiriq (o'tkazish vaqti 10 – 15 daqiqa);

Oraliq nazorat – 25 – 30 topshiriq (30 – 40 daqiqa);

Yakuniy nazorat – 50 va undan ortiq (1 soatdan 1,5 soatgacha);

#### Nazorat (test) topshiriqlarini ishlab chiqish

Yakuniy nazoratdagi topshiriqlar sonini aniqlash va uning spetsifikatsiyasini tuzish	Maqsad va vazifalarga asoslangan topshiriqlar	Test topshiriqlarining formasini tanlash
--------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------	------------------------------------------

**O'quv fani bo'yicha yakuniy testni ishlab chiqish:** Test topshiriqlarini ishlab chiqishdan oldin testning spetsifikatsiyasi tuziladi. Odatda, u jadval tariqasida ishlanib, qatorlari esa o'quv materiallarining bo'linmalarini aks ettiradi. Bo'linmalar B. Blum taksanomiyasiga asoslangan o'quv maqsadlarining kategoriyalarini bildiradi.

Har bir xususiy maqsad test topshiriqlariga o'tkaziladi. O'quvchi haqiqatdan ham ushbu topshiriqni bajarishi va bu B. Blum taksanomiyasida ko'rsatilgan kategoriyaga to'g'ri kelishi tekshiriladi.

#### Mustaqil ta'lim, uning turlari va bajarish usullari

O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'limga doir me'yoriy hujjatlarida mustaqil ta'lim, talabalarning mustaqil ishlari o'quv mashg'ulotlarining turlaridan biri, ta'lim olishning muhim shakli, usuli sifatida ko'rsatilgan.

**Mustaqil ta'lim** – berilgan o'quv topshiriqlarini talabalar tomonidan mustaqil va ijodiy (yoki professor-o'qituvchining ko'rsatmasiga mu-



vofiq) bajarish maqsadiga yo'naltirilgan o'quv faoliyati. Mustaqil ta'lim negizini ta'lim oluvchining mustaqil ishlari tashkil etadi. Mustaqil ishlar o'quv-biluv faoliyatining bir turi, o'quv faoliyatining tashkiliy shakl-usuli, bilim o'zlashtirish yo'li, vositasi sifatida nomayon bo'ladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ishlarini (keyinchalik TMI) o'qishning boshlang'ich bosqichlarida tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta'limning navbatdagi turi – oliy ta'lim talablariga ko'nikishi qiyin kechadi. Kuzatishlar shuni isbotlaydiki, ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlash-tirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.



**OTMning asosiy vazifalariga:** bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish, ta'lim olish usullarini egallash, tushunish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mustaqil xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish kiradi.

**OTMni samarali tashkil etish uchun:** talabalar mustaqil ishining barcha shakllarini tashkil qilishga tizimli yondashish, talabalar mustaqil ishining barcha bosqichlari (turlari) ni muvofiqlashtirish va uzviylashtirish, talabalar mustaqil ishining bajarilishi sifati ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini yaratish va takomillashtirib borish maqsadga muvofiq.

**OTMning shakli va hajmini** belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim: o'qish bosqichi, muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi, talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi, fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi va talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mutaxassislik fanlaridan mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semester-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshirib borilishi lozim. Ya'ni talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

**OTMning tashkiliy shakllari** – OTMda mustaqil ta'lim har bir fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, referat, tezis (maqola), uy vazifasi (mavzular yuzasidan tarqatma va didaktik materiallar tayyorlash), prezentatsiya, kurs ishi va shu kabi boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

**Mustaqil ta'limning turlariga** quyidagilar kiradi: ayrim mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlash; amaliy mashg'ulotlar va seminarlarga tayyorgarlik ko'rish; laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish; kurs ishlarini bajarish; nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash; mavzu yoki ma'lum bir bob bo'yicha tahliliy ma'lumotlar asosida xulosalar qilish va ilmiy maqola tayyorlash; anjumanlarda ma'ruzalar bilan qatnashish; bitiruv malakaviy ishini tayyorlash; magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash; fanlar bo'yicha uyga berilgan topshiriqlarni bajarish va mavzular bo'yicha slaydlar, prezentatsiyalar tayyorlash. O'qitilayotgan fanning xu-



susiyatlaridan kelib chiqqan holda talabalar mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

O'qitiladigan fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarida TMIning mazmuni, mohiyati, shakli va hajmi hamda manbalari ko'rsatiladi. TMI uchun o'quv rejada ajratilgan vaqtga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriq variantlari ishlab chiqiladi va fakultet o'quv-uslubiy kengashida tasdiqlanadi. TMI ni bajarish uchun har bir fan bo'yicha talabalarga ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda tarqatma material sifatida fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga yetkaziladi.

**TMI ni nazorat qilib borish** har bir kafedrada tuziladigan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi. Talabalarning mustaqil ishi bo'yicha maslahat soatlari mustaqil ta'lim uchun yo'lga qo'yilgan jurnallarda qayd etib boriladi. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish bevosita fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Talabalarning mustaqil ishi reyting ballari bilan (fanga ajratilgan mustaqil ta'lim soatiga nisbatan) baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi.

**TMI ni baholash mezonlari** tegishli kafedralar tomonidan ishlab chiqiladi va fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili semestri boshlanishidan oldin har bir fan prof-o'qituvchisi tomonidan talabalarga o'quv-uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi. Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishlarida hamda fakultet Ilmiy kengashida muhokama etib boriladi. Talabalarning mustaqil ishi har bir kafedrada fan o'qituvchisi tomonidan ro'yhatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi. Oliy ta'lim muassasasida yuqori darajada baholangan TMI lari moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi. Yuqori darajada baholangan talabalarning mustaqil ishlari fakultetlarning **Web** sahifalarida e'lon qilinib boriladi.

*Ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish va bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma*

Ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'yicha talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda mazkur fanlarning xususiyatlari va talabalarning bo'lg'usi pedagogik va metodik tayyorgarligini amalga oshirishda tutgan o'rini hisobga olgan holda mustaqil ishning quyidagi shakllardan foydalanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi:



umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim muassasalari  
arida fanni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish  
yuzasidan ilg'or tajribalar va metodik qo'llanmalarni o'rganish va tahlil  
etish;

ta'lim muassasasi portali va xorijiy metodik adabiyotlar material-  
lari asosida muayyan nazariy masalalarni mustaqil o'rganish va ma'ruza  
tayyorlash;

fandan yaratilgan elektron darsliklarni o'rganish va fan darslarida  
tamomaviy pedagogik texnologiyalar bilan uzviy foydalanish bo'yicha  
dars ishlanmalarini loyihalash;

ijtimoiy-gumanitar fan sohalarining dolzarb muammolariga bag'ish-  
langan anjumanlar uchun ma'ruza va taqdimot materiallarini tayyorlash;

ijtimoiy-gumanitar fan sohalarining xususiy masalalarini metodik  
qo'llanmalar orqali o'rganish va ma'ruzalar tayyorlash;

ijtimoiy-gumanitar fan sohalarini bo'yicha talaba fandan kafedrada  
tanlangan mustaqil ta'lim mavzularidan bittasini tanlaydi. Tanlangan  
mavzu bo'yicha 5 ta vazifani bajaradi. Bu vazifa mavzusi bo'yicha ada-  
biyotlar ro'yxati va shu adabiyotlar asosida referat, maqola yozish, test  
tuzish, BMI (bitiruv malakaviy ishi) rejasi tuzishdan iborat.

Vazifalar				
1	2	3	4	5
Adabiyotlar ro'yxati (kamida 10 ta)	Referat yozish (kamida 5 bet)	Maqola yozish (kamida 2 bet)	Test tuzish (kamida 10 ta)	Mavzu bo'yicha BMI rejasini tuzish

*Eslatma:* Mustaqil ta'lim mavzulari va oraliq nazorat topshiriqlari darsning 1-kunida talabalarga beriladi, bajarish muddati 2 oydan kam bo'lmagan holda o'tkazilish kuni aytiladi va guruh jurnaliga yoziladi. Mustaqil ta'lim mavzulari va oraliq nazorat topshiriqlari qo'lyozma shaklida (turli ko'rinishdagi elektron manbalardan ko'chirishning oldini olish va yozma nutqni rivojlantirish uchun ahamiyatli) bitta daftarda jamlangan holda belgilangan kunda yozma va og'zaki shakllarda auditoriyada o'tkazilishi talabalarga e'lon qilinadi.

Mustaqil ishni baholash mezonlari: joriy va oraliq nazorat ishlari-  
ga ajratilgan ballardan o'quv fani soatiga ko'ra \_\_ balldan \_\_ balgacha  
olinadi.



### *1. Adabiyotlarni baholashda:*

• Talabaning tanlagan mavzusiga oid kerakli adabiyotlarni tanlay olishi (Prezident asarlari, qarorlar, dasturlar, nizomlar, monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar, internet saytlari) va foydalana olishi malakasiga asosiy e'tibor beriladi.

• Adabiyotlar 10 tadan ko'p bo'lsa va keltirilgan adabiyotlar mavzuga oid bo'lsa va adabiyotlar ro'yxatida Prezident asarlari, qarorlar, dasturlar, nizomlar, monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar, internet saytlari berilgan bo'lsa hamda referat, maqola yozishda test tuzishda, bitiruv malakaviy ishi rejasini to'g'ri tuzishda foydalana olsa – \_\_ ball.

• Adabiyotlar 10 tadan ko'p bo'lsa va keltirilgan adabiyotlar mavzuga oid bo'lsa va adabiyotlar ro'yxatida monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar, omaviy nashrlarda berilgan bo'lsa hamda referat, maqola yozishda test tuzishda, bitiruv malakaviy ish rejasini to'g'ri tuzishda foydalana olsa – \_\_ ball.

• Adabiyot ro'yxati to'liq bo'lsa-yu, lekin bitta manbadan foydalangan bo'lsa va shu asosida referat, maqola yozgan, test va bitiruv malakaviy ishi rejasini tuzgan bo'lsa – \_\_ ball.

### *2. Referatni baholashda:*

• Referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan, ijodiy fikrlari bo'lsa – \_\_ ball.

• Referat mavzusi mohiyati ochilgan. Faqat xulosasi bor – \_\_ ball.

• Mavzu mohiyati yoritilgan. Ammo iqtiboslar berilmagan, ayrim kamchiliklar bo'lsa - \_\_ ball;

• Faqat mavzu mohiyati ochib berilgan bo'lsa – \_\_ ball.

### *3. Maqolani baholashda:*

• Mavzuda o'rganilayotgan obyekt chuqur tahlil qilinib, asos, gepoteza ilgari surilgan, muammo yechimlari ko'rsatilgan bo'lsa - \_\_ ball;

• Mavzu tahlil qilingan muammolarga oid taklif berilgan bo'lsa – \_\_ ball.

• Mavzuda ilmiy faraz ilgari surilgan bo'lsa – \_\_ ball.

• Mavzu targ'ibot shaklida ifodalangan bo'lsa – \_\_ ball.

### *4. Test savollarini baholashda:*

• Tuzilgan savollar mavzu mohiyatini to'liq ochib bergan, muhim qoidalar, g'oyalar, qonuniyatlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa – \_\_ ball.



- \* Savollar to'g'ri tuzilgan, lekin ayrim kamchiliklar bo'lsa — \_\_ ball.
- \* Tuzilgan savollar umumiy va g'alizliklar bo'lsa — \_\_ ball.
- \* *Umumiy malakaviy ish (BMI) rejasini baholashda:*
- \* BMI rejalari o'rganilayotgan mavzuning o'zagiga, mohiyatiga chuqur kirishga, mavzuning dolzarbligini yoritishga, muammo yechimiga qaratilgan bo'lsa — \_\_ ball.
- \* BMI rejalari o'rganilayotgan mavzu bilan yaqindan tanishish, muayyan bilimga ega bo'lishga qaratilgan bo'lsa — \_\_ ball.
- \* BMI rejalari o'rganilayotgan mavzuga munosabat bildirish asosida tuzilgan bo'lsa — \_\_ ball.
- \* BMI rejalari referat shaklda bo'lsa — \_\_ ball.

### **Iqtidorli talabalar bilan ishlash va fan to'garaklari tashkil etish**

O'zbekiston ijtimoiy ishlab chiqarish, madaniy-ma'rifiy sohalarda jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishishi uchun mehnatni ilmiy asosda tashkil etish lozim. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari, madaniyat, ma'naviyat, ta'lim sohalarida mehnatni ilmiy tahlil etish har qanday zaruratga aylandi. Shuningdek, pedagogik xodimlar mehnatini ham ilmiy asosda tashkil etish davr talabidir. Bu, avvalo, barcha ishlarni aniq va puxta uyushtirish, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga ilmiy yondashish demakdir. Bo'lajak mutaxassislar oliy ta'lim muassasasida o'qish jarayonida faqat fan bloklari va kasbiy bilimlarni chuqur egallashlarining o'ziga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda kifoya qilmaydi, ulardagi iqtidor va qobiliyatlarni o'stirish talablarni ilmiy tadqiqot ishlariga kengroq jalb etib, tadqiqotchilik malaka va ko'nikmalarini hosil qilish, ilmiy ijod metodologiyasi va usullarini egallab olishlariga erishish zarurligi, yuqorida keltirilganidek, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlarida aniq belgilangan.

Oliy ta'lim muassasasida talabalarning tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari, o'z navbatida, ularda chuqur, mustahkam bilim egallashni, egallagan bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi. Mustaqil, puxta bilimlarsiz amaliy ishlarga yondashish, o'quv va ilmiy tadqiqot ishlarni bajarish mumkin emas. Shu bois ham OTMlarida iqtidorli talabalarning qiziqishlari va im-



koniyatlarini shakllantirish maqsadida ular bilan ishlash uchun ko'plab fan to'garaklari, klublar va markazlar tashkil qilinadi.

**OTMlarida iqtidorli talabalarni izlash** o'qishning dastlabki kunlaridan va kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Iqtidorli talabalar boshlang'ich bilimlar hisobga olingan holda, psixologik va pedagogik hamda intellektual testlar o'tkazish orqali qobiliyatning rivojlanganlik darajasiga qarab aniqlanadi.

Aniqlangan iqtidorli talabani aniq maqsadli tayyorlash quyidagi o'quv-ijodiy, tarbiyaviy masalalar va yo'nalishlardan iborat:

– kengaytirilgan o'quv rejasi bo'yicha o'qish va qo'shimcha malakaga ega bo'lish;

– aniq maqsadli dastur bo'yicha yakka tartibda (individual) o'qitish;

– chuqurlashtirilgan dastur bo'yicha o'qitish ( fundamental fanlar; umumkasbiy fanlar; menejment, marketing, audit; ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar; ekalogiya va boshqalar).

Buyurtmachilar talablariga asoslangan holda OTM iqtidorli talabalarning kasbiy yo'nalishi, o'quv-ijodiy va tarbiyaviy tayyorgarligining qo'shimcha yo'nalishlarini belgilash va ta'lim xizmatlarini joriy etish.

Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlash dasturlarida quyidagi omillar nazarda tutiladi: fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish, komputer va yangi axborot texnologiyalar bilimdonligi hamda programmalashtirish, chet tillaridan birini puxta egallash, kurs va bitiruv ishlarini hamda magistrlik dissertatsiyasini yozishda komputer va chet tilidan samarali foydalanish, ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlash, yangi fikr va mulohazalarni bildirish, amalda tadbiq etish, soha bo'yicha mustaqil bilim olishga yo'naltirish va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni tezkorlik bilan egallash xususiyatlarini shakllantirish, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri tushunadigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan, vatanparvar, barkamol inson etib shakllantirish.

**Iqtidorli talabalar bilan ishlovchi rahbar va professor-o'qituvchilarni tanlash.** Iqtidorli talabalarga dars berishga va ular bilan auditoriyadan tashqari individual ishlashga ilmiy darajali va talabani aniq maqsadli tayyorlash dasturi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar jalb etiladi. Iqtidorli talabalarga ilmiy rahbar etib, ijodiy va uslubiy ishlash tajribasiga ega bo'lgan, o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha reytingi yuqori bo'lgan professor va dotsentlar tayinlanadi.

*Iqtidorli talabalar ilmiy rahbarlarining asosiy vazifalari:* iqtidorli



talabalarni aniq maqsadli tayyorlash dasturini tuzish va uni amalga oshirishga (BML, ilmiy maqolalar yozish, ijtimoiy loyihalar tayyorlash va b. k.) rahbarlik qilish, iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha yetakchi xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni o'z faoliyatida qo'llash, yangi pedagogik texnologiya, komputer texnologiyasi va video-audio texnikalarini o'quv jarayonida keng qo'llash, aniq maqsadli dasturni muvaffaqiyatli bajarayotgan iqtidorli talabalarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritishdan iborat.

*Iqtidorli talabalar bilan ishlashning shakl va uslublari* quyidagichadir: o'qitishni individuallashtirish, talabalarning intellektual salohiyati va qobiliyat imkoniyatlarini ilmiy ijodga yo'naltirish, talabalar qobiliyatini rivojlantirish uchun maksimal shart-sharoit yaratish.

OO'Yuda «**Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi**» ni tashkil etish va uning rahbarini ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan psixolog yoki pedagog safidan tayinlash. Psixologik, intellektual va pedagogik testlar asosida iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning ro'yxatini tuzish hamda ilmiy rahbar va maslahatchilarni belgilash. Iqtidorli talabalar bilan ishlashni sifatli tashkil etish maqsadida OTM, fakultet va kafedralarda quyidagi ish qog'ozlarini yuritish tavsiya etiladi:

- iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limining Nizomi va Dasturi;
- iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limining ish rejasi;
- yillik hisobotlar;
- iqtidorli talabalarga oid rektorning buyruqlari;
- fakultet, kafedralar bo'yicha iqtidorli talabalar ro'yxati;
- murabbiylarning iqtidorli talabalar bo'yicha bergan tavsiyalari va unga ilova qilingan hujjatlar va fotosuratlar;
- konferensiya, olimpiada, tanlov, viktorina o'tkazilishiga oid hujjatlar;
- iqtidorli talabalar izlash va ularni maqsadli tayyorlashga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi-ning Qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari va Hay'at qarorlari;
- xat, arizalarni qayd etish kitobi.

Aniq maqsadli tayyorlashning o'quv-ijodiy va tarbiyaviy dasturi iqtidorli talaba tomonidan tanlanadi va uning bajarilishi bo'yicha nazorat muddatlari ko'rsatilgan shaxsiy o'quv reja va ilmiy-ijodiy ishlar rejasi tuziladi hamda fakultet Ilmiy kengashi tavsiyasiga binoan oliy o'quv yurtining farmoyishi bilan tasdiqlanadi. Ilmiy rahbar iqtidorli talaba va chuqurlashtirilgan holda o'rganilishi nazarda tutilgan fan o'qituvchilari



bilan hamkorlikda qo'shimcha ishchi dastur va tematik-kalendar rejasi-  
ni tuzadi. Yuqori ko'rsatgichlarga erishgan iqtidorli talabalarga iqtidorli  
talabalar bilan ishlash bo'limi tavsiyasiga binoan, ayrim fanlar buyicha  
darslarga (o'qituvchining roziligi bilan) erkin qatnashish huquqi berili-  
shi mumkin. Har o'quv yilining yakunida iqtidorli talabaning qobiliya-  
ti, o'quv-ilmiy va sifatlarining reytingi aniqlanadi hamda uning shaxsiy  
hujjatiga tikiladi.

**Iqtidorli talabalar bilan ishlash yo'nalishi bo'yicha vazifalar.** Iqi-  
dorli talabalarni izlash va aniqlashni tashkil etish, ta'lim olayotgan iqi-  
dorli talabalarning intellektual salohiyatini muntazam ravishda aniqlab  
borish, iqtidorli talabalarning moyilligiga qarab, ularni aniq maqsadli  
tayyorlashni uyushtirish, chet tili va komputerni mukammal egallash ma-  
qsadida mashg'ulotlar tashkil etish, fundamental ilmiy-tadqiqot ishlariga,  
ilmiy to'garaklarga va mualliflik jamoalariga jalb qilishni uyushtirish,  
iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalarini chop etishda hamda ularning  
ilmiy ishlari va ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy etishda ko'maklash-  
ish, iqtidorli talabalarni respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan  
ilmiy anjumanlarda ishtirok etishini ta'minlash hamda xorijiy davlatlarga  
o'qishga va stajirovkaga yuborishni tashkil etish, iqtidorli talabalar safi-  
dan O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalariga nomzodlarni max-  
sus tayyorlash, iqtidorli talabalarning ilm va fan arboblari, ishlab chiqar-  
ish korxonalarining rahbarlari va yirik mutaxassislari bilan uchrashu-  
vlarini tashkil etish, iqtidorli talabalar uchun ixtisoslik bo'yicha kasb  
o'yinlarini tashkil etish, iqtidorli talabalar o'rtasida muntazam ravishda  
sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazib turish, marketing tadqiqotlari, buyurt-  
machilar talabalarini chuqur o'rganish va tashkil qilayotgan ta'lim xizmat-  
lari banki asosida iqtidorli talabalarga bozor konyukturasini belgilovchi  
fanlarni tanlashda yordam ko'rsatish, zamonaviy axborot tizimidan foy-  
dalanishga shart-sharoitlar yaratish, iqtidorli talabalar tadqiqot markaz-  
ining axborot resursi veb-sayti hamda «Zakovat» intellektual klubining  
elektron pochta orqali talabalarni fan-texnika sohasidagi yangiliklar,  
axborotlar, ilmiy loyihalar bilan tanishtirish, iqtidorli talabalar o'rtasida  
dolzarb mavzularda «Eng yaxshi ilmiy maqola», «Eng yaxshi referat»,  
«Eng yaxshi mustaqil ish» nominatsiyalari bo'yicha tanlovlar o'tkazish,  
iqtidorli talabalarni fan olimpiadalari, ko'rik tanlovlar va musobaqalar-  
da ishtirok etishga tayyorlash, iqtidorli talabalar ilmiy tadqiqotlarining  
borishi, dastlabki natijalariga bag'ishlangan iqtidorli talabalarning ilmiy-  
nazariy seminarini tashkil etish.



Iqtidorli talabalar va ularning rahbarlarini rag'batlantirish va taqdirlash. Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlash dasturiga sarflangan xarajatlarni oliy o'quv yurti hisobidan amalga oshiriladi. Yuqori ko'rsatkichlarga erishgan ilmiy ishlar bo'yicha shaxsiy rejani namunalik bajaragan iqtidorli talabalar, ularga birlashtirilgan rahbarlarning tavsiyalariga muvofiq o'quv yili yakuni bo'yicha oliy o'quv yurtlari rahbariyati tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilishlari va taqdirlanishlari mumkin. Iqtidorli talabalarni qo'shimcha ravishda rag'batlantirish va taqdirlash turlari oliy o'quv yurtining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kengaytirilishi mumkin. Buyurtmachi korxonalar, tashkilot va muassasa iqtidorli talabalarga qo'shimcha stipendiya belgilashi mumkin. Iqtidorli talabalar bilan ishlashda yuqori natijalarga erishgan (olim-pada, tanlov, talabalar ilmiy ishlari ko'rigida g'olib chiqqan, ilmiy maqolalari chop etilgan va hokazo) ilmiy rahbar, konsultant va o'qituvchilar «Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi» tomonidan quyidagi rag'batlantirish va taqdirlashga tavsiya etiladi:

– vazirlik va oliy o'quv yurtining buyrug'i bilan tashakkurnoma e'lon qilish;

– qo'shimcha oylik maosh belgilash (agar umumiy reyting ham yuqori bo'lsa);

– o'quv yili yakuni bo'yicha uch oylik maosh miqdorida mukofotlash;

– faxriy unvonlarga tavsiya etish;

– chet elga stajirovka va tajriba almashishga yuborish;

– dam olish maskanlari va sanatoriyalarga yo'llanma berish;

– buyurtmachi tashkilot iqtidorli talabalarning ilmiy rahbarlari, maslahatchilari va o'qituvchilariga qo'shimcha oylik maosh belgilashi mumkin.

**Fan to'garaklari.** OTMlarida talabalarning ma'lum fanlar yuzasidan bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, ularda fan yuzasidan o'rta qo'yilgan muammoga atroflicha yondosha olish, o'z fikrlarini asoslash va aniq bayon etish malakalarini shakllantirish hamda to'g'ri yo'naltirish, talabalarning turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda qatnashishini tashkil qilish, mantiqiy argumentlar tuzish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish, talabalarda faol fuqarolik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, notiqlik, liderlik sifatlarini shakllantirish va boshqa (fan dasturi va maqsadidan kelib chiqib) bir qancha maqsadlarda tashkil etiladi.

Quyida JDPI Umumiy tarix kafedrasi qoshida tashkil etilgan «Yosh tarixchi» to'garagining Nizomi keltirilgan.

## **«Yosh tarixchi» debat to‘garagining N I Z O M I**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. 1. «Yosh tarixchi» to‘garagi – oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularda mustaqil fikr bildirish, ilmiy muomalaga kirisha olish ko‘nikmalarini tarkib toptirish maqsadida tashkil etiladi.

1. 2. «Yosh tarixchi» to‘garagi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoishlari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining me‘yoriy hujjatlari, ta’lim muassasasining qarorlari va ko‘rsatmalari hamda mazkur dastur asosida amalga oshiradi.

1. 3. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasasida tashkil etiladigan to‘garaklar talaba-o‘quvchilar fikrlashini, dunyoqarashini, ijtimoiy faolliklarini oshirish, yoshlarning bugungi kunda mamlakatimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar va islohotlar to‘g‘risidagi bilimlarini boyitishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishda amaliy yordam beradi.

### **II. «Yosh tarixchi» to‘garagining maqsad va vazifalari**

2. 1. O‘quvchi-talabalarda vatanparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularda o‘rtaga qo‘yilgan muammoga atroflicha yondosh olish, o‘z fikrlarini asoslash va aniq bayon etish malakalarini shakllantirishda ko‘mak berish hamda to‘g‘ri yo‘naltirish.

2. 2. Talabalarni turli xil ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda qatnashishini tashkil qilib, mantiqiy argumentlar tuzish va mustaqil fikrlash kabi ko‘nikmalarni hosil qilish.

2. 3. Talabalarda faol fuqarolik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, notiqlik, liderlik sifatlarini shakllantirish.

2. 4. Talabalarni o‘zgalarning fikrini hurmat bilan qabul qilishga o‘rgatish.

### **III. To‘garakning tashkiliy tuzilmasi**

3. 1. «Yosh tarixchi» to‘garagining tashkiliy tuzilmasi oliy ta’lim muassasalari ma‘naviy-ma‘rifiy (Ilmiy) ishlar bo‘yicha prorektorlari tomonidan tasdiqlanadi.

3. 2 «Yosh tarixchi» to‘garagi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamkorligida o‘z faoliyatini olib boradi.



#### IV. To'garak faoliyatini tashkil qilish

4. 1. To'garak o'z faoliyatini mazkur Nizom asosida tashkil etadi.

4. 2. To'garak faoliyati samaradorligi, mazmunini nazorat qilish ta'lim muassasasi ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor, (dekan) o'rinbosarlari zimmasiga yuklatiladi.

4. 3. To'garak faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarining «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti yaqindan yordam ko'rsatish uchun mas'uldir.

4. 4. To'garak olib borayotgan faoliyati haqida har yarim yillikda ta'lim muassasasi rahbari (dekan, kafedra mudiri) ga hisobot berib boradi.

4. 5. Har bir yilning boshida to'garakning ish rejasi uning umumiy yig'ilish muhokamasidan o'tgach, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

4. 6. To'garak qoshida yetuk mutaxassislar, professor-o'qituvchilar va izlanuvchan yoshlardan iborat jamoatchilik kengashi tashkil etiladi. Jamoatchilik to'garak faoliyatini samarali tashkil etish, yo'nalishlarini belgilashda maslahat va ish jarayonida faol yordam berib boradi.

4. 7. To'garak samarali faoliyat olib borishi uchun ta'lim muassasasi tomonidan xonalar, ish jihozlari, kompyuter, ta'lim muassasasi internet tizimidan va kutubxonasidan foydalanishga sharoit yaratib beriladi, hamda konsilyariya va boshqa zaruriy ashyolar bilan ta'minlanadi.

4. 8. Kafedra qoshida bitta to'garak faoliyat ko'rsatadi. To'garak tarkibida turli nomdagi (masalan, «Zakovat», «Bilimdonlar ringgi» kabi) guruhlar tashkil etiladi.

4. 9. To'garakda tashkil etilgan guruhlar turli darajadagi (ta'lim muassasalarida, viloyat, shahar, respublika va xalqaro miqyosdagi) musobaqalarda ishtirok etishlari mumkin.

4. 10. To'garak faoliyatida quyidagi tartibda ish hujjatlari yuritiladi;

– nizom;

– yillik kalendar-mavzuviy ish reja;

– choraklik, yillik hisobotlar;

– o'tkaziladigan tadbir senariylari va boshqa ma'lumotlar;

– o'tkaziladigan seminar va ko'rik tanlovlar haqida ma'lumotlar.

4. 11. To'garak ta'lim muassasalarining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosarlari bilan hamkorlikda tadbirlar dasturini ishlab chiqadi va uning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

4. 12. To'garak tarkibidagi guruhlarda o'tkaziladigan uchrashuvlarga turli sohada faoliyat ko'rsatuvchi rahbarlar, mutaxassislar taklif qilinishi mumkin.

4. 13. O'quv yili oxirida «Yosh tarixchi» to'garagi rahbari to'garak a'zolari oldida hisobot beradi. To'garak a'zolari tomonidan bildirilgan taklif, fikr-mulohazalar umumlashtirilib, ta'lim muassasalarining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosarlariga taqdim etiladi.

4. 14. «Yosh tarixchi» to'garagi o'zaro asosda birlashgan iqtidorli talabalar uyushmasidir. To'garakga a'zo bo'lish va undan chiqish ixtiyoriydir.

#### **V. To'garakning boshqaruv tuzilmasi**

5. 1. To'garak faoliyatini boshqarishni to'garak tarkibidagi guruhlar a'zolari tomonidan ta'sis yig'ilishida bir yil muddatga saylangan Kengash amalga oshiradi.

5. 2. To'garak faoliyatini amalga oshirish uchun Kengash tarkibidan to'garak boshlig'i saylanadi. Muassasalar faoliyatini hisobga (oliy ta'limda har bir fakultetda) olgan holda to'garak boshlig'i kotibi saylanadi.

5. 3. To'garak boshlig'i to'garak Kengashi ishini boshqaradi hamda to'garak a'zolari oldida hisobot beradi.

5. 4. To'garak Kengashi har oyda bir marta (kotib hisobot beradi) chaqiriladi.

5. 5. To'garak boshlig'i debat to'garak ishi uchun mas'uldir.

#### **VI. To'garakning ta'lim muassasasi bilan o'zaro munosabati**

6. 1. To'garak oliy ta'limi muassasalari ma'muriyatiga har oyda o'z faoliyati, kelgusi rejalari, dasturlari va ish natijalari to'g'risida hisobot berib boradi.

6. 2. To'garakka o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun ta'lim muassasasi ilmiy maslahatchilarini taklif etadi.

6. 3. Oliy ta'lim muassasalarining har bir talabasi to'garak a'zosi bo'lishi mumkin.

6. 4. Ta'lim muassasasining ma'sul rahbar xodimlari to'garakning ishida faol qatnashgan guruh va Kengash a'zolarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.



## VII. To'garakni tugatish tartibi

7.1. To'garakni qayta tashkil qilish yoki tugatish oliy ta'lim muassasasi rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

### **Oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz malakaviy amaliyotlarni tashkil etish metodikasi**

Pedagogika institutlari talabalarining malakaviy pedagogik amaliyoti oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya jarayonining izchil davomi sanalib, bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va mazkur bilim, ko'nikma va malakalarni bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash imkonini beradi.

Malakaviy pedagogik amaliyot umumiy o'rta ta'lim maktablarida talabalar o'qituvchilarning tashkiliy, konstruktivlash, rejalashtirish, kommunikativ tadqiq qilish kabi pedagogik mahoratini shakllashtirishgagina emas, balki o'qituvchining kasbiy xususiyati va o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda individual va yuksak insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasasida o'tkaziladigan malakaviy pedagogik amaliyotga oid Nizomda va boshqa me'yoriy hujjatlardan ham pedagogika institutlari faoliyatining asosiy tamoyili bo'lgan o'qish jarayonini amaliyot bilan qo'shib olib borilishiga alohida urg'u berilgan. Bu esa umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiyaviy ishlarga yangicha yondashish asosida pedagogik jarayonni tashkil etishni taqozo etadi.

Pedagogik amaliyotning asosiy maqsadi bo'lg'usi o'qituvchilarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiyaviy ishlarga kasbiy-pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarini, intellektual salohiyatni yanada rivojlantirishdan iborat.

**Uzluksiz malakaviy amaliyotning vazifalari:** talabalarning OTMda olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash va bu bilimlarni o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar amaliyotida tatbiq etishni o'rgatish, talabalarni bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarni kuzatish va analiz qilishni o'rganish bilan qurollantirish, psixologiya, pedagogika hamda bolalar va o'smirlar fiziologiyasi bo'yicha olgan bilimlarga tayangan holda talabalarni bolalarning yoshiga qarab va individual xususiyatlarini hisobga olgan hol-

da o'quv-tarbiya ishlarini olib borishga o'rgatish, o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirishga yordam beruvchi metodlardan foydalangan holda talabalarni turli dars shakllarini o'tkazishga tayyorlash, talabalarni sinf rahbarlari vazifasini bajarishga, o'quvchilar jamoasi, bolalar oromgohida va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bilan ishlashga hamda o'quvchilar bilan individual tarbiyaviy ishlarni olib borishga o'rgatish, talabalarni pedagogik kasbiga bo'lgan muhabbatini rivojlantirish va mustahkamlash, tarbiya va maorif masalalarini ijobiy hal qilish uchun o'z pedagogik qobiliyatini takomillashtirishni hamda maxsus va pedagogik fanlarga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish va o'quvchilar sog'ligini diqqat bilan muhofaza qilish bo'yicha talabalarda ko'nikma shakllantirishdan iborat.

**Uzluksiz malakaviy amaliyotning turlari va muddatlari:** pedagogika institutlari mutaxassisliklari (5110600 – tarix o'qitish metodikasi va 5140600 – tarix mutaxassisligi yo'nalishi o'quv reja 2013-y.) bo'yicha quyidagi pedagogik amaliyot turlari o'tkaziladi:

- Pedagogik amaliyot – barcha yo'nalishlarda (Jumladan, 5140600 – tarix mutaxassisligi) IV kursda, 14 hafta.

- Uzluksiz (o'quv-tanishuv) pedagogik amaliyot – I kurs talabalari 2-smestrda 1 hafta o'tkaziladi.

- Uzluksiz malakaviy amaliyot – III kurs talabalari 6- smestrda 3 hafta o'tkaziladi.

Ma'lum yo'nalishlar va kurslar bo'yicha pedagogik amaliyotning turlari va o'tkazish muddatlari o'quv rejasida belgilanadi va bu amaliyotlarning hamma turlari pedagogik jarayonlarni o'rganish va tarbiyalash xususiyatiga egadir.

**Pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish:** pedagogik amaliyot I kursdan boshlanib, oxirgi kursgacha davom etadi. Biz ushbu o'rinda I – III kurslarda uyushtiriladigan uzluksiz pedagogik amaliyot haqida fikr yuritamiz.

*Uzluksiz pedagogik amaliyotning umumiy vazifasi* o'qituvchining asosiy pedagogik funksiyasi bilan tanishish va uni bajarish uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarini egallash bilan bog'liqdir.

O'qituvchining asosiy pedagogik funksiyasi, ya'ni ixtisosiga doir vazifalariga quyidagilar kiradi:

- a) *O'qituvchining konstruktiv-loyihalash bilan bog'lik funksiyasi* – o'qituvchidan o'z ishini rejalashtira olish, o'quv-tarbiya ishlarining maz-



munini, amalga oshirish yo'llarini va formasini, vaqtini (muddatini) belgilay olish va uning natijasini taxmin eta olish hamda hal etish vaqtida dush kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni ko'ra bilish kabi ko'nikma va malakalarni talab etadi;

*b) O'qituvchining kommunikativ funksiyasi* – o'qituvchidan o'quvchilar kashdoshlar, ota-onalar, rahbarlar bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq aloqalar o'rnatish, pedagogik odob talablariga og'ishmay amal qilish, aloqa qilayotgan odami bilan ayni hol uchun eng maqbul bo'lgan muloqot formasini topa olish, suhbatdoshining holatini, xususiyatini hisobga olgan holda uni hurmat qilish, imkoniyatini hisobga olib, shaxslararo munosabatlarni tartibga sola olish, o'z faoliyati va xulqiga tanqidiy baho bera olish, har ishda shaxsiy namuna ko'rsatish yo'li bilan obro' qozona olish kabi malaka va ko'nikmalarni talab etadi;

*c) O'qituvchining tashkilotchilik funksiyasi* – bu uning rejalashtirgan ta'lim tarbiya ishlarini amalga oshirish bilan bog'lik vazifasidan kelib chiqadi hamda unda turli faoliyatni amalga oshirishning ratsional rejimini ta'minlay olish, o'quvchilarni o'rganish asosida sinfda o'quvchilar jammasida faollarni aniqlash va ularni uyushtira olish, ularni boshqara bilish, o'z-o'zini boshqarishni tashkil eta bilish, uning rahbarlarini ishga o'rnatish, obro'sini mustahkamlash, o'quvchilar bilan turli xildagi jamoa va individual faoliyatni uyushtira olish (o'yin, o'qish, ijtimoiy, sport, badiiy havaskorlik, ijtimoiy-foydali va umumli mehnat bilan bog'liq faoliyatni yo'lga qo'ya olish), jamoatchilik, ota-ona bilan, sinfda ishlayotgan o'qituvchilar bilan ishlay olish, yagona talablar o'rnatish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni nazarda tutadi.

*d) O'qituvchining turli sohalarga doir axborotlarga ega bo'lishga qaratilgan funksiyasi* – bu undan turli masalalar yuzasidan bilim, malaka, ko'nikmalarga ega bo'lishni va tarbiya vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida ulardan foydalana bilishni talab etadi.

*e) O'qituvchining orientatsion pedagogik funksiyasi* – o'quvchilarda jamiyatimiz uchun muhim bo'lgan qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish va o'quvchilarda dunyoqarashga doir falsafiy, g'oyaviy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, estetik, ekologik e'tiqodni shakllantirish, ularda shu sohalarga doir axborotlar manbai bilan ishlash malakasini hosil qila olish bilan bog'liq malaka va ko'nikmalar bo'lishini ko'zda tutadi.

Dalardan tashqari o'qituvchi zimmasida o'quvchilarning aqliy qobiliyatini va bilishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, ularning ma'naviy,



ruhiy hamda jismoniy kuch-qobiliyatini, o'quv-tarbiya vazifalarini hal qilishga safarbar etish bilan bog'liq funktsiya ham borligini inobatga olish kerak. O'qituvchi o'z fani bilan bog'liq bilimlardan ushbu guruh uchun eng optimal mazmunini belgilay olishi, u bilan bog'liq, amaliy topshiriqlarni mustaqil hal etishga o'quvchilarni yo'naltirishning uddasidan chiqib olishi, har bir boladagi aqliy darajaning rivojlanish imkoniyatidan kelib chiqib individual va differensial o'qitish yo'lini aniqlay bilishi, ayrim o'quvchilarning turli o'quv ishlarida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarini ko'ra bilishi va ularga yordam uyushtira olishi, o'qitishning bolalar yoshi, bilim darajasi, qiziqishi, ehtiyojlariga muvofiq o'quv-tarbiya metodlarini to'g'ri tanlay olishi va ulardan umumli foydalana bilishi kerak. Ayni vaqtda o'quvchilarning faoliyatini faollashtirishning omili bo'lgan ong, ishonch, qarash va e'tiqodlarni tarkib top-tira bilish, o'quvchilarda o'qishga, ijtimoiy-foydali ishlarga, mehnatga, mustaqil bilim olishga, bilishga, shaxsiy manfaatni ijtimoiy maqsadlarga buysundirishga intilishni shakllantira olish, ular diqqatini ifoda qila olish, nazorat qilish yo'li bilan o'quvchining ta'lim-tarbiya bilan bog'liq faoliyatning natijalariga obyektiv baho bera olish kabi pedagogik malaka va qo'nikmalarni egallash ham muhimdir.

Pedagogika institutlarining talabalari o'qituvchi zimmasidagi bu funktsiyalarga doir nazariy bilimlarni «O'qituvchilik ixtisosiga kirish», pedagogika, pedagogika tarixi, tarbiyaviy ishlar metodikasi, xususiy metodika «Umumiy psixologiya» kabi fanlarni o'rganish orqali egallaydi. Ularga doir amaliy malaka va ko'nikmalarni esa uzluksiz pedagogik amaliyot davomida egallab boradi.

Talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotining yo'nalishi va mazmuni fakultet mutaxassisligiga va o'quv yiliga muvofiq o'zgarib boradi hamda yildan-yilga murakkablashadi. Amaliyot maktab va o'qituvchi oldiga qo'yilgan talablarga muvofiq bo'lish bilan birga, auditoriyada o'rganilayotgan nazariy kurslar mazmuni bilan bog'lanishi hamda, birinchidan, ta'lim jarayonini o'rganishga, ikkinchidan, talabalar tomonidan o'quvchilarning ma'lum guruhi bilan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga qaratilishi kerak.

Uzluksiz malakaviy pedagogik amaliyot davomida har bir talaba o'zining tanlagan kasbiga – pedagogik faoliyatiga yaroqliligi, qiziqishi, shu sohada tayyorgarligi darajasi o'rganiladi. Amaliyotga rahbarlik qilayotgan institut vakili har bir talabani uzluksiz o'rganish, tashkil



alayotgan ishlarini kuzatish, o'quvchilar bilan aloqasi, turli vaziyatlarga nisbatan munosabati, faolligi va boshqalarga qarab uning mustaqilligi, tashkilotchiligi, ixtisos tayyorgarligi va mas'uliyati, umumiy tayyorgarlik darajasi va kasbiga yaroqliligini aniqlab boradi. Bularni amaliyot oxirida o'tadigan anjumanda e'lon qilib tegishli tavsiyalar beradi.

**I kurs talabalari amaliyoti (2- semestr) – 1 hafta.** Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish, maktabgacha ta'lim, defektologiya, pedagogika va psixologiya, musiqa ta'limi, tasviriy san'at va muxandislik grafikasi, tarix o'qitish metodikasi, milliy g'oya, man'aviyat asoslari va hujjat ta'limi yo'nalishlari bo'yicha bo'lajak o'qituvchini pedagogik ixtisosiga tayyorlashning boshlang'ich qadami sifatida bu amaliyot, asosan, o'qitish o'rgatishni sinab ko'rish maqsadini ifodalaydi.

I kurs talabalarining uzluksiz pedagogik amaliyot davomidagi faoliyatining yo'nalishi va mazmuniga quyidagilar kiradi:

\* o'qituvchi funksiyasi bilan tanishib, uning real sharoitda ro'yobga chiqishini hamda maktabdagi ta'lim-tarbiya ishlarining xususiyatini o'rganish;

\* sinf o'quvchilarini o'rganish: o'qituvchilar, sinf rahbarlari bilan o'rganilayotgan o'quvchi haqida suhbatlashish, o'quvchini turli sharoit va vaziyatda kuzatish, hujjatlarni o'rganish;

\* sinf rahbari va o'qituvchining topshirig'iga muvofiq sodda formada sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tayyorlashda va o'tkazishda qatnashish;

\* 3 – 6-sinflarda mustaqil ishlash. Shu maqsadda o'quvchilar bilan o'yinlar, shahmat, maxsus guruhlar tashkil qilish va guruhlar o'rtasida bitag'onlar va o'tkir zehnlilar tanlovi kabilarni tayyorlash va o'tkazish, devoriy gazeta chiqarishda, sinf burchagini, fan xonasini jihozlashda qatnashish.

Mana shular I kurs talabalari bilan o'tkaziladigan uzluksiz malaka-viy pedagogik amaliyotning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Bular pedagogik amaliyot bo'yicha haftada uyushtiriladigan aniq ishlarda aks etiriladi.

**II kurs talabalari amaliyoti (VI semestr) – 3 hafta.** Talabalarning oldingi kurslardagi (mutaxassislik o'quv rejasidan kelib chiqib, II kursda ham tashkil etiladi) pedagogik amaliyoti o'quv tarbiya jarayonining yaxlitligini, uning mantiqini va strukturasi egallashga qo'yilgan qadamining keyingi bosqichli sifatida pedagogik faoliyatni o'rganish va nazariy ji-



hatdan anglash, o'quvchini va o'quvchilar jamoasini o'rganishni chuqurlashtiradi. Talabalar o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarishni, ular bilan, ota-onalar, o'qituvchilar bilan muloqatga kirishishni o'rganadi. Talabalarning o'quvchilar jamoasi va alohida o'quvchi bilan uyushtiriladigan tarbiyaviy ishdagi faolligi kuchayadi. Fan o'qituvchisining faoliyatida qisman ishtirok etadi (o'z kasb yo'nalishiga muvofiq).

**III kurs talabalarining pedagogik amaliyotdagi faoliyati mazmuniga quyidagilar kiradi:**

1. Maktabdagi o'quv-tarbiya ishlar bilan chuqur tanishadi. Fan o'qituvchisi, sinf rahbari, fanning maxsus xonasi ishining mazmuni, shakli va usullarini o'rganadi. Jamoa va shaxs haqidagi pedagogik va psixologik bilimlarga asoslanib, ilmiy tadqiqotning ayrim metodlari (suhbat, anketa, so'rash) dan foydalangan holda sinf jamoasining rivojlanish darajasini o'rganadi.

2. Sinf rahbariga kundalik tarbiyaviy ishlarni uyushtirishda yordam beradi, fan o'qituvchisining o'z faniga doir sinfdan tashqari uyushtiradigan ishlarida qatnashadi.

3. O'quvchilar jamoasi bilan mustaqil ishlar uyushtirish, o'quv-tarbiya ishlarining ayrim shakllarini (biror mutaxassislikka oid mavzuda suhbat, fan kechasi, viktorina, siyosiy axborot, biror mavzu yoki muhim sanalarga atab tadbir o'tkazish v. b.) sinf rahbari va o'qituvchi rahbarligida bajaradi.

4. Maktab faoliyatining biror sohasini (pedagogik amaliyot rahbarining tavsiyasiga muvofiq) mustaqil o'rganadi, masalan, mehnat ta'limi va tarbiyasining qo'yilishi, maktab o'quvchilarini kasb tanlashga yo'llash bilan bog'liq ishlari tizimi, axloq tarbiyasining qo'yilishi, o'z fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning ahvoli v. h. Shuningdek, sinf rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlarida ishtirok etadi.

5. Sinf jamoasi hamda alohida o'quvchining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, uni ma'lum reja asosida tahlil qiladi, maktab miqyosidagi sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tayyorlash va o'tkazishda qatnashadi.

6. Talabalar o'zlarini o'quv ishlari jarayonida ham sinab ko'radi. Shu maqsadda, masalan, darsga kirib o'quvchilar bilimini tahlil qiladi, fan to'garagida, mashg'ulotlarda qatnashadi va mashg'ulot o'tkazadi, ilmiy nazariy anjumanni tashkillashtiradi. O'quvchilar bilan axloqiy mavzuda suhbat, siyosiy muloqot, o'zlashtirishda orqada qolayotgan o'quvchilarga yordam beradi.



tasvirlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar bo'limi (pedagogika kafedrasini) talabalarining ta'lim muassasalarida amaliyotlarini tashkil etadi va uni nazorat qilib turadi. O'tkaziladigan uzluksiz malakaviy pedagogik amaliyot yakuni bo'yicha pedagogika, psixologiya va mutaxassislik kafedralari birgalikda anjuman o'tkazadi, bu anjumanda talabalar o'z bajaragan ishlari bo'yicha axborot beradi yoki ma'ruza qiladi.

**Talabalarning IV kursdagi pedagogik amaliyoti** – barcha turdagi shahar va tuman maktablarining 1 – 9-sinflarida, AL va KHKlarida, iqtidori bolalar litsey-internatlarida talaba (mutaxassisliklar) ning yo'nalishiga bog'liq bo'lgan boshqa o'quv-tarbiya muassasalari yoki ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazilishi mumkin.

Amaliyot boshlanishidan oldin uning vazifalariga oid kollokvium va dastlabki tushuntirish anjumanlari o'tkaziladi. Amaliyotning birinchi haftasi talabalarni maktab va sinf bilan hamda o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkillanishi bilan tanishtirishga ajratiladi. Amaliyotchi unga biriktirilgan sinfda barcha o'qituvchilarning darslariga kiradi, sinfdan tashqari bajariladigan turli ish xillari bilan tanishadi va birinchi haftaning oxirida butun amaliyot davri uchun o'z shaxsiy rejasini tuzadi. Keyingi haftalarda talabalar maktabdagi pedagogik amaliyotning umumiy rejasini hamda guruh rahbari tomonidan tasdiqlangan shaxsiy reja bo'yicha ish olib boradi.

Amaliyot davri mobaynida IV kurs talabalari kamida 15 – 25 ta dars o'tilishi zarur. Keng profilli fakultetlarda hamda rus tili va adabiyoti, ingliz tili va adabiyoti, defektologiya, pedagogika va boshlang'ich ta'lim kafedralarida esa kamida 20 – 30 ta dars o'tilishi zarur, ikki mutaxassislik bo'lgan fakultetlarda ham kamida 20 – 30 tadan dars o'tilishi kerak.

Tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun, qoidaga muvofiq, talabalar har bir sinfga bittadan biriktirib qo'yiladi. IV kursda ular oldin sinf rahbariga yordamchi bo'lib ishlaydi, keyin esa sinf rahbarining barcha vazifalarini bajarishadi. Bundan tashqari amaliyotchilar o'z mutaxassisliklari fanlari bo'yicha sinfdan tashqari ishlar ham olib borishadi.

Pedagogik amaliyotda IV kurs talabalari maktab gigienasi bo'yicha topshiriq bajarishadi. Jismoniy tarbiya fakultetlarida esa, maktab va jismoniy mashqlar gigienasi hamda shifokor nazorati bo'yicha topshiriq bajaradi. Amaliyotchilar ishiga shu fanlarni o'tayotgan o'qituvchilar rahbarlik qilishadi. IV kursdagi pedagogik amaliyot mobaynida talabalar psixologiya o'qituvchilari rahbarligida psixologiyadan maxsus topshiriqlar bajaradilar.



**Talaba-amaliyotchilarning vazifalari.** Amaliyotchi-talaba ushbu dasturda va pedagogik amaliyot nizomida ko'rsatilgan barcha ishlarini bajaradi. O'quvchilarga tashkiliylik, intizomlilik, xushmuomilalik va mehnatsevarlik namunalarini ko'rsatgan holda har bir darsga va sinfdan tashqari o'tkazilayotgan mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rib kelishi kerak.

Amaliyotchi maktabning ichki tartib-qoidalariga va amaliyot rahbarlarining topshiriqlariga amal qilishi va unga bo'ysunishi zarur. Amaliyotchi unga yuklatilgan vazifalarni yoki topshiriqlarni bajarmasa amaliyotdan chetlashtirilishi mumkin. Amaliyotdan chetlashtirilgan yoki amaliyot mobaynida bajargan ishi qoniqarsiz topilgan talabaga fakultet kengashi-ning ruxsati bilan o'quv darslaridan ozod qilinmagan holda qaytadan pedagogik amaliyot o'tishi belgilanadi.

Amaliyot davrida shu maktabdagi talabalarning biri guruhga sarador qilib tayinlanadi. Uning vazifasi talabalarning maktabga qatnashini (davomatini) hisobga olish, ularga kollektiv konsultatsiyalar va seminarlar haqidagi xabarlarni yetkazish, amaliyot rahbarlarining topshiriqlarini bajarishdan iboratdir.

**Talabalarning pedagogik amaliyotini hujjatlashtirish, hisobga olish va baholash.** Talabalar amaliyot davrida kundalik daftar tutadi va bunga ayrim o'quvchilar yoki sinf jamoasi ustidan o'tkazgan kuzatishlari, amaliyot rahbarlari va o'qituvchilarning ko'rsatmalarini hamda psixologiya va maktab gigienasi bo'yicha bajaradigan topshiriqlar bo'yicha zarur bo'lgan ma'lumotlarni yozib borishadi. Amaliyot mobaynida bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot yozishganida shu kundalik daftardan foydalanadi.

Amaliyotning har bir turi o'tkazilgandan so'ng talabalar quyidagi hujjatlarni topshiradi:

a) I kursda – bajargan ishlarining hisobotida o'qituvchining asosiy pedagogik vazifasi bilan tanishish va uni bajarish uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarini egallash bilan bog'liq masalalar o'z aksini topadi.

b) III kursda – bajargan ishlarning hisobotida maktabdagi o'quv-tarbiya ishlari, fan o'qituvchisi, sinf rahbari, fanning maxsus xonasi ishi-ning mazmuni, shakli va usullari, jamoa va shaxs haqidagi pedagogik va psixologik bilimlari, ilmiy tadqiqotning ayrim metodlari (suhbat, anketa,



shaxs), sinf jamoasining rivojlanish darajasi kabi ma'lumotlar o'z aksini topadi. Bu hujjatlar pedagogika va psixologiya kafedralariga yoki institut ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlari bo'yicha ma'sul shaxsga topshiriladi.

v) IV kursda – bajaragan ishining hisoboti, faol va faol bo'lmagan o'quvchilarga psixologik-pedagogik tavsifnoma, sinf jamosiga psixologik-pedagogik tavsifnoma, 1 – 2 darsning rejasi, dars konspekti va unga oid tayyorlangan ko'rsatma qurollari hamda tarbiyaviy tadbirlarning birortasining konspekti. Bu hujjatlar amaliyotning guruh rahbariga topshiriladi.

Pedagogik amaliyotning natijasi maktab direktori o'tkazadigan yig'ilishda va fakultetning ilmiy-amaliy anjumanida yakunlanadi.

Amaliyotning barcha turlari natijalariga ko'ra va zarur bo'lgan hujjatlar topshirilgandan keyin talabaga reyting bali qo'yiladi; pedagogik amaliyotning baholanishiga pedagogika, psixologiya, uslubiy va maktab gigiyenasi bo'yicha bajariladigan barcha topshiriqlar kiritiladi. Agar talaba tomonidan birorta yoki bir nechta topshiriq bajarilmagan bo'lsa ball reyting tizimida ko'rsatilgan tartibda qo'yiladi.

#### **Amaliyot rahbarining vazifalari.**

##### **1. Pedagogik amaliyot mudiri:**

1) Institut bo'yicha amaliyotni tashkil etish, uni rejalashtirish va amaliyot natijalarini hisoblashni ta'minlaydi. Institut miqiyosida amaliyot o'tkazishning reja-grafigini ishlab chiqadi;

2) Xalq ta'limi bo'limi xodimlari bilan kelishilgan holda pedagogik amaliyotni o'tkazish bazasi sifatida maktab yoki boshqa o'quv-tarbiya muassasalarini tanlaydi;

3) Pedagogik amaliyotda qatnashuvchi maktab, institut xodimlarining tushuntirish va yakuniy yig'ilishlarini tashkil etadi va o'tkazadi;

4) Fakultetlarda o'tkaziladigan tushuntirish va yakuniy anjumanlarda qatnashadi;

5) Guruh rahbarlari, uslubchi o'qituvchilarni hamda amaliyot rahbarligi bo'yicha maktab ma'muriyati va o'qituvchilari ishlarini nazorat qilib turadi, talabalar tomonidan o'tkazilayotgan darslarga va boshqa turdagi mashg'ulotlarga kiradi (qatnashadi), amaliyotni tashkil etish bo'yicha tayyorlangan kamchiliklarni yo'qotish choralarini ko'radi;

6) Amaliyotga rahbarlik qilayotganlarga berilayotgan ish haqi hujjatlarini nazorat qiladi;



7) Pedagogik amaliyot bo'yicha umumiy hisobot yozadi va uni o'quv ishlari bo'yicha prorektoraga topshiradi;

8) Amaliyotning o'quv-uslubiy tajribalarini umumlashtiradi, uni takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini kiritadi, talabalarning pedagogik amaliyotiga doir masalalar ko'rilayotgan kafedra yig'ilishlarida ishtirok etadi.

### **2. Amaliyotning guruh rahbari<sup>1</sup>:**

1). Amaliyotchilarga bevosita rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

2). Pedagogik amaliyot bo'yicha tushuntirish va yakuniy anjumanlarni tashkil etadi va o'tkazadi: amaliyotning boshlanishida va oxirida maktab direktori o'tkazadigan yig'ilishda qatnashadi;

3). Pedagogika kafedrasini vakili, uslubchi o'qituvchi, maktab direktori va o'rinbosari bilan birgalikda talabalarni sinflar bo'yicha taqsimlaydi, talabalarning individual rejalarini tasdiqlaydi va uning bajarilishini nazorat qiladi, talaba o'tkazgan dars va sinfdan tashqari mashg'ulotning analizini tashkil etib beradi;

4). Talabalarning amaliyot davrida bajargan ishlari hisoboti hujjatlarini tekshiradi va amaliyotda ishtirok etayotgan kafedra vakillari, o'qituvchilar va sinf rahbarlari bilan birgalikda amaliyotga differensiyalangan baho qo'yib chiqadi;

5). Amaliyotda ishtirok etayotgan o'qituvchilar bilan tushuntirish-uslubiy ishlarni olib boradi;

6). Talabalarining pedagogik amaliyoti bo'yicha hisobot tuzadi.

### **3. Mutaxassislik bo'yicha uslubchi o'qituvchi<sup>2</sup>:**

1). Pedagogik amaliyotga bag'ishlangan tushuntirish va yakuniy anjumanlarda, shuningdek, amaliyotning boshlanishi va oxirida maktab direktori o'tkazadigan yig'ilishda qatnashadi;

2). Talabalarni mutaxassislik fanlari o'tiladigan darslarga, predmet bo'yicha sinfdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlarga taqsimlaydi:

<sup>1</sup> Guruh rahbarlari qilib asosan uslubchi o'qituvchilar tayinlanadi, lekin ayrim hollarda pedagogika va psixologiya o'qituvchilari ham tayinlanishi mumkin. Shuningdek, mazkur fakultetning yetakchi fanlari bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lgan maktab xodimlari ham amaliyotga rahbarlik qilishi mumkin. Yirik pedagogik institutlarda pedagogik amaliyot olib boradigan tajribali o'qituvchilar orasidan amaliyotning fakultet bo'yicha rahbari ham tayinlanishi mumkin. Guruh va fakultet amaliyot rahbarlariga pedagog amaliyotga ajratilgan umumiy soatlar bo'yicha har bir talaba uchun bir soatdan belgilanadi.

<sup>2</sup> Uslubchi o'qituvchi vazifasiga institut o'qituvchilari va maktabning ilg'or o'qituvchilari jalb etiladi. Uslubchi o'qituvchi 15 kishidan iborat talabalar guruhiga rahbarlik qiladi.



3) Maktab o'qituvchilari bilan birgalikda amaliyotchilarga dars mavzularini va predmet bo'yicha sinfdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlarini taqdimlaydi;

4) Talabalar tomonidan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashuviga yordam qiluvchi uslub asosida turli xil darslarni va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tishni tashkil etishda, talabalarning darsga va sinfdan tashqari mashg'ulotga fan bo'yicha tayyorgarlik ko'rishida maslahatlar beradi, ularning ish rejasi va konspektlarini tekshirib tasdiqlaydi, darsga va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashib, ularni analiz qiladi va baholaydi;

5) Maktab o'qituvchilarining talaba-amaliyotchilar bilan olib boradigan ishlariга ilmiy-uslubiy jihatidan yordam beradi;

6) O'tkazilgan amaliyot yakuni to'g'risida guruh rahbariga ma'lumot beradi.

#### **4. Pedagogika o'qituvchisi<sup>2</sup>:**

1) Pedagogik amaliyotga bag'ishlangan tushuntirish va yakuniy anjumanda, shuningdek, amaliyotning boshlanishi va oxirida maktab direktori o'tkazadigan yig'ilishda qatnashadi;

2) Amaliyotchilarning sinfdan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarga qatnashishini tashkil etadi va uni analiz qiladi;

3) Sinf rahbari bilan birgalikda amaliyotchilarning tarbiyaviy ishlarini rejalashtiradi;

4) Talabalarning o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar olib borishini ta'minlaydi: tarbiyaviy ishlar rejasini tuzishda maslahatlar beradi, tarbiyaviy tadbirlar rejalari va konspektlarini tekshiradi, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashadi, ularni analiz qiladi va baholaydi;

5) Talabalarga o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi;

6) Guruh rahbari, maxsus kafedralarning uslubchilari, psixologiya o'qituvchilari va maktab xodimlari bilan birgalikda har bir amaliyotchi-ning ishini baholaydi;

7) Guruh rahbariga talabalar olib borayotgan tarbiyaviy ishlar bo'yicha ma'lumot beradi.

#### **5. Psixologiya o'qituvchisi<sup>3</sup>:**

1. Pedagogik amaliyot bo'yicha o'tkaziladigan tushuntirish va yakuniy anjumanda hamda maktab direktori o'tkazadigan yig'ilishda ishtrok etadi;

<sup>2</sup> Pedagogika o'qituvchisi qoida bo'yicha 25 nafar talabaga rahbarlik qiladi.

<sup>3</sup> Psixologiya o'qituvchisi 50 nafar talabaga rahbarlik qiladi.



2. Amaliyotchilarning darslari va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlariga va ularning analizlariga qatnashadi;

3. Talabalarning o'quvchilar jamoasi va shaxsini o'rganishga, pedagogik amaliyot dasturida ko'rsatilgan psixologiya bo'yicha topshiriq tur-larini bajarishga rahbarlik qiladi;

4. Guruh rahbari, uslubchi o'qituvchi, pedagogika kafedrası o'qituv-chilari va maktab xodimlari bilan birgalikda har bir amaliyotchining ishi-ni baholaydi.

#### **6. Maktab direktori (uning o'rinbosari):**

1) Maktabda pedagogik amaliyotni o'tishi uchun yaxshi sharoit yarat-ib beradi, o'qituvchilar, xizmatchilar va maktab o'quvchilari bilan ish olib boradi;

2) Talabalarni maktab bilan, o'quv-tarbiyaviy ishlarning qo'yilishi, o'qituvchilar tarkibi, maktab hujjatlari, uning o'quv material bazasi (kabi-netlar, ustaxonalar, kutubxonalar va boshqalar) bilan, pedagogik kengashi, metodik birlashma va ota-onalar kengashi ishlari bilan tanishtiradi;

3) Guruh rahbari va uslubchi o'qituvchi bilan birgalikda talabalarni sinflar bo'yicha taqsimlaydi;

4) Amaliyotchilarning (ayrimlarini) darsdan va sinfdan tashqari olib boradigan tadbirlari va ularning muhokamasida qatnashadi;

5) Pedagogik amaliyot boshlanishida va u tamom bo'lgach yig'ilish o'tkazadi.

#### **7. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisi:**

1) Talabalarni maktabning tarbiyaviy ishlar rejasi bilan tanishtiradi;

2) Talabalarga ommaviy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish-da yordam beradi;

3) Talaba-amaliyotchilar bilan olib boriladigan ishlarni tashkil etish va o'tkazishda sinf rahbarlariga yordam beradi;

4) Amaliyotchilarning sinfdan tashqari olib boradigan (ayrim) tadbir-larida va ularning muhokamasida qatnashadi;

5) Amaliyotning boshlanishi va oxirida maktab direktori o'tkazadigan yig'ilishda ishtrok etadi.

#### **8. Fan o'qituvchisi:**

1) Talabalarni o'z ish rejasi bilan tanishtiradi, ochiq dars va fan bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulot o'tkazadi;

2) Uslubchi o'qituvchi bilan birgalikda talabalarga dars mavzulari va fan bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar mavzularini taqsimlab beradi;



3) Talabalarning sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishida maslahatlar beradi, o'tiladigan dars va sinfdan tashqari mashg'ulotning rejasi va konspektini tekshiradi, talabani dars yoki sinfdan tashqari mashg'ulot o'tishiga rozilik beradi;

4) Talabalar tomonidan o'tkazilgan dars va fan bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarning muhokamasi va uni baholashda qatnashadi;

5) Amaliyotchilarni o'quvchilar bilan to'g'arak ishlarini o'tkazishga qo'shimcha darslarni o'tishga, ko'rgazmali qurollar tayyorlashga va daftarlarni tekshirishga jalb etadi;

6) Pedagogik amaliyot bo'yicha direktor o'tkazadigan yig'ilishlarda hamda institutdagi yakuniy anjumanlarda qatnashadi.

#### **9. Sinf rahbari:**

1) Talabalarni sinfdagi o'quvchilar ro'yxati, ularning o'zlashtirishi, davomati, xulqi bilan, asosiy tarbiyaviy vazifalar va chorak uchun tuzilgan o'z ish rejasi bilan tanishtiradi, o'quvchilar bilan sinfdan tashqari muhiq tarbiyaviy tadbirlar o'tkazadi;

2) O'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishda amaliyotchilarga yordam ko'rsatadi;

3) Talabalarga amaliyot mobaynida bajarishi zarur bo'lgan tarbiyaviy masalalarni belgilashga yordam beradi, tarbiyaviy ishlar rejasini tuzishda ularga tavsiyalar beradi;

4) Talabalarni sinfdagi kundalik tarbiyaviy ishlarga jalb etadi;

5) Talabalarning sinfdan tashqari o'tkazadigan mashg'ulotlariga, ularning muhokamasi va baholanishida qatnashadi;

6) Amaliyotning boshlanishi va oxirida maktab direktori o'tkazadigan yig'ilishda qatnashadi.

**Talabalarning pedagogik amaliyotiga rahbarlik qilishda OTM professor-o'qituvchilariga ajratilgan o'quv soatlarining me'yori.**

Pedagogik amaliyotga rahbarlik qilish uchun OTM professor-o'qituvchilariga o'quv topshiriqlari qo'yidagicha belgilanadi<sup>2</sup>.

5) I kurslarda (1 hafta) o'tiladigan amaliyotni tashkil etish, tayyorlash va rahbarlik qilish uchun kafedra o'qituvchilariga bitta guruh uchun 36 soat, ushbu soat guruhdagi talabalar soniga bo'linadi ( $1 \times 36 = 36$ ,  $30/36 = 0,83$  soat.  $2 \times 36 = 72$  va h. k);

<sup>2</sup> Institut o'qituvchisiga ish hajmi taqsimlanayotganda shuni hisobga olish kerakki, talabalarning pedagogik amaliyotiga rahbarlik qilishga ajratilgan soatlar pedagogika-psixologiya o'qituvchilari va asubchi o'qituvchilarning o'quv yuklamalarining 40% idan oshmasligi kerak.



b) III kurslarda o'qitiladigan amaliyotni tashkil etish, tayyorlash va rahbarlik qilish uchun kafedra o'qituvchilariga bitta guruh uchun 36 soat;

v) Bir talabaning maktabdagi pedagogik amaliyotiga rahbarlik qilishi uchun (soat hisobida) institut o'qituvchilariga qo'yidagicha soat belgilangan:

№	Fakultet rahbarligiga	IV kurs, 14 hafta (soat)
		1
	Guruh rahbarligiga	1
	Uslubchi o'qituvchiga	16
	Pedagogika o'qituvchisiga	3
	Psixologiya o'qituvchisiga	2
	<b>JAMI:</b>	<b>23</b>

**Maktab xodimlariga pedagogik amaliyotda qatnashishi va rahbarlik qilishi uchun haq to'lash.** OTM joylashgan shahar va tuman maktablarida ta'lim muassasasi talabalarining pedagogik amaliyotiga umumiy va bevosita rahbarlik qilgan maktab o'qituvchilariga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida Nizom»ga asosan amalga oshiriladi.

**Uzluksiz malakaviy amaliyot natijalarini reyting tizimi asosida baholash.** Talabalarining uzluksiz malakaviy (IV kurs talabalar uchun pedagogik amaliyot) amaliyot davomida amalga oshirgan ishlari va amaliyotga doir hujjatlari mas'ul kafedralarning uslubchi professor-o'qituvchilari tomonidan tahlil qilinib, talabalar pedagogika va psixologiya fani bo'yicha uslubchi o'qituvchilari, mutaxassis fan va qo'shimcha mutaxassis fan uslubchi o'qituvchilari va maktabdagi uslubchi o'qituvchilari hamkorligida qo'yilgan ball va baholar asosida bosh uslubchi o'qituvchi tomonidan umumlashtirilib, «Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi»ga ko'ra baholanadi.

Uslubiy kafedralarda talabalarining pedagogik amaliyot bo'yicha bilimni baholash mezonlari ushbu reyting nizom asosida ishlab chiqildi.

**Pedagogik amaliyot (IV kurslar uchun) natijalarini reyting tizimi asosida baholashda reyting ballarning kafedralar va nazorat turlari bo'yicha taqsimlanish**



## XARITASI

Maksimal ball: 100		Saralash ball: 55.0			
Baholash mezonlari		«2»	«3»	«4»	«5»
		0 – 54	55 – 70	71 – 85	86 – 100
№	Nomlari	Ball % hisobida	Ajratilgan ball	Jami ball	
<b>1. Umumiy ballning kafedralar bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)</b>					
1.1.	Uslubchi kafedrasiga	50 %	50	80	
1.2.	Qo'shimcha mutaxassislik fan kafedrasiga	30 %	30		
1.3.	Pedagogika kafedrasiga	15 %	15	20	
1.4.	Psixologiya kafedrasiga	5 %	5		
<b>2. Umumiy ballning nazorat turlari bo'yicha taqsimlanishi</b>					
2.1.	<b>Tashkiliy ishlar</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	10	
	1. Maktab ma'muriyati bilan tanishish	1 %	1		
	2. Amaliyotdagi davomati uchun	2 %	2		
	3. Shaxsiy ish reja uchun	2 %	2		
	4. Yakuniy hisobot uchun	5 %	5		
2.2.	<b>Tarbiyaviy, ma'naviy va ma'rifiy ishlar</b>	<b>20 %</b>	<b>20</b>	20	
	1. Tarbiyaviy kalendar reja	2 %	2		
	2. O'tkazilgan tadbirlar va bayonnomalar	5 %	5		
	3. Ota-onalar bilan ishlash	3 %	3		
	4. O'quvchilar bilan ishlash	2 %	2		
	5. O'quvchilar va sinfga pedagogik - psixologik tavsifnoma	5 %	5		
	6. Sinfdan tashqari ishlar	3 %	3		



<b>2. 3.</b>	<b>O'quv metodik ishlar</b>	<b>70 %</b>	<b>70</b>	
	1. Kalendar ish reja	2 %	2	
	2. Dars tahlili	18 %	18	
	3. Dars konspekti	20 %	20	
	4. Dars o'tish mahorati	15 %	15	
	5. Kundalik daftar	5 %	5	
	6. Sinov darsi va bayonnomasi	5 %	5	<b>70</b>
	7. Ko'rgazmali qurol	3 %	3	
	8. To'garak rejasi	2 %	2	

### 3. Pedagogika-psixologiya va qo'shimcha mutaxassislik kafedralari uchun

<b>3. 1.</b>	<b>Tarbiyaviy, ma'naviy va ma'rifiy ishlar</b>						
		Ajratilgan ball		Pedagogika bali		Psixologiya bali	
		20%	20	15%	15	5%	5
	Tarbiyaviy kalendar reja	2 %	1	1 %	1	-	-
	O'tkazilgan tadbirlar va bayonnomalar	5 %	6	5 %	5	1%	1
	Ota-onalar bilan ishlash	3 %	3	2 %	2	1%	1
	O'quvchilar bilan ishlash	2 %	2	1 %	1	1%	1
	O'quvchilar va sinfga pedagogik-psixologik tavsifnoma	5 %	6	4 %	4	2%	2
	Sinfdan tashqari ishlar	3 %	2	2 %	2	-	-
<b>3. 2.</b>	<b>O'quv metodik ishlar</b>						
		Ajratilgan ball		Uslub. kaf. bali		Qo'shim. kaf. bali	
		70%	70	40%	40	30%	30
	Kalendar ish reja	2 %	2	1 %	1	1 %	1
	Dars tahlili	18 %	18	10 %	10	8 %	8
	Dars konspekti	20%	20	12 %	12	10 %	10
	Dars o'tish mahorati	15 %	15	8 %	8	6 %	6
	Kundalik daftar	5 %	5	3 %	3	1 %	1
	Sinov darsi va bayonnomasi	5 %	5	3 %	3	2 %	2
	Ko'rgazmali qurol	3 %	3	2 %	2	1 %	1
	To'garak rejasi	2 %	2	1 %	1	1 %	1



**Pedagogik amaliyot yakuni.** Fakultet va institutda pedagogik amaliyot yakuniga doir yakuniy anjuman o'tkaziladi. Yakuniy anjumanda bosh uslubchi o'qituvchi va talabalarning vakillari ma'ruza qiladi. Pedagogik amaliyot davomida namunalni faoliyat ko'rsatgan uslubchi o'qituvchilar, maktab rahbarlari, fan o'qituvchilari va ilg'or talabalar rag'batlantiriladi. Anjuman oldidan fakultet amaliyotchi talabalari tomonidan taqdim etilgan ishlar yuzasidan ko'rik tanlov va ko'rgazma tashkil qilinadi. O'tkazilgan pedagogik amaliyotga oid barcha hujjatlar fakultet pedagogik amaliyot rahbariga yoki uslubiy kafedraga topshiriladi.

**Pedagogik amaliyot bo'yicha hisobot yozishning namunaviy an-  
dazasi.**

1. Kurslar bo'yicha alohida yoziladi.

2. Pedagogik amaliyot o'tkazilgan maktablarning ro'yxati:

Maktab pedagogik amaliyot o'tkazish uchun talablarga javob beradimi, maktabga va uning yetakchi o'qituvchilarga qisqacha tavsifnoma (ji-  
hozlangan xonalari, texnika vositalari, tajribali o'qituvchilari va h. k.)

Uslubchi o'qituvchilarga qisqacha tavsifnoma:

Tajribasi, maktabda dars beradimi? Qayerdaligi aniq ko'rsatilsin.

Ular olib borgan ishlarning qisqacha mazmuni va xarakteri, ajratilgan soatlardan umumli foydalanishi. Ularni nazorat qilishning aniq shakllari.

4. Amaliyotning sifatli o'tishini ta'minlash maqsadida kafedraning o'tkazgan tadbirlari:

a) ochiq namunali darslar soni, uslubchilarning ismi va familiyasi;

b) uslubchi o'qituvchilarning darajasi;

• fan doktori, professor;

• fan nomzodi, dotsent;

• katta o'qituvchi;

• o'qituvchi;

5. Maktabdan soatbay jalb etilgan;

6. Mutaxassislik bo'yicha talabalar ilmiy va uslubiy saviyalari;

7. Amaliyotchilarning o'quv qurollari bilan taminlanishi;

8. Talabalarning o'tkazgan darslariga va tarbiyaviy tadbirlariga tavsifnoma;

9. Amaliyot o'tish jarayonida uchragan kamchiliklar;

10. Dekanat va kafedraning ishtiroki va amaliyotchilarga ko'rsatgan yordamlari;

11. Amaliyot jarayonida talaba va uslubchi o'qituvchi tomonidan o'tkaziladigan ma'ruza va suhbatlar soni, tematikasi;

12. Ma'lumotlar:

- amaliyotchilar soni;
- tayyorlangan ko'rgazmali qurollar soni;
- o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar soni;
- o'tkazilgan kechalar soni;
- o'tkazilgan ekskursiyalar va madaniy ishlar;
- olimlar va yozuvchilar bilan tashkil qilingan uchrashuvlar soni;
- mustaqil va sinov darslarining soni (alohida-alohida)

### BAHOLAR

a'lo \_\_\_\_\_ yaxshi \_\_\_\_\_  
qoniqarli \_\_\_\_\_ baholanmadi \_\_\_\_\_  
jami: \_\_\_\_\_

13. Amaliyot davrida uchraydigan asosiy kamchiliklar (tashkiliy, uslubiy, pedagogik xarakterdagi) va ularni tuzatish yuzasidan takliflar.

14. Pedagogika, psixologiya va boshqa kafedralarning ishtiroki. Kamchiliklar (aniq dalillar asosida).

15. Maktab ma'muriyatining pedagogik amaliyotga yordami.

16. Amaliyot haqidagi yakuniy xulosa.

17. Pedagogik amaliyotdagi kamchiliklarni tuzatish, takomillashtirish haqida taklif va mulohazalar.



*Uslubchi o'qituvchining shaxsiy ish rejasi*

«Kelishildi»  
Fakultet dekani:

«Tasdiqlayman»  
Ishlab chiqarish va pedagogik  
amaliyotlar bo'yicha o'quv bo'limi  
inspektori:

«\_\_\_» 20\_\_ y. «\_\_\_» 20\_\_ y.  
Fakulteti IV kurs talabalarining pedagogik amaliyotini  
o'tkazishda kafedrasining uslubchi  
o'qituvchisi ning ish rejasi

Hajratladigan ishlar mazmuni	Vaqt	Izoh
Maktabda va institutning yetakchi o'qituvchilari talabalarida pedagogik amaliyotga boruvchi talabalar bilan pedagogik amaliyot jarayonida amalga oshiriladigan ishlar muhoyati haqida umumiy anjumanga qatnashish		
Amaliyotchi talabalarni maktab ma'muriyati, mehnat ta'limining o'quv bahosi, o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayoni va uni tashkil etish haqida kasb ta'limining qo'yilishi bilan tanishtirish		
Maktabning yetakchi o'qituvchilarining darslarini tajriba o'rganish maqsadida talabalar tomonidan kuzatish ishlarini tashkil etish va o'tkazish		
Amaliyotchi talabalarni o'quv-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo'yicha sinflarga taqsimlash		
Talabalarga mutaxassishlari bo'yicha kalendar ish rejani tuzish bo'yicha yo'l-yo'riqlar va uslubiy yordam ko'rsatish		
Talabalarining pedagogik amaliyot davomida mustaqil va sinov darslari mavzularini aniqlashtirish		
Har bir talabaga individual uslubiy yordam berish		
Talabalar tomonidan kuzatilgan darslarning tahlilini ko'rib chiqish		
Talabalarining darslarga tayyorgarligi bo'yicha uslubiy yordam berish		
Dars va darslardan tashqari ishlar jarayonida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo'yicha uslubiy yordam berish		
Laboratoriya, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy yordam berish		

Talabalarning dastlabki darslari va unga qo'yilgan baholar, hamda ko'rsatilgan yutuq va kamchiliklarni matematik tahlil qilish		
Har bir talabaning pedagogik amaliyot jarayonidagi faoliyatini tahlil etish		
Talabalarning pedagogik amaliyot davomida rasmiylashtirgan hujjatlarini nazorat qilish va uslubiy yordam berish		
Amaliyotchi talabalarni sinf o'qituvchilari va ota-onalar, maktab ma'muriyati bilan o'tkazgan suhbat va ma'ruzalarni tahlil etish		
Talabalar sinov darslarini o'tkazish grafigini tuzish		

kafedra uslubchi o'qituvchisi: \_\_\_\_\_

(imzo)

(Familiyasi, ismi va sharifi)

kafedra mudiri: \_\_\_\_\_

### **Pedagogik amaliyot jarayoniga doir me'yoriy hujjatlar va ularni rasmiylashtirish**

**Talabaning kundalik daftari va hisobotlari mazmuni.** Pedagogik amaliyot hujjatlari ichida o'zining salmog'i va tutgan o'rni bilan amaliyotchining yuritayotgan kundalik daftari muhim o'rin egallaydi. Negaki, aynan kundalik daftarda talabaning pedagogik-psixologik, ilmiy-uslubiy va amaliy izlanishlari o'z aksini topadi. Aynan kundalik daftarda talabaning kasbiy o'sish darajasi, pedagogik-psixologik muammolarga yondashish uslubi, shaxsiy fikri, u yoki bu pedagogik vaziyatni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalash malakalarining qay darajada shakllanganligi, uslubiy jihatdan o'sish darajasi, pedagogik mahorati namoyon bo'ladi. Shu bois, kundalik daftar amaliyotchi faoliyatining ko'zguisi desak mubohlag'a bo'lmaydi.

#### *Kundalik daftarni yuritishiga qo'yiladigan pedagogik talablar.*

⊗ rejalashtirilgan ishlar fan o'qituvchilari, sinf rahbari, ta'lim muassasasi, jamoat-tashkilotlari tomonidan belgilangan o'quv-tarbiyaviy tadbirlar yo'nalishida bo'lishi kerak;

⊗ belgilangan tadbirlar ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi va talabaning kasbiy o'sishida muayyan bosqich vazifasini o'tamog'i lozim;



⊙ o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etish, ularni tahlil qilish talabalarida pedagogik mahorat sirlarini egallashda yordam berishi, ularda kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishi kerak;

⊙ rejalashtirilgan ishlar talabalarda ongli intizom, o'z ishiga, faoliyatiga javobgarlik hissini tarkib toptirish, o'z-o'zini tarbiyalash, nazorat qilish, o'zaro muloqot qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim;

⊙ o'tkazilgan tadbirlarni qayd etishda talaba ularning mazmunini, mahiyatini mantiqan, aniq ifodalashi, foydali bo'lgan yo'nalishlarini belgilashi, o'zining shaxsiy pozitsiyasini asoslashi kerak;

⊙ rejalashtirilgan ishlar ilg'or pedagogik tajribani o'rganishga, o'z fani va tarbiyaviy ishlar sohasidagi yangiliklar bilan mustaqil tanishishga imkon yaratishi lozim;

⊙ kundalik daftar har kuni, talablar doirasida to'ldirib borilishi kerak;

⊙ amaliyotchi-talaba ta'lim muassasasidagi ishi, faoliyati davrida kundalik daftarni hamisha o'zi bilan olib yurishi shart;

⊙ amaliyotchi-talaba haftada bir marotaba kundalik daftardagi yozuvlarni, haftalik rejani uslubshunos o'qituvchilarga tekshirtirishi va tasdiqlatish uchun ko'rsatishi shart;

⊙ kundalik sahifalarida uslubshunos, o'qituvchilar amaliyotchining darslarini, tarbiyaviy tadbirlarining tahlillarini qayd etishlari mumkin.

*Amaliyotchining kundalik daftarida quyidagilar qayd etilishi shart:*

⊙ sinf jurnalining oxirgi beti shakli bo'yicha o'quvchilarning ro'yxati, ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, o'tgan chorak, yarim yillik yakuni bo'yicha natijalar va o'quvchilarning individual xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

⊙ sinf o'quvchilarini joylashtirish tartibi;

⊙ ta'lim muassasasidagi qo'ng'iroqlar jadvali; fan o'qituvchisining va birlashtirilgan sinfdagi darslarning jadvali;

⊙ amaliyotchi-talabaning dars jadvali;

⊙ barcha amaliyotchi-talabalarning dars jadvali;

⊙ sinfdan tashqari belgilangan tarbiyaviy sinov tadbirlarining jadvali;

⊙ hozirgi chorak uchun sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasidan ko'chirma;

⊙ amaliyotchi-talabaning amaliyotning butun davri uchun mo'ljallangan o'quv-tarbiyaviy, uslubiy ishlarining shaxsiy rejasi, haftalar bo'yicha va haftaning har bir kuniga mo'ljallangan ishlar rejasi;

⊗ fan o'qituvchilari va amaliyotchi-talabalarning darslari, tarbiyaviy tadbirlarini kuzatish va tahlil qilish;

⊗ o'z darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'rtoqlari bildirgan fikr-mulohazalar bilan qo'shib tahlil qilish;

⊗ amaliyot rahbarining, pedagogika, psixologiya fanlari bo'yicha uslubshunoslarning topshiriqlari;

⊗ amaliyot davrida o'tkazilayotgan uslubiy va pedagogik seminarlar uchun to'plangan materiallar.

### **Amaliyotchi yuritadigan kundalik daftarning birinchi sahifasining ko'rinishi**

Jizzax davlat pedagogika instituti \_\_\_\_\_  
fakultet \_\_\_\_\_ guruhi \_\_\_\_\_  
amaliyotchi talabasi \_\_\_\_\_ ning

### **KUNDALIK DAFTARI**

Pedagogik amaliyot \_\_\_\_\_  
shahar (tuman) dagi \_\_\_\_\_ sinf (guruh) da  
bo'lib o'tayapti.

(ta'lim muassasasining nomi)

Boshlanish vaqti: \_\_\_\_\_ Tugash vaqti: \_\_\_\_\_

Fan bo'yicha uslubshunos: \_\_\_\_\_

Pedagogika fani bo'yicha uslubshunos: \_\_\_\_\_

Psixologiya fani bo'yicha uslubshunos: \_\_\_\_\_

Institut amaliyot bo'limi boshlig'i: \_\_\_\_\_

Ta'lim muassasasi direktori: \_\_\_\_\_

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari: \_\_\_\_\_

Manaviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari: \_\_\_\_\_

Biriktirilgan sinf va sinf rahbari: \_\_\_\_\_

Biriktirilgan fan o'qituvchisi: \_\_\_\_\_

Ta'lim muassasasi «Kamalak» yetakchisi: \_\_\_\_\_

Ta'lim muassasasi «Kamolot» YOIH yetakchisi: \_\_\_\_\_

Ta'lim muassasasi manzili: \_\_\_\_\_

Telefon: \_\_\_\_\_



### Amaliyotchilarning navbatchilik ro'yxati

№	Imi, shacifi	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
9							
10							

### Qo'ng'iroqlar jadvali

	Kirish	Chiqish	Tanaffus
1			
2			
3			
4			
5			
6			

### Uslubshunosning navbatchilik ro'yxati

Dushanba	
Seshanba	
Chorshanba	
Payshanba	
Juma	
Shanba	

**Pedagogik amaliyotni o'tkazganligi to'g'risidagi hisobotining taxminiy mazmuni.**

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti  
 ( ) \_\_\_\_\_ fakultetining \_\_\_\_\_ yo'na-

lishi \_\_\_\_\_ guruhtalabasi \_\_\_\_\_  
ning 20 \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ dan 20 \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_  
gacha \_\_\_\_\_

(tuman, shahar) dagi

(ta'lim muassasasining to'liq nomi)

olib borgan pedagogik amaliyoti bo'yicha

### Hisoboti

#### *Taxminan quyidagi savollarga javob tarzida yoziladi*

1. Pedagogik amaliyot rejasini bajarish. Rejadan qanday chetga chiqishlar bo'ldi? Nima uchun? Rejadan tashqari qanday ishlar amalga oshirildi, amaliyotning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

2. O'tilgan darslar hisobi, qanday darslar sizning nazaringizda muvaffaqiyatliroq o'tdi, qanday kamchiliklar yuz berdi? Nima uchun?

3. Amaliyot davrida siz qanday asosiy didaktik vazifalarni hal etdingiz va qanday natijalarga erishdingiz?

4. Siz o'z ishingizni tashkil etayotganda qanday va qaysi ilg'or pedagogik tajribalarga suyangan holda ish tutdingiz? Ulardan qanday foydalandingiz (muammoli o'qitish elementlari, ishning tekshirish uslublari, ilg'or tajribadan foydalanish, TTV va boshqalar). O'z tajribalaringizdan aniq misollar keltiring. Siz bajargan ishingizdan qoniqdingizmi? Qanday nazariy, uslubiy, tashkiliy qiyinchiliklarga duch keldingiz?

5. Siz amaliyot mobaynida qanday asosiy tarbiyaviy vazifalarni hal qildingiz? «Kamalak», «Kamolot» Yo'li boshlang'ich tashkilotlari bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish tizimiga qanday shakllar kiritilgan? Ularga o'z munosabatingizni bildiring.

6. Ta'lim muassasasi sharoitida o'quvchilarga individual munosabat qanday amalga oshiriladi?

7. Siz kelajakda o'z oldingizga qanday tashkiliy-tarbiyaviy vazifalar qo'ymoqchisiz? Siz amaliyot jarayonida qanday mahorat va malakalarni egalladingiz?

8. Amaliyot haqida sizning xulosalaringiz. Pedagogik faoliyatingizning shakllanishida o'tkazilgan amaliyotning ahamiyati. Amaliyotni tashkil etish samaradorligini oshirish va uni yanada mazmunliroq qilish borasidagi fikringiz?



Amaliyotchi - talaba: \_\_\_\_\_

Hisobot yozilgan vaqt: \_\_\_\_\_

**Pedagogik amaliyot o'tganligi to'g'risida beriladigan tavsifnomaning mazmuni**

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti  
\_\_\_\_\_ fakultetining \_\_\_\_\_ yo'nalishi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ guruh talabasi \_\_\_\_\_ ning \_\_\_\_\_  
(tuman, shahar) dagi

(ta'lim muassasasining to'liq nomi)

pedagogik amaliyot o'tganligi to'g'risidagi tavsifnoma (*taxminiy mazmuni*).

Pedagogik amaliyot davomida fan o'qituvchisi (qaysi fan) va sinf rahbari (qaysi sinfda) sifatida amaliyot dasturi va individual topshiriqlarni to'liq bajardi (u yoki bu sababga ko'ra amaliyotning u yoki bu qismini bajarmadi).

#### **Tavsifnomada quyidagilar qayd etilishi shart:**

① pedagogik amaliyot dasturida belgilangan ish turlarini bajarish, tashkil etish va boshqarish malakalarining shakllanganligi;

② turli yoshdagi o'quv guruhi bolalari bilan darslarni va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish sifati;

③ o'quv guruhini boshqara olishi, guruhda tartib-intizomni nazorat qilish va hisobga olish malakasining borligi;

④ amaliyotchi-talabaning o'z mutaxassisligi bo'yicha tayyorgarlik darajasi, uning uslubiy malaka va ko'nikmalari, nazorat bilimlarini amaliyotda qo'llay bilish darajasi;

⑤ o'z ishida mustaqillikka intilish darajasi, tashkilotchilik qobiliyati, tashabbuskorligi, talabchanligi va ijrochiligi;

⑥ ta'lim muassasasining ichki qoidalariga va mehnat intizomiga nisbatan bo'lgan munosabati;

⑦ talabaning faoliyati to'g'risida xulosa va uning kasbiy tayyorgarligidagi xato-kamchiliklarni tuzatish borasidagi taklif va mulohazalar.

Maktab direktori: \_\_\_\_\_  
 Fan o'qituvchisi: \_\_\_\_\_  
 Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

**Pedagogik amaliyot davrida ish jarayonini rejalashtirish.**

Tarbiyaviy ishlar bo'yicha uslubshunosning amaliyotchi-talabalar bilan olib boradigan haftalik ishlari rejasining taxminiy mazmuni:

№	Amaliyotchi-talabalar bilan olib boriladigan uslubiy ishlarning haftalik mazmuni	Belgilangan tadbirlar-ni o'tkazish sanasi	Rejalashtirilgan ishlar-ning bajarilganligi to'g'risida ma'lumot
1	2	3	4
<b>Birinchi hafta</b>			
1	Pedagogik amaliyotga bag'ishlangan anjumanda ishtirok. Amaliyotda amalga oshirish kerak bo'lgan tarbiyaviy vazifalar to'g'risida so'zlash		
2	Qo'l ostidagi talabalar bilan tanishish, birlashtirilgan ta'lim muassasalarini aniqlash, talabalarga dastlabki tarbiyaviy vazifalarni berish		
3	Ta'lim muassasasi sinf rahbarlari bilan tanishish, talabalarni sinflarga taqsimlash. Tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari bilan suhbat uyushtirish		
4	Pedagogik amaliyot davrida olib borilishi kerak bo'lgan rasmiy hujjatlar to'g'risida to'liq ma'lumot berish		
5	Amaliyotchi-talabalar bilan amaliyot o'qituvchilarining darslariga, sinf rahbarlarining tarbiyaviy tadbirlariga qatnashish va ularning tahlilida faol ishtirok etish		



0	Dara va tarbiyaviy tadbirlarning namunaviy psixologik, pedagogik tahlilini o'tkazish		
<b>Ikkinchi hafta</b>			
1	Tarbiyaviy tadbirlarni tahlil qilish sxemasi va amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirish namunalari bilan talabalarni taushitirish		
2	Amaliyotning tarbiyaviy ish rejasi bilan tanishtirish, uning qismlarini tahlil qilish, ayrim qismlari ustasiga berish		
3	Tarbiyaviy ishlar bo'yicha sinov tadbirining mazmunini aniqlash, adabiyotlar to'plashni taklif qilish		
4	«Amaliyotchi burchagi»ning mazmunini aniqlash, muhokama qilish, tayyorlash va chiqarish masalalarini kelishib olish		
5	Maktab o'qituvchilariga amaliy yordam berish dasturini ishlab chiqish va uni maktab ma'muriyati bilan muhokama qilish. Sinf o'quvchilar jamoasini o'rganishning namunaviy dasturini muhokama qilish		
<b>Uchinchi hafta</b>			
1	Ikkinchi hafta davomida yozilgan hujjatlarni tekshirish, ularni yuritish yuzasidan uslubiy maslahatlar berish		
2	Kundalik daftarlarning mazmuniga va yuritilishiga e'tibor qaratish		
3	Hafta davomida darslar, tarbiyaviy soat va mashg'ulotlarga ishtirok etish va ularni tahlil qilishda qatnashish		
4	Dara tahlilining pedagogik, psixologik, uslubiy talablarga javob berilishini yo'lga qo'yish		
5	«Amaliyotchi burchagi»ning mazmuni bilan tanishtirish		

<b>To'rtinchi hafta</b>			
1	Tarbiyaviy tadbirlar o'tkazuvchi talabalarga maslahatlar berish, ularning ssenariylarini tuzishda ko'maklashish		
2	Amaliyotchi-talabalarni ota-onalar bilan suhbat uyushtirish mavzulari bilan tanishtirish		
3	Amaliyotchi-talabalarni darsdan bo'sh vaqtlarida mustaqil ishlashga jalb etish		
4	Bola shaxsini psixologik-pedagogik jihatdan o'rganishning namunaviy dasturi bilan tanishtirish va topshiriqlar berish		
5	Amaliyotchi-talabalar diqqatiga uslubiy ma'ruzalar mavzularini havola qilish va o'z xohishlariga ko'ra muayyan mavzuni tanlab olishni taklif qilish		
6	Pedagogik amaliyotga oid vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilingan materiallar bilan talabalarni tanishtirish, ularni qiziqtirgan savollariga javob berish		
7	Sinov tarbiyaviy tadbirlar jadvalini tayyorlash, ularni o'tkazish sanasini kelishib olish. Kelishilgan sanani talabalarga, sinf rahbarlariga va uslubshunoslarga e'lon qilish		
<b>Beshinchi hafta</b>			
1	Hujjatlar yuritilishini tekshirish, talabalarga maslahatlar berish		
2	Amaliyotchi-talabaning past o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan ishlashini yo'lga qo'yish		
3	Talabalarni tarbiyaviy soatlar va «Ma'naviyat va ma'rifat mashg'ulotlari»ni o'tkazishga jalb qilish, ular tayyorlagan materiallarni ko'zdan kechirish		
4	Darslar va tarbiyaviy tadbirlar tahliliga qatnashish, yutuqlarni qayd etish, kamchiliklarni takrorlamaslik ustida fikr yuritish		
5	Talabalarni ota-onalar bilan ishlashga jalb qilish, tashkil etish, mo'ljallanayotgan ota-onalar yig'ilishlariga faol ishtirok etishini ta'minlash		
6	Sinf rahbarlari bilan suhbatlar o'tkazish, ularga uslubiy yordam ko'rsatish		



7	O'qituvchilar bilan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarini yo'lga qo'yish va ularni tashkil etish uslubiyoti haqida amaliyotchi-talabalarga maslahatlar berish		
<b>Oltinchi hafta</b>			
1	Talabalarining kundalik daftarlaridagi haftalik reja, tayyorlangan tarbiyaviy soatlar, ma'ruza matnlari, konspektlari, senariylarini ko'zdan kechirish, tasdiqlash, amaliy maslahatlar berish		
2	Rejalashtirilgan uslubiy ma'ruzani tinglash, muhokama qilish, zarur bo'lgan tavsiyalarni talabalarining kundaliklarida qayd qildirish		
3	Tarbiyasi qiyin bo'lgan bolalar bilan yakkama-yakka tartibda ishlashni yo'lga qo'yish va bu borada talabalarga amaliy yordam ko'rsatish		
4	«Milliy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati» mavzusida talabalarga va sinf rahbarlariga ma'ruza qilish		
5	Fan o'qituvchilarining uslubiy kengashida talabalarining ishtirok etishini ta'minlash va ularning mustaqil bilim olishlariga uslubiy yordam ko'rsatish		
<b>Yettinchi hafta</b>			
1	Oltinchi hafta davomida bajarilgan ishlar mazmuni va yuritilgan hujjatlarni tekshirish, yutuq va kamchiliklarini qayd etish		
2	Tarbiyaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish sur'asida talabalarga aniq maslahatlar va tavsiyalar berish		
3	Talabalarining haftalik ish rejalarini tasdiqlash		
4	Tayyorlangan tarbiyaviy tadbirlarning konspektlari, senariylarini tasdiqlash		
5	Kinoy tarbiyaviy tadbirlarida ishtirok etish, ularni psixologik, pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish, qatnashgan talabalarining fikrlarini umumlashtirish va baholash		

6	Talabalar diqqatini sinov-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishdagi xato, kamchiliklarga jalb qilish, ularni yo'qotish yo'llari ustida ishlash		
7	Ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan tashkil etilayotgan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarda talabalar ishtirokini nazorat qilish va hisobga olish		
<b>Sakkizinchi hafta</b>			
1	Sinf o'quvchilari mustaqil olib boradigan tarbiyaviy ishlarga pedagogik rahbarlik qilishni ta'minlash		
2	Talabalar tomonidan tanlangan kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzusiga oid materiallarni to'plash, ularni saralash, tahlil qilish, muayyan tizimga solish ishlarida talabalarga uslubiy yordam ko'rsatish		
3	Rejalashtirilgan uslubiy ma'ruzalarni tinglash va muhokama qilish		
4	Sinf rahbarlarining uslubiy seminarlarida talabalarning ishtirokini nazorat qilish va hisobga olish		
<b>To'qqizinchi hafta</b>			
1	To'rtinchi hafta davomida bajarilgan ishlar, hujjatlar yuritilishini tekshirish, ularni rasmiylashtirish borasida maslahatlar berish		
2	Sinf tarbiyaviy tadbirlarini o'tkazishda ishtirok etish, amaliyot tahliliga qatnashish, erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kam-chiliklar to'g'risida fikr almashish		
3	Sinov tarbiyaviy tadbirlarni baholash, qo'yilgan bahoni izohlash		
4	Past o'zlashtiruvchi va tarbiyasi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda olib borilgan ishlarni tahlil qilish, qobiliyatligarga amaliy maslahatlar berish		
5	Otaliq tashkilotlar bilan olib borilgan hamkorlik to'g'risida talabalarning hisobotlarini tinglash		



**O'ninchi hafta**

1 O'quvchilar, o'qituvchilar jamoasi, ota-onalar o'rtasida milliy maktab, tarbiya va pedagogik bilimlarni targ'ib qilish muammosini o'rganish va uni amalga oshirish borasida aniq tadbirlar belgilash

2 Talabalar va sinf rahbarlari uchun «Milliy pedagogikada komil insonni tarbiyalash to'g'rida» degan mavzuda ma'ruza tayyorlash va o'tkazish

3 Ta'lim muassasasi «Kamalak» va «Kamolot» Yotli boshlang'ich tashkilotining faoliyatida talabalar ishtirokini nazorat qilish va hisobga olish. Tadbirlarni kuzatish

4 Rejalashtirilgan uslubiy ma'ruzalarni tinglash va muhokama qilish. Konspektlashtirish

5 Pedagogik amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirish borasida qo'yiladigan talablarni yana bir bor eslatish

**O'n birinchi hafta**

1 Besdinchii hafta davomida bajarilgan ishlar mazmuni va yuritilayotgan hujjatlarni tekshirish

2 Pedagogik amaliyotning oxirgi haftasi uchun rejalashtirilgan tadbirlarni tasdiqlash

3 Rejalashtirilgan uslubiy ma'ruzalarni tinglash va muhokama qilish

4 Sinf rahbarlarining talabalar xususida fikrlarini tinglash va muhokama qilish

**O'n ikkinchi va o'n uchinchi hafta**

1 Hisobot jildiga qo'yiladigan hujjatlar ro'yxati bilan talabalarni tanishtirish

2 Hisobot kunini belgilash va amaliyotchi-talabalarning hisobotlarini qabul qilish

3	Amaliyotchi-talabalar // tomonidan tayyorlangan // albomlar, // devoriy gazetalarning maxsus sonlari, tarbiyaviy tadbirlarning eng yaxshi senariylarini namuna sifatida yig'ib olish va kafedraga topshirish		
4	Amaliyotchi-talabalarning olib borgan tarbiyaviy ishlariga yakun yasash, baholash, u yoki bu malakalarni chuqurlashtirish borasida talabalarga aniq maslahatlar berish		
<b>O'n to'rtinchi hafta</b>			
1	Fakultetda pedagogik amaliyot yakunlariga bag'ishlab o'tkaziladigan konferensiyada ishtirok etish, o'z xulosalari, fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashish, pedagogik amaliyotning samaradorligini oshiruvchi omillar to'g'risida takliflar kiritish.		
2	Pedagogik amaliyot yakunlariga bag'ishlangan shaxsiy hisobot, kuzatish va tahlillar daftarini kafedraga topshirish.		

**Talabaning pedagogik amaliyot davridagi ish rejasi, uning asosiy yo'nalishlari va mazmuni**

No	Rejalashtirilgan ishning asosiy yo'nalishlari	O'tkazilgan tadbirning taxminiy mazmuni	Tadbirning o'tkaziladigan vaqti
1	Ta'lim muassasasi o'qituvchilar jamoasini o'quv-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tashkil etish bilan tanishtirish	1. Pedagogik amaliyotga chiqish munosabati bilan tashkil etilgan uslubiy konferensiyada ishtirok etish, zarur bo'lgan uslubiy topshiriqlarni olish. Biriktirilgan ta'lim muassasasi, uslubshunoslar, amaliyot hujjatlarini yuritish tartibi bilan tanishish. Amaliyot rahbari bilan tanishish	Amaliyotning boshlanishi arafasida



	// //	2. Ta'lim muassasasi direktori, o'rinbosarlari, «Kamalot» va «Kamolot» Yo'riq boshlang'ich tashkiloti yetakchilari bilan uchrashish va tanishish	Amaliyotning dastlabki kunida
	// //	3. Qaysi sinflarga dars berish taqsimotida ishtirok etish, dars jadvali, fan o'qituvchilari bilan tanishish, sinf rahbari sifatida ishlaydigan sinfini aniqlash	Amaliyot jarayonida
	// //	4. Dars beradigan fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari bilan tanishish. Sinf rahbari bilan suhbatlashish, sinf to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni olish	Amaliyotning dastlabki 4 kunida
	// //	5. Biriktirilgan sinfdagi darslarda qatnashish va ularni tahlil qilish, o'qituvchilarning dars berish, vaqtdan unumli foydalanish tajribalarini o'rganish	Amaliyotning dastlabki kunida
	// //	6. Fan o'qituvchilarining tajribasini o'rganish, o'qituvchilik, sinfga rahbarlik faoliyatiga «kirib» borish, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida sinflarda tashkil etilayotgan darslarni, tarbiyaviy ishlarni xolisona tahlil qilishga o'rganish	Amaliyotning dastlabki kunida



	// //	7. Uslubshunoslar bilan birgalikda fan o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan ochiq darslarda ishtirok etish va ularning muhokamasida qatnashish	Amaliyotning dastlabki uchinchi haftasida
	// //	8. Fan o'qituvchilarining o'quv ish rejaları bilan tanishish va o'z sinfiga oid qismlaridan ko'chirmalar tayyorlash. Ish rejasini fan bo'yicha uslubshunosga tasdiqlatish	Amaliyotning haftasi davomida
	// //	9. Sinf faollari bilan tanishish, ular bilan suhbatlashish	Amaliyotning dastlabki kunlarida
	// //	10. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi va sinf qaydnomasi (jurnali) bilan tanishish	Amaliyotning dastlabki kunlarida
	// //	11. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasidan ko'chirma tayyorlash, o'z mutaxassisligi bo'yicha o'tkazilishi kerak bo'lgan mavzularni rejaga kiritishni sinf rahbari, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, pedagogika kafedrasidan belgilangan uslubshunos bilan kelishib olish va tasdiqlatish	Amaliyotning dastlabki haftasining oxirida
	// //	12. Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarni kuzatish, hisobga olish va nazorat qilish	Doimiy



//	//	13. O'quvchilarni dars va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida kuzatib borish, ularning faoliyatiga baho berish va qayd etish	Doimiy
//	//	14. Ta'lim muassasasi va o'quvchilar hujjatlarini o'rganish, ularni yuritish, saqlash qoidalarini qayd etish	Amaliyotning dastlabki 3 haftasida
//	//	15. Ta'lim muassasasi «Kamalak» va «Kamolot» Yo'riq boshlang'ich tashkilotlarining ish rejalari bilan tanishish, o'zi ishtirok etadigan tadbirlarni belgilab qo'yish	Amaliyotning dastlabki haftasida
//	//	16. Psixologik-pedagogik jihatdan o'rganish uchun tanlangan o'quvchi bilan chuqurroq tanishish, uni doimiy kuzatib borish	Amaliyotning dastlabki kunlarida va amaliyot davomida
//	//	17. Sinf rahbari bilan biriktirilgan sinfida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tashkil etish uslublari to'g'risida suhbatlashish. Tarbiyaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish to'g'risida aniq maslahatlar olish	Amaliyotning dastlabki haftasida
//	//	18. Pedagogik amaliyot davrida o'tkaziladigan darslar, tarbiyaviy tadbirlar jadvalini tuzish va ularni uslubshunoslarga tasdiqlatish	Amaliyotning dastlabki haftasida



	// //	19. Pedagogik amaliyotga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlar, qo'llanmalar, tavsiyalar bilan muntazam tanishib borish va zarur bo'lgan ma'lumotlarni kundalik daftarga qayd etish	Amaliyot davomida
	// //	20. Ta'lim muassasasi-ning, sinf rahbarining muassasa hududida olib boradigan tarbiyaviy tadbirlar rejasi bilan tanishish	Amaliyotning davlatki haftasida
	// //	21. Biriktirilgan sinf o'quvchilarining o'zlashtirishi va tartib-intizomini nazorat qilish va hisobga olish	Doimiy
	// //	22. O'z mutaxassisligi bo'yicha fan o'qituvchilaridan, uslubshunoslaridan, shuningdek, pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchilaridan dars va tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini, ta'sir darajasini oshirish xususida muntazam maslahatlar olib turish.	Doimiy
	// //	23. Pedagogik amaliyot hujjatlarini o'z vaqtida talab darajasida to'ldirib borish va uslubshunoslarga tasdiqlatish	Doimiy
	// //	24. Tajriba almashish maqsadida boshqa ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatayotgan o'z kursdoshlarining o'tkazayotgan darslariga va tarbiyaviy tadbirlariga qatnashish va fikr almashish	Belgilangan kunda



//	//	25. Pedagogik amaliyotni o'tishning individual rejasini tuzish va uslubshunoslarga tasdiqlatish	Amaliyotning 1-haftasida
//	//	26. O'tkazilishi kerak bo'lgan sinov darslari va tarbiyaviy tadbirlarning mavzularini aniqlash va uslubshunoslarga tasdiqlatish	Amaliyotning 1-haftasi oxirida
//	//	27. Uslubshunoslardan, fan o'qituvchilaridan, sinf rahbarlaridan muntazam ravishda maslahatlar olish, qilinayotgan ishlari to'g'risida ularga hisobotlar berish	Amaliyot davomida
//	//	28. Amaliyotchi-talabalarining darslarini kuzatish, tahlil qilishda ishtirok etish, do'stlariga xolisona maslahatlar berish	Amaliyot davomida
//	//	29. Mustaqil dars o'tish uchun tayyorgarlik ko'rish, didaktik materiallar yig'ish, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar tayyorlash, uslubiy maslahatlar olish	Belgilangan kunlarda
//	//	30. Mustaqil tarbiyaviy tadbir o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rish, kerakli materiallarni, adabiyotlarni yig'ish, tadbir senariysini yozish, uslubiy ko'rsatma va maslahatlar olish, mehmonlarni taklif qilish	Belgilangan kunlarda

			31. Ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan tashkil etilayotgan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish	Amaliyot mida	davo
			32. Amaliyot rahbariyati, uslubshunoslar, ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan talabalarning bajarayotgan o'quv-tarbiyaviy ishlarining saviyasini oshirish, mazmunan boyitish, uslubiy yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etish va u yerda bildirilgan fikrlarni muntazam qayd etib borish	Amaliyot mida	davo
			33. Dars va tarbiyaviy tadbirlar o'tkaziladigan joylar, jihozlar, o'quv dastgohlarining tayyorlik holatini baholash. Mashg'ulotlarning gigienik talablarga javob beradigan xonalarda o'tishini tashkil qilish	Amaliyot mida	davo
II	Cinf rahbari sifatida o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish.		1. Sinf o'quvchilari mustaqil olib boradigan tarbiyaviy ishlarga pedagogik rahbarlik qilish	Amaliyot mida	davo
			– o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etish (sinf va ta'lim muassasasini ozoda saqlash, ichki tartib-qoidaga rioya qilish, gulxonalardagi va sinf xonalardagi gullarga qarash...)		



//	//	– o‘quvchilarni ijtimoiy foydali mehnat faoliyatiga jalb qilish (ta‘lim muassasasi jihozlarini tayyorlash va ta‘mirlash, qog‘oz, temir-tersak yig‘ish, muassasa hududini obodonlashtirish, xalq hasharlari, shanbalik va yakshanbaliklarda ishtirok etish...) ;	Amaliyot davomida
//	//	– o‘quv yurti binosida va sinf xonasida navbatchilik qilishni yo‘lga qo‘yish;	Belgilangan kunlarda
//	//	– «Kamalak» va «Kamolot» YoIH a‘zolarining yig‘ilishini tashkil qilishda ishtirok etish;	Belgilangan kunlarda
//	//	– «Kamalak» va «Kamolot» YoIH tashkilotlarining faoliyatida ishtirok etish	Amaliyot davomida
//	//	2. O‘zbek xalqining shon-shuhrati – mehnat jasoratini o‘zida aks ettirgan joylarini va me‘morchilik obidalarini ziyorat qilish	Belgilangan kunlarda
//	//	3. Turli mavzularga oid tarbiyaviy tadbirlar (kechalar, uchrashuvlar, munozaralar, mushoiralar, suhbatlar) tayyorlash va o‘tkazish	Amaliyot davomida
//	//	4. Respublikamiz hududida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning ahamiyati to‘g‘risida «Davra suhbatini»ni tashkil qilish	Belgilangan kunlarda



	// //	5. O'quvchilarni chuqurroq bilish, ularning layoqatini, u yoki bu kasbga qiziqishini o'rganish maqsadida kuzatish va anketa so'rovi-ni o'tkazish, so'roq anketa-larini tahlil qilish, olingan natijalar asosida o'quvchi-larga maslahatlar berish, zurr bo'lgan hollarda ularning kelgusi rejalariga o'zgartirishlar kiritish	Amaliyot davomida
	// //	6. Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilar ja-moasiga tayanish, ularning yosh va individual xusu-siyatlarini hisobga olish. Ommaviy, guruhiy va yak-ka tartibdagi ish shakllar-ini chambarchas bog'lab olib borish.	Amaliyot davomida
	// //	7. O'quvchilar, o'qituv-chilar jamoasida, ota-onalar orasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish.	Amaliyot davomida
	// //	8. «Pedagogik hamkorlik»-ka keng yo'l ochish va un-ing g'oyalarini targ'ib qilish	Amaliyot davomida
III	Sinfdan tashqari olib bori-ladigan ishlar	1. Sinfdan tashqari olib boriladigan ta'limiy-tarbi-yaviy ishlarda ishtirok etish	Amaliyot davomida
	// //	2. Ta'lim muassasasida va undan tashqari tarbi-ya muassasalarida faoli-yat ko'rsatayotgan fan to'garaklari, klublar, tad-qiqotxonalarda ishtirok etayotgan o'quvchilarning ishlari bilan tanishish va ularga ko'mak berish	Amaliyot davomida



// _____ //	3. Mustaqil ravishda sinfdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlar (kecha, munozara, mushoira, uchrashuv, sayohat...) senariylarini tayyorlash va o'tkazish	Amaliyot davomida
// _____ //	4. Sinfda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan maxsus jadval asosida yakka tartibda ishlash	Belgilangan kunlarda
// _____ //	5. Tarbiyasi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, ularning tartib-intizomi, o'zlashtirishini alohida nazorat qilib hisobga olish	Belgilangan kunlarda
// _____ //	6. Fan xonasini jihozlash ishida ishtirok etish. Ko'rgazmalarni esdalik uchun topshirish	Doimiy
// _____ //	7. O'quvchilar bilan birgalikda otaliq tashkilotlariga borish, ularga yordam ko'rsatish	Amaliyot davomida
// _____ //	8. Ta'lim muassasasi hududida obodonlashtirish, hashar, ko'kalamzorlashtirish ishlarida o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlash	Belgilangan kunlarda
V Ota-onalar bilan ishlash	1. O'quvchilarning otasonasi, oilaviy ahvoli, yashash sharoitlari bilan yaqindan tanishish maqsadida ularning uylariga borish	Amaliyot davomida

	// //	2. Ota-onalarga bolalarni to'g'ri tarbiyalash borasida uslubiy yordam ko'rsatish, ota-onalar uchun tavsiyalar tayyorlashda qatnashish	Amaliyot davomida
	// //	3. Milliy tarbiyaning dolzarb muammolariga bag'ishlangan mavzularda ota-onalar uchun suhbat va ma'ruzalar uyushtirish	Amaliyot davomida
	// //	4. Sinfda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda ota-onalar ishtirokini ta'minlash va ularning ko'magiga suyanish	Amaliyot davomida
	// //	5. Sinf ota-onalar qo'mitasi ishida ishtirok etish	Amaliyot davomida
	// //	6. Sinf ota-onalar yig'ilishini tayyorlash va o'tkazishda faol qatnashish. Muhokama qilinayotgan masala bo'yicha o'z fikrini bayon qilish, ota-onalarni qiziqtirgan savollariga javob berish	Belgilangan kunlarda
V	Uslubiy va tadqiqot ishlari-da qatnashish.	1. Sinf rahbarlari uslubiy seminarlarida ishtirok etish va ma'ruza qilish	Belgilangan kunda
	// //	2. Fan o'qituvchilarining uslubiy kengashlarining ishida faol ishtirok etish va ma'ruza bilan chiqish	Belgilangan kunda
	// //	3. Pedagogika va psixologiya kafedrasi uslubshunoslari tomonidan tashkil etilgan ilmiy-uslubiy seminar ishida ishtirok etish va tanlangan mavzu bo'yicha ma'ruza tayyorlash	Belgilangan kunda



	// //	4. Fan o'qituvchilari, sinf rahbarlarining ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish, tahlil qilish va o'z faoliyatiga joriy qilish uslublari ustida ishlash	Amaliyot davomida
	// //	5. Tanlangan kurs va diplom ishlari mavzusiga oid materiallarni to'plash, farazlarni amalda sinab ko'rish	Amaliyot davomida

### **Pedagogik amaliyot bo'yicha talaba kafedraga topshiradigan hujjatlarning ro'yxati**

1. Amaliyot davrida talabalarning qilgan ishlari bo'yicha hisoboti.
2. Talabaning amaliyot bo'yicha shaxsiy rejasi.
3. O'tilgan sinov dars ishlanma (konspekt) lari, ma'ruza matnlari va ular uchun tayyorlangan ko'rgazmali qurollar.
4. O'tkazilgan sinov tarbiyaviy tadbirlarining konsnektlari va senariylari.
5. O'zi ishtirok etgan darslarning, tarbiyaviy tadbirlardan bir nechasi-ning pedagogik-psixologik va uslubiy tahlili.
6. Talabaning o'z fani bo'yicha tuzgan o'quv ish rejasi.
7. Sinf rahbari sifatida tarbiyaviy ishlar bo'yicha tuzilgan reja.
8. Pedagogik talablar asosida yuritilgan kundalik daftar.
9. Bir o'quvchi shaxsiga va sinf jamoasiga yozilgan psixologik-pedagogik tavsifnoma.
10. Pedagogikaning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ma'ruza matni.
11. Amaliyot o'tgan ta'lim muassasasi ma'muriyatining talabaga bergan tavsiyanomasi.

*Amaliyotchi talabaning dars tahlili namunasi.*  
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

**Dars tahlili**

Darsning baholanishi: \_\_\_\_\_

Amaliyotchi talaba: \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ )

Darsni tahlil qiluvchining F. I. SH.: \_\_\_\_\_

Dars o'tilgan joy: \_\_\_\_\_ maktab № \_\_\_\_\_ sinf № \_\_\_\_\_

Amaliyotchi talabaning F. I. SH. \_\_\_\_\_

Fakulteti \_\_\_\_\_ yo'nalishi \_\_\_\_\_

kurs \_\_\_\_\_, guruh \_\_\_\_\_

O'tiladigan fanning nomi: \_\_\_\_\_

Dars mavzusi \_\_\_\_\_

Dars maqsadi: \_\_\_\_\_

Darsni jihozlashtirish \_\_\_\_\_

**Darsning borishi**



## Darsga tavsifnoma berish

(g'oyaviy, siyosiy-nazariy, metodik va tashkiliy jihatdan)

No	Dars yutuqlari	Kamchiliklari
1		
2		

## Darsni qo'yilgan talablar bo'yicha baholash

No	Darsga qo'yilgan talablar	Maks. ball	To'plan-gan ball
1	Darsga maqsadning qo'yilishi	3	
2	O'quvchilar diqqatini bir nuqtaga to'plashi	3	
3	Uy ishini tekshirish usullari	5	
4	O'qilgan darsda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi	7	
5	O'quvchilarning bilimlarini aniqlash usullari	3	
6	O'quvchilar bilimni o'zlashtirishi uchun aniq maqsadli jarayon hosil qilishi	7	
7	Darsni bayon qilish usullari	10	
8	Darsda ko'rsatmali qurollardan foydalanishi	7	
9	O'quvchilarning mustaqil fikrlashlari	7	
10	Yakka va guruh usulida ishlashi	8	
11	Darsda keyingi o'tiladigan darsga zamin yaratish	5	
12	Kasbga yo'llash	3	
13	Rag'batlantirishga e'tibori	5	
14	Darsda kitob bilan ishlashga o'rgatish	4	
15	Darsda qo'yilgan ballarning izohlanishi va darsni mustahkamlash ishi	5	
16	Uy vazifasini berishi	3	
17	Darsning tarbiyaviy ahamiyati	5	
18	Dars bosqichlarida vaziyatdan unumli foydalanishi	8	
JAMI:		100	

### Xulosa va takliflar

\_\_\_\_\_ (imzo) (Familiyasi, ismi va sharifi)

Darsni tahlil qiluvchi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (imzo) (Familiya, ismi va sharifi)

Darsning tahlilida qatnashganlar: 1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

## **Kurs ishlari, BMi tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar**

Oliy ta'lim tizimida, ayniqsa, texnik va texnologik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bitiruvchilarida moddiy ishlab chiqarishdagi ilmiy texnik masalalarning yechimini topishga imkon beruvchi chuqur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda kurs loyihalarining ahamiyati kattadir. Kurs loyihagini bajarish jarayonida talaba egallagan nazariy bilimlari va mavjud me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib amaliy masalalarni mustaqil ravishda yechish hamda o'z g'oya va yechimlarini jamoada himoya qilish ko'nikmasini egallaydi.

**Kurs loyihagini bajarishdan maqsad** o'quv rejasida ko'zda tutilgan muayyan fan bo'yicha ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarda olingan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, umumlashtirish va ushbu bilimlarini konkret muhandislik masalasini mukammal yechishda qo'llashdir.

Kurs loyihalari tizimi orqali talaba murakkabroq muhandislik masalasini – malakaviy bitiruv ishini bajarishga tayyorlanadi. Shu bilan bir qatorda kurs loyihasi talabada davlat standartlari, soha me'yorlari, ma'lumotnomalar, narxnomalar, jadvallar, nomogrammalar, namunaviy loyihalar, yo'riqnomalar va muqaddam egallangan tajribalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, kurs loyihasi talabalarda hisob-kitoblarni bajarish, texnik-iqtisodiy yechimlarining chizmalarini tuzish, tushuntirish hisobotlarini rasmiylashtirish ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Kurs loyihasing asosiy vazifalari:

- talabalarning ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarda, mustaqil faoliyatda olingan nazariy va amaliy ko'nikmalarni amaliy loyihalarni bajarishda qo'llay olishini namoyish etish;
- talabalarda me'yoriy, ma'lumotnoma va boshqa adabiyotlardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish;
- mustaqil fikrlash va eng maqbul texnik yechimlarni qabul qilishga o'rgatish;
- axborot texnologiyalari vositasida o'z loyihasing taqdimot (himoya) ni o'tkazish, unda kurs loyihagini bajarish jarayonida egallangan natijalarni ishonchli dalillar bilan asoslash, o'zini dadil tuta olish, turli texnik vositalar va ularning dasturlaridan foydalana olish qobiliyatini ko'rsatish;



- o'quv jarayonida shakllangan kommunikativ ko'nikmalarini namoyish etish, o'z nuqtai nazarini himoya qila olish va murosaga kelish, mu-loqotga qo'shilish, loyiha bo'yicha savollarga asoslangan javob berish, e'tika qoidalariga rioya qilgan holda baxslashish, muzokaralar va davra suhbatlarida qatnashish imkoniyatini namoyish etish;

- talabalarda guruh bilan ishlash ko'nikmalarini faollashtirish, oldin-ga qo'yilgan maqsadni bajarish bo'yicha tashabbus ko'rsatish qobiliyatini kengaytirish, umumiy masalalarni yechishda hamkorlar bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash;

- loyihalarni tayyorlash, g'oyalarni generatsiya qilish va qarorlarni qa-bul qilishning nostandart usullarini topishni namoyish etish;

- mustaqil ijodiy ishlash, ma'lumotlarni izlash, yig'ish, qayta ishlash va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalardan foy-dalana olish, loyihalash jarayonini to'la nihoyasiga yetkazish mas'uliyati-ni his etishga o'rgatish.

**Kurs loyihasida** quyidagi masalalar yechimi ko'rsatilishi lozim: Ba-jarilayotgan loyihaning maqsadi va vazifalarini aniq ifoda etish, loyiha obyektini va uslubini aniqlash, boshlang'ich hisoblash ko'rsatkichlari-ni asoslash, loyihalananayotgan obyektning asosiy qismlarini qo'lda yoki kompyuter dasturlari yordamida hisob-kitobini bajarish, loyihalananayot-gan obyektning chizmalarini qo'lda yoki kompyuter dasturlari yordami-da chizish, qabul qilingan texnik yechimlarini ilmiy iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish, texnik iqtisodiy talablarni izohlash, qo'yilgan masala yuzasidan yechimning mumkin bo'lgan muqobillarini tahlil qilish va ulardan eng maqbulini tanlash.

**Kurs loyihasining mavzulari.** Kurs loyihasini bajarishda muhim ma-salalardan biri uning mavzusini to'g'ri aniqlashdir.

Kurs loyihasining mavzulari mazkur fanning o'quv vazifasiga javob berishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish va ilm-fanning dolzarb muam-molari bilan bog'liq bo'lishi lozim. Kurs loyihalari mavzularining amaliyligi - bu avvalambor ularning ilmiyligi, zamonaviyligi va tala-balarda mustaqil ijodiy muhandislik ishiga ko'nikmani shakllantirishga yo'naltirilganligidir. Kurs loyihasining har bir topshirig'ida texnik va texnologik yangilik qo'llanishi ko'zda tuzilishi shart. Topshiriqlarning takroriyligi, yildan-yilga bir xil mavzularning takrorlanishi kurs loyiha-larining ham o'quv, ham muhandislik ahamiyatini kamaytiradi. Kurs loyihasining topshiriqlari shaxsiylashtirilgan bo'lib, umumiy talablar pa-

saytirilmagan holda talabaning qiziqishi va qobiliyatlari bilan bog'langan bo'lishi lozim.

Kurs loyihalarining mazmuni sifatida ta'lim yo'nalishi va fan turidan kelib chiqib bino, inshootlar, muhandislik kommunikatsiyalari mashina, apparatlar va stanoklarning konstruksiyalari yechimlarini ishlab chiqish hamda zaruriy hisob-kitoblar va chizmalarini rasmiylashtirish olinishi mumkin.

Kurs loyihasining mavzusiga bo'lgan asosiy talablardan biri bu uning yaxlit majmualari bo'lishidir, ya'ni bir qator o'zaro bog'liq bo'lgan masalalarni birgalikda yechishga bag'ishlanganligidir.

Kurs loyihalari mavzularining tarkibi sanoat va boshqa korxonalarining amaliy masalalari, talabalar malakaviy amaliyotlarining natijalari, kafedra a'zolari va talabalar to'garaklarining ilmiy ishlari, xorijiy va mamlakatdagi ilm-fan va texnika yutuqlarini aks ettirgan adabiyotlar asosida tuzilishi lozim.

Yuqori kurslarda talabalarga kurs loyihalarining mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun to'lov kontrakt mablag'ini to'lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan kurs loyihalari mavzusi bo'yicha o'z vazifalarini taklif etishlari mumkin. Korxonalar buyurtmasi asosida bajariladigan kurs loyihalarning afzalligi shundan iboratki, korxonalar talabalarga ilmiy izlanish olib borishiga to'liq sharoit yaratadi hamda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga muallif tomonidan tavsiya etilayotgan takliflarni ishlab chiqarishga joriy etishga barcha shart-sharoitlar yaratadi va ilmiy izlanishlar natijasidan manfaatdor bo'ladi.

Bitiruv kursida bajariladigan kurs loyihalari bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan bog'langan bo'lishi, loyiha malakaviy (bitiruv oldi) amaliyotida qo'llangan ma'lumotlar asosida bajarilishi lozim.

Kurs loyihalarining mavzulari o'quv rejalarida kurs loyihalari ko'zda tutilgan fanlar bo'yicha darslar olib boruvchi kafedralar tomonidan taqdim etiladi va tasdiqlanadi.

Loyihani bajarish uchun asosiy yo'riqnoma va ma'lumotlar kafedra tomonidan rasmiylashtiriladigan kurs loyihasining topshirig'ida aks ettiriladi.

Topshiriqda loyihaning nomi, uning hajmini va mazmunini aniqlovchi tafsilotlar yaqqol belgilanishi lozim. Shu bilan birga topshiriqda lo-



Yilning hisob-chizma qismini bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlar, chizmalar soni va ko'rinishi belgilanishi muhimdir.

Har bir topshiriq ilmiy va uslubiy jihatdan sinchkovlik bilan o'ylab chiqilgan bo'lib, talabning tayyorgarlik darajasiga va loyihani bajarish uchun ajratilgan vaqtga muvofiq kelishi lozim.

Topshiriq maxsus blankalarda (1-ilova) rasmiylashtirilishi va yo'riqnoma va boshlang'ich ma'lumotlar bilan ta'minlanishi lozim. Yo'riqnoma va boshlang'ich ma'lumotlar zarur bo'lgan tahliliy baholash va taxlilsiz ko'chirib olish va foydalanishning oldini olish maqsadida juda ham batafsil bo'lishi kerak emas.

**Kurs loyihalarining tarkibiy tuzilishi.** Kurs loyihasi chizma qismi va hisob-tushuntirish xatidan tashkil topishi lozim (arxitekturaviy loyiha, asosan, grafik ijrodan iborat bo'ladi, grafik ijroga yozma tushuntirish qismi hajm jihatdan chegaralanmagan holda beriladi).

Chizmalar davlat standarti talablariga muvofiq bajarilishi shart. Ular aniq, ravshan va ixcham bo'lishi lozim. Umumiy ko'rinish, tugunlar va detallarning barcha chizmalari zarur bo'lgan proyeksiyalar soniga ega bo'lishi shart.

Chizmalar zarur bo'lgan o'lchamlar, shartli belgilar va maxsus ro'y-xat bilan, odatda, qalamda yoki maxsus komputer dasturlari yordamida bajariladi. Ishchi chizmalarda texnologik xaritalarni tuzish va detallarni yasash, qurilish ishlarini bajarish, jihozlar va uskunalarni yig'ish uchun zarur bo'lgan barcha o'lchamlar, shartli belgilar va ko'rsatmalar keltirilgan bo'lishi shart. Yig'uv va detallashtirish chizmalarida loyihalana-yotgan qurilma va inshootni ishlatish bo'yicha texnik shartlar, tushuntirishlar, yo'riqnomalar va boshqa zarur bo'lgan ma'lumotlar keltirilishi lozim. Tushuntirish xatining matni texnik jihatdan to'g'ri, qisqa va ixcham bo'lishi lozim.

Tushuntirish xati loyihalangan inshoot, agregat, konstruksiya va shularning asosnomasini o'z ichiga olishi shart.

Barcha kurs loyihalarida loyihalana-yotgan obyektga nisbatan xavfsizlik qoidasi talablari hisobga olinishi shart.

**Kurs loyihasini tashkillashtirish va boshqarish.** Kurs loyihasiga rahbarlik qilish, odatda, tegishli kafedralarning yetakchi, ishlab chiqarish va ilmiy tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali professor-o'qituvchilariga topshiriladi.

Kurs loyihalarida qo'yilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqarish talablari bilan uzviylashtirish maqsadida, shuningdek, OTM va korxonalarining loyihalash borasida o'zaro tajriba almashish maqsadida, kurs loyihasiga rahbarlik uchun ishlab chiqarishda bevosita ishlayotgan mutaxassislar jalb etilishi maqsadga muvofiqdir.

Kurs loyihasi rejalashtirilgan har bir kafedra tomonidan kurs loyihasini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan bo'lishi shart. Uslubiy qo'llanmalarda loyiha vazifalari, boshlang'ich ma'lumotlar, loyihaning taxminiy hajmi, tushuntirish xati va alohida qismlarining mazmuni, chizmalar soni, tavsifi va masshtabi hamda loyihani bajarish tartibi yetarli darajada aniq izohlangan bo'lishi kerak.

Kurs loyihasiga rahbarlik loyihaga topshiriq berishdan boshlanadi. Loyiha topshirig'ini berishda asosiy bosqichlarni bajarish vaqtlari ko'rsatilgan grafik tavsiya qilinadi. Kurs loyihalarini taqdim etish muddatlari OTM rahbariyati tomonidan mazkur yo'nalish o'quv rejasiga mos holda belgilanadi.

Loyiha topshirig'i loyiha rahbari imzosi bilan beriladi, kafedra jurnalida berilgan kun sanasi qayd qilinadi.

Kurs loyihasining ahamiyati, unga qo'yiladigan talablar, hisob-grafik qismining tarkibi va loyihani rasmiylashtirish, topshiriqni bajarish bo'yicha umumiy topshiriqlar, uning hajmiga bo'lgan talablar haqidagi ma'lumotlar mazkur fan bo'yicha kirish ma'ruzasi o'qilganda tushuntiriladi.

Kurs loyihasi, zaruriy uslubiy qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, standartlar, soha me'yorlari va loyiha namunalari bilan ta'minlangan maxsus kurs loyihasi xonasida bajariladi.

Kurs loyihasi bajarish uchun talabaning mustaqil ishi sifatida vaqt ajratiladi va jadvalda ko'rsatilgan vaqtlarda o'qituvchi maslahati tashkil etiladi. Kurs loyihasi rahbari talaba loyihani bajarishi jarayonida uning ijodiy bilimini rivojlantirishga harakat qilishi kerak.

Kurs loyihasini bajarish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, birinchi bosqichni bajargandan so'ng keyingi bosqichni bajarishga ruxsat etiladi.

Talabalar tomonidan kurs loyihasining bajarilish jarayoni kafedra mudiri tomonidan muntazam ravishda nazorat qilinib, kafedra majlislari-da muhokama etib boriladi.



Kurs loyihasi chizmalari va tushuntirish xati talaba tomonidan imzolandi. Qo'yilgan talablarga javob beruvchi kurs loyihasi rahbar tomonidan imzolandi va hay'atda himoya qilish uchun tavsiya etiladi.

**Kurs loyihasining himoyasi.** Kurs loyihasining sifati va uni bajarishdagi talabning faolligi, bilim va ko'nikmalarini baholashning o'ziga xos shakllaridan biri loyiha himoyasidir. Bajarilgan ishni chuqur tushunishi, taklif etilgan muhandislik yechimlarini har tomonlama asoslab berishi qobiliyatini shakllantirishda kurs loyihasining himoyasi muhim o'rin tutadi. Kurs loyihasi himoyasi kafedra tomonidan belgilangan 2-3 o'qituvchidan tashkil topgan hay'atda, kurs loyihasi rahbari va guruh talabalari qatnashuvida tashkil qilinadi. Ochiq, himoya guruh talabalariga shu guruh a'zolari tomonidan bajarilgan ishlar bilan tanishishiga imkoniyat berishi bilan bir vaqtda, loyiha rahbarlarini himoya qiliniyotgan loyihalarga bir xil talab bilan yondashishga olib keladi.

Himoya talaba tomonidan bajarilgan kurs loyihasi bo'yicha 8 – 10 minutli ma'ruza va savol-javobdan iborat bo'ladi. Ma'ruzada loyiha ning mohiyatini talaba har tomonlama yoritib berishi kerak. Savollar himoyada qatnashayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan beriladi.

Kurs loyihasi 100 ballik tizimda baholanadi. O'rnatilgan grafik bo'yicha bajarilgan va talablar bo'yicha sifatli rasmiylashtirilgan kurs loyihasini eng ko'pi bilan 40 ball, himoya vaqtidagi ma'ruza uchun 30 ball va berilgan savollarga javoblarga 30 ball ajratiladi.

Himoya vaqtida qaydnoma ikki nusxada to'ldiriladi. Qaydnomalardan biri kafedrada, ikkinchisi dekanatda saqlanadi. Kurs loyihasini bajarishi va himoya qilish natijasida 55 o'tish ballini to'plagan talabani reyting daftarchasiga loyiha rahbari tomonidan reyting balli qo'yiladi.

Topshiriqda ko'rsatilgan muddatda kurs loyihasini himoyaga taqdim etmagan va sababsiz loyiha himoyasiga kelmagan talaba akademik qarz-dor hisoblanadi. Akademik guruh talabalari kurs loyihalari himoyasi yakunlangandan so'ng loyihalash jarayonida yo'l qo'yilgan turdosh kamchiliklar, eng yaxshi hamda sifatsiz loyihalar rahbar tomonidan tahlil qilinib subbat o'tkaziladi. Amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lgan kurs loyihalari talabalar ilmiy jamiyati (TIJ) tanlovlariga taqdim etiladi va rektorning bo'yruqi bilan rag'batlantiriladi va ishlab chiqarishga joriy etish uchun taqdim etilishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishi (keyinchalik BMI) ning bajarilishi va himoya qilinishi oliy ta'lim tizimida bakalavr tayyorlashning muhim bosqichi hi-**

soblanadi. Chunki BMI orqali unga mutasaddi kafedra nafaqat talabani, balki o'zini va o'zining o'qituvchilarini baholaydi. Shu bilan birgalikda talabani tanlagan sohasi bo'yicha qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lganligini aniqlash imkonini beradi.

BMI – alohida o'quv fanlari bo'yicha egallangan nazariy va amaliy tayyorgarlik yakunini aks ettiruvchi, talaba tomonidan bajarilgan o'quv-tadqiqotchilik ishlanmasi bo'lib hisoblanadi.

BMI ni bajarish o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va keyinchalik yanada chuqurlashtirish maqsadida madaniy-tarixiy va zamonaviy-ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar, xorijiy mamlakatlar va vatanimizda to'plangan tajribalardan foydalanishni taqozo etadi.

BMI ni yozishda talaba bitta majburiy o'quv materialini bo'yicha bilimi yetarli emasligini anglay olishi lozim va shuning uchun mavzu bo'yicha keng doiradagi umumiy va maxsus adabiyotlar bilan tanishishi, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi, unga mos xulosalar chiqara olishi va tavsiyalar berishi lozim. BMI da muammolarni tadqiq etish jarayonida talabalarning ilmiy izlanuvchanlik faoliyatini mustaqil amalga oshirish, nazariy va amaliy materiallarni tahlil etish va umumlashtirishga, dalillangan xulosalar qilishga, ishlanayotgan mavzu bo'yicha o'z xulosalarini kiritishga qobiliyatligi namoyon bo'ladi. BMI ni bajarishda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanishi lozim.

BMI ni bajarish quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

– ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash;

– ijodiy ishlash, hal etilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish;

– zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlashdan iborat.

Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari ta'lim yo'nalishlarida bitiruv malakaviy ishi uning shakllaridan biri bo'lgan diplom loyihasi sifatida tayyorlanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-apreldagi «Loyiha-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-847-sonli qaroriga mu-



yoʻliq ishlab chiqilgan va Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi va Davlat arxitektura va qurilish qoʻmitasining 2008-yil 31-iyuldagi 16/226-sonli qoʻshma qarori bilan tasdiqlangan «Oliy taʼlim muassasalarida diplom loyihasini tayyorlash va himoya qilish tartibi toʻgʻrisida» gi Nizomga asosan bajariladi.

BMI ni bajarish jarayonida talabalar quyidagi koʻnikmalarni egallaydilar:

- fanlar boʻyicha bibliografik koʻrsatkichlardan foydalanish;
- mavzu (muammo) boʻyicha adabiyotlarning muayyan minimumidan foydalanish va kerakli maʼlumotlarni qayd etish;
- zamonaviy adabiyotlarda oʻrganilayotgan muammoning aks etish holatini tahlil etish asosida uning mavjud holatini aniq bayon etish;
- oʻrganilayotgan muammo boʻyicha mavjud tajribalarni toʻplash, tahlil etish va umumlashtirish;
- tajriba-sinov ishlarini bajarish, olingan empirik maʼlumotlarni qayta tahlil, tizimlashtirish, interpretatsiyalash va xulosalar qilish;
- INTERNET dan kerakli maʼlumotlar izlash.

BMI ni bajarish quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi: 1) mavzuni tanlash; 2) kerakli materialni qidirish, toʻplash (yigʻish) va tizimlashtirish; 3) maketni loyihalash va reja tuzish; 4) tadqiqot oʻtkazish; 5) yozma matn yaratish; 6) ishni rasmiylashtirish; 7) himoya.

Ushbu uslubiy koʻrsatma esa talabalarga va BMI ilmiy rahbarlariga quyidagi savollar boʻyicha javob qidirishga koʻmaklashadi, degan umid-damiz.

- 1) BMI mavzusini qanday tanlash kerak?
- 2) BMI rahbari talabaga qanday koʻrsatmalar berishi mumkin?
- 3) BMI mavzusini qanday asoslash mumkin?
- 4) BMI tuzilmasi qanday boʻlishi lozim?
- 5) BMI asosiy xarakteristikalarini qanday aniqlash mumkin?
- 6) BMI mavzusiga oid tayanch tushunchalar bilan qanday ishlash kerak?
- 7) BMI matnini qanday rasmiylashtirish kerak?
- 8) BMI ni muhokamaga qanday taqdim etish kerak?

#### **BMI tayyorlash boʻyicha metodologik hujjatlar.**

1. «Taʼlim toʻgʻrisida» gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. 1997-yil 29-avgust.

2. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. 1997-yil 29-avgust.

3. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qarori.

4. Oliy ta'lim to'g'risidagi qoida va me'yoriy hujjatlar.

5. O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida Nizom. Oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarilishiga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining «Me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 1998-yil 31-dekabrda 362-sonli buyrug'i.

6. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2002-yil 21-fevraldagi 54-sonli buyrug'i.

7. Oliy ta'limning bakalavriat bosqichining yangi tahrirdagi namu-naviy o'quv rejasi bilan ta'minlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2004-yil 16-avgustdagi 199-sonli buyrug'i.

8. Talaba mustaqil ishini tashkil etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005-yil 21-fevraldagi 34-sonli buyrug'i.

9. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2.05.2008-yildagi 120-sonli «Bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari sifatini oshirish va himoyasini tashkil etish haqida»gi buyrug'i.

**Bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan Davlat standartlari talablari.**

1. BMI da bakalavr tugallangan kasbiy vazifalarni hal qiladi va bunda o'quv rejasidagi barcha blok fanlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlardan foydalaniladi.

2. O'rganilayotgan masalaning holati va tarixini tahlil qiladi.

3. Ilmiy-nazariy, ilmiy-texnik, ilmiy-metodik masalani aniqlab oladi, uning yechilishidagi bir necha variantlarni ko'zda tutadi va ular orasidan eng ma'qul variantini tanlaydi.

4. Xulosani shakllantiradi va hal qilingan masala natijalari bo'yicha tavsiyalar beradi va tegishli fan sohasida qo'llanishi imkoniyatlarini aniqlaydi.

5. BMI ning mavzulari zamonaviy fan yutuqlari va texnologiyasini hisobga olgan holda oliy ta'lim muassasasining mutaxassis tayyorlovchi kafedralari tomonidan tuziladi.



6. BMI mavzulari ilmiy-nazariy, ilmiy-texnik va ilmiy-metodik yo'nalishlarga qaratilgan bo'lishi mumkin.

7. BMI ning mavzusi bo'yicha vazifalar (BMI topshiriqlari) odatda talabaga uchinchi kursni bitirish chog'ida beriladi. Ish umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining o'rganilish darajasiga ko'ra to'rtinchi kurs davomida ishlab boriladi va ushbu standartda ko'zda tutilgan BMI ga ajratilgan vaqt davomida bajariladi.

8. BMI ning hajmi tegishli mutaxassislik kafedralari tomonidan belgilab beriladi.

**Bitiruv malakaviy ishlarining mavzusi.** Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak, bitiruv malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasi yoki fakultetning Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda har o'quv yili boshida qayta ko'rib chiqiladi, bitiruv malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi, talabalarga (reytinglari bo'yicha kamayish tartibida) bitiruv malakaviy ishlarining mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun to'lov-kontrakt mablag'ini to'layotgan buyurtmachi zaruriy asoslar bilan bitiruv malakaviy ishlar mavzusi bo'yicha o'z variantlarini taklif etishlari mumkin, bitiruv malakaviy ish mavzusi va rahbari talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning bo'yrug'i bilan rasmiylashtiriladi, ish rahbari, bitiruv malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga bitiruv malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o'tkazish davrida ham) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli oliy ta'lim muassasaning o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq bitiruv malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

**Bitiruv malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish.** Bitiruv malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliy ta'lim muassasasining professor va dotsentlari yoki ilmiy xodimlari, boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi, bitiruv malakaviy ish rahbari:

– topshiriq beradi;

– bitiruv malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;

- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu
- bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan bitiruv malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki boshqa manbalardan aynan ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi, bitiruv malakaviy ish rahbari-ning taklifiga binoan, kafedra bitiruv malakaviy ishga rahbarlik qilish-ga ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha konsultantlarni taklif etishi mumkin, bitiruv malakaviy ishning bo'lim-lari bo'yicha konsultant (maslahatchi) lar etib, oliy ta'lim muassasasin-ing professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassisleri tayinlanishi mumkin. Konsultantlar talaba bajargan ishning muvofiq qismini tekshiradi, tegishli ko'rsatmalar beradi, mutaxassis chiqaruvchi kafedra bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talablar hajmini belgilagan holda bitiruv malakaviy ishni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqadi va ular bilan talabalarni ta'minlaydi, bitiruv malakaviy ish berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi, bitiruv malakaviy ishning har bir bo'limi muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Bitiruv malakaviy ishda ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki bosh-qa mualliflarning (ilmiy ma'ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari, kurs ishlari va loyihalari, albatta, nomlari ko'rsatilgan holda) ishlari tah-liliy-qiyosiy ma'lumotlar sifatida aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin. Tushuntirish qismi bitiruv malakaviy ishning mazmunini qis-qa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismga grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxema va boshqalar, shuningdek, zaruriy qo'shimcha axborot yozilgan elektron shakldagi ma'lumotlar ilova etilishi mumkin, bitiruv malakaviy ishlarning tarkibi-ga bitiruv malakaviy ishning mavzusi, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda elektron shakldagi taqdimot materiallari kiritilishi mum-kin, tushuntirish qismi kamida 10 – 15 ming so'z hajmida belgilanadi. Chizmalarning formati, shartli belgilari, shrift va masshtablari amaldagi standart talablarga qat'iy muvofiq kelishi zarur, odatda, chizmalar A-2 formatli qog'ozda (5 – 6 varaq hajmida) qalamda bajariladi yoki texnika vositalari orqali tayyorlanib, ekranda elektron doskada ko'rsatiladi. Arx-itektura yo'nalishidagi chizmalarga qo'yiladigan talablar ularga muvofiq



keluvchi o'quv-uslubiy birlashmalar (assotsiatsiyalar) tomonidan belgilanadi, kafedraning tavsiyasiga binoan bitiruv malakaviy ish chet tillarning birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi.** Bitiruv malakaviy ish oliy ta'lim muassasasining, odatda, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, bitiruv malakaviy ish korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin. Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabanning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba bitiruv malakaviy ishining bajarilish holati haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri bitiruv malakaviy ishning tayyorlik darajasini belgilaydi. Shu maqsadda kafedrada har bir bitiruvchi kesimida bitiruv malakaviy ishlarning bajarilish monitoringi tashkil etilib, uning bajarilish holati rahbarning haftalik hisobotlari asosida foizlarda aniqlab boriladi, talaba – ish muallifi, tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, bitiruv malakaviy ishda ko'chirmachilik holatining yo'qligiga javob beradi, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish bosqichlarida belgilangan muddatlardan kechikish holari aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar kafedra mudiri tomonidan belgilanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilmasi.** BMI quyidagi tuzilmaga ega bo'lishi kerak: titul varaq, mundarija, kirish, asosiy qism (bo'lim, bob, paragraflar), xulosa va takliflar, adabiyotlar.

Titul varag'i BMI ning birinchi sahifasi bo'lib unda quyidagilar o'z aksini topishi kerak: tegishli vazirlik va oliy o'quv yurti, BMI bajarilgan kafedra nomi (12 shriftda), BMI ni bajargan talabanning ismi va sharifi (12 shriftda), BMI ni bajargan talaba tahsil olgan yo'nalish va guruh nomi (12 shriftda), oliy o'quv yurti joylashgan shahar nomi (16 shriftda), BMI bajarilgan yil (16 shriftda), BMI mavzusining nomi (16 shriftda).

Bundan tashqari titul varaqda ilmiy rahbarning ismi va sharifi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, himoyasi sanasi va himoyada qo'yilgan baho ham 12 shriftda o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Titul varag'idan so'ng mundarija joylashtiriladi. Namuna 1-ilovada keltirilgan.

Mundarija -- BMI ning bob va paragraflarining nomi, ular joylashgan

sahifalar ko'rsatilgan ro'yxatdir. BMI ning boblari va paragraflari nomlarini qisqartirib yozish yoki ularni asosiy matndagidan boshqacha tartibda yoki boshqacha talqinda yozish mumkin emas (namuna 5-ildovada keltirilgan), BMI ning kirish qismida mavzuning dolzarbligini asoslash, mavzu bo'yicha e'lon qilingan ilmiy, ilmiy-metodik ishlar, shu jumladan mavzuga yaqin bo'lgan va avval bajarilgan BMI lari tahlili, tajriba-sinov ishlarining texnik vositalari, joyi, BMI ni bajarishdan maqsad va vazifalar, BMI ning obyekti va manbalari, BMI da tadqiq qilinadigan masalalar va uning tarkibi, BMI ni bajarish bilan kutiladigan o'quv-uslubiy, ilmiy-uslubiy natijalar, BMI ning amaliy ahamiyati va boshqa ma'lumotlar keltiriladi. Kirish qismi ishning 10 % ini tashkil etishi kerak, BMI ning asosiy qismi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- qabul qilingan farazga asosan nazariy tadqiqotlar;
- tajriba qismi (yoki ko'rilayotgan masalaning nazariy modeli) ;
- olingan natijalar;
- olingan natijalar muhokamasi (tahlili).

Tabiiy fanlarning ko'p sohalarida tajriba qismidan keyin olingan natijalar va ularning muhokamasini bir vaqtda keltirish maqsadga muvofiqdir. Shunda materiallar takrorlanmaydi.

Tajriba qismida BMI ning muallifi tadqiqot obyektiga tasnif berishi, tadqiqot usulini, zarur kattaliklarni hisoblash uslubini, matematik tenglamalarning yechimini hamda bajarilgan barcha ishlarni to'liq yoritib berishi kerak.

Tadqiqot obyekti qismida funksiyalar, masalalar, tadqiqot obyektining sohasi, texnik-iqtisodiy, fizik-kimyoviy (zarur bo'lganda) va tadqiqot obyektining boshqa tavsiflari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi.

*Tadqiqot usullari.* Tajriba qismida tadqiqot usullari to'liq bayon qilinadi. Agar ko'pchilikka ma'lum va umumiy qabul qilingan usullardan foydalanilgan bo'lsa, u holda adabiyot manbasi ko'rsatilishi shart. Agar ishlash usuli foydalanish uchun topish qiyin bo'lgan adabiyotlarda chop qilingan bo'lsa, u holda bu usullarni to'laroq bayon qilish kerak.

Zarur bo'lganda ishda foydalanilgan asbob va qurilmalarning nomi, turi, qaysi davlatda tayyorlanganligi ko'rsatilishi zarur. Agar BMI da boshqa shaxs tomonidan olingan ma'lumotlardan foydalanilgan bo'lsa, tegishli ishga ko'rsatma berish kerak (ayrim hollarda foydalanilgan asbobning nomi va rusumi ko'rsatiladi).



Olingan natijalar va ularning tahlili ayrim boblarga ajratilib yoki ajratilmay yozilishi mumkin.

Bu bo'limda tajriba ma'lumotlari jumaldagi ilmiy maqolaga nisbatan to'laroq yozilishi kerak. Ushbu bo'lim muallif tanlagan shaklda yoziladi va ma'lum bir standart bilan cheklanmaydi.

Tajriba qismini yozishga talaba diqqat bilan yondoshishi zarur, ortiqcha so'zlar va uzun jumalarni ishlatmasligi kerak. Tushuncha va qoidalarni aniq ifodalash tavsiya etiladi, o'z fikrini qisqa jumalar bilan aniq bayon etish zarur. Tajriba natijalari jadval va grafik shaklda keltiriladi. Jadvalda tajribaning har bir bosqichida olingan natijalar aks ettirilishi kerak. O'tkazilgan tajribaning matematik hisoblari natijalarini ham keltirish foydadan holi bo'lmaydi, xulosa va takliflar qismida olingan natijalar qisqacha umumlashtiriladi. Xulosalar asosga ega bo'lishi kerak, ular chuqur va har tomonlama tekshirilgan ma'lumotlar yakuni bo'lishi lozim. Ularda BMI ning nazariy va amaliy ahamiyati aks ettiriladi. Har bir xulosa tartibli raqamlanishi va ularning soni ko'p bo'lmasligi zarur. Bu qism ishning umumiy hajmining 10 – 15 % ini tashkil etishi kerak.

*Eslatma:* Umuman o'quvchi BMI ning «Kirish» va «Xulosa» qismlari bilan tanishib chiqqanda ishning maqsadi va erishilgan natijalar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi lozim, adabiyotlar ro'yxatida faqat BMI da foydalanilgan manbalar kiritiladi. Ro'yxat esa bibliografik talab va qoidalariga mos holda tuziladi, foydalanilgan manbalar – adabiyotlar va bibliografiya ro'yxatlarini ifodalashda quyidagi qoidalariga rioya etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'yicha:

– **kitoblar uchun:** muallifning familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari (nuqta), kitobning to'liq nomi (nuqta), shahar (nuqta), nashriyoti (vergul), chop etilgan yili (vergul), beti (nuqta). Misol:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1 – jild. T.: Fan, 1968, 216-bet.

– **jurnal maqolalari uchun:** muallifning familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari (nuqta), maqolaning to'liq nomi (nuqta tire), jurnalning nomi (qo'shtirnoqsiz) qabul qilingan qisqartirishlar bilan (vergul), yil (vergul), tartib raqami (vergul), betlar yoziladi. Misol:

1. Saidqosimov A. Siyosiy faollik va fuqarolik mas'uliyati. – Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2007, № 2, 50 – 51-betlar.

– **dissertatsiya uchun:** muallifning familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari (nuqta), ishning nomi, qanday ilmiy daraja berilgan (nuqta), shahar (vergul), yil (vergul), betlar soni.

1. Pardayev M. H. Shimoli-g'arbiy Ustrushona ilk o'rta asrlarda (Quyil Sangzor vohasi materiallari asosida), Diss. tarix fanlari nomzodi, Samarqand, 1995, 114 b.

– **avtoreferatlar uchun:**

1. Esanov M. H. «Avesto» jamiyatining arxeologik materiallarda aks etishi (Qadimgi Baqtriya va Marg'iyonaning bronza davri moddiy madaniyat yodgorliklari misolida). Diss. avtoreferati. tarix fanlari nomzodi, Toshkent, 2007, 26 b.

– **patent hujjatlar uchun:**

1. Mualliflik guvohnomasi. Masalan: A. S. 146587, Yangi polimerlar olish usullari. Ashirova R., Ahmedov T. Opubl. BI. 1999, № 6.

2. Patentlar: O'zR potenti № 94560058. 1. 26. 04. 06. Kukunli sellyuloza olish usuli. Nabiyev V. S., Darkanyan S. A., Karimov S. S., Azimova K. A., Turaqulova A. A.

*Bibliografik ro'yxat.* Bibliografik ro'yxat bibliografiya apparatining elementi bo'lib, foydalanilgan manbalarning bibliografik ifodasini o'z ichiga oladi va muqaddimadan keyin keltiriladi. Bunday ro'yxat BMI ning asosiy qismlaridan birini tashkil etadi va muallifning mustaqil ijodiy ishini aks ettiradi hamda o'tkazilgan tadqiqotlarning ilmiylik darajasi haqida hukm qilish imkoniyatini beradi.

Bibliografik ro'yxatni to'g'ridan-to'g'ri matbuot nashriyotlari tuzadi yoki kataloglardan va bibliografik ko'rsatkichlardan qisqartirishsiz, biror bir elementni qoldirmaydi, to'liqligicha ko'chirib olinadi. Shuning uchun ma'lumotlarni qayta tekshirishga va qolgan ma'lumotlarni kiritishga hojat qolmaydi.

BMI ishlarida bibliografik ro'yxatga asosiy matnda ko'rsatilmagan va amalda talaba tomonidan foydalanilmagan manbalar kiritilmaydi. Bibliografik ro'yxatning har biri uchun quyidagilar ko'rsatiladi: ro'yxatda keltirilgan kitobning tartib raqami, monografiyaning nomi, me'yoriy ma'lumotnomalar, tasarrufdagi adabiyotlar, zavod hujjatlari va h. k., nashr etilgan joyi, nashriyot nomi, nashr etilgan yili, betning tartib raqami.

Monografiyalardan tashqari bu bo'limda muallif amaldagi qonunlarni, Nizomlarni, davlat tashkilotlari qarorlarini hamda davriy nashrlarning tartib raqami, gazeta yoki jurnallarning nashr etilgan oyi, yili, undagi maqolalarning nomi va muallifi ko'rsatilgan holda keltirilishi mumkin.



– BMI ning ilova qismida ishlab chiqilgan o‘quv, didaktik va boshqa materiallar, elektron talqini bo‘yicha ishlab chiqilgan disklar keltiriladi.

– BMI matni qo‘yilgan muammoni asoslash, tafsilotlar, isbot, izoh, munozara tarzlarida yoziladi.

– Masalani isbotlash, uning amaliy ahamiyatini ko‘rsatishda jadvallar, rasmlar, turli diagrammalar va boshqa axborotlarni keltirib borish mumkin.

– Ijodiy yo‘nalishdagi BMI lari (tasviriy san‘at, musiqa, muhandislik grafikasi) bo‘yicha talablar Nizomga qo‘shimcha ravishda ishlab chiqiladi.

**Rasmiylashtirish tartibi.** BMI matni komputerdan Microsoft Word ning 14 shriftida, 1,5 intervalda, A – 4 formatli standart oq qog‘ozning bir tomonida yozilgan bo‘lishi kerak. BMI matni 50 – 100 betni tashkil etishi kerak. BMI betlarida matnning chap tomoni 30 mm, o‘ng tomonidan 15 mm, yuqori va quyi tomonlaridan 20 mm bo‘sh joy bo‘lishi kerak. BMI ning barcha betlari, oxirgi betigacha tartib bilan raqamlanadi. Birinchi beti titul varag‘i hisoblanib, unga raqam qo‘yilmaydi, keyingi betga «2» qo‘yiladi va hokazo.

Tartib raqami betning yuqori tomonining o‘rtasiga qo‘yiladi. Ushbu qoida ishning barcha asosiy tuzilmaviy qismlari: kirish qismi, asosiy qism, xulosalari, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalariga tegishli. Boblar nomlanishi bosh harflar bilan yoziladi. Boblar ichidagi nomlanish xat boshidan kichik harflar bilan yoziladi. Sarlavhalarni yozishda bo‘g‘in ko‘chirishga ruhsat berilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta qo‘yilmaydi. Sarlavha va matn orasida 3 – 4 interval bo‘lishi tavsiya etiladi. Kirish va xulosa qismlari raqamlanmaydi. Shrift tanlashda sarlavhalar uchun Times New Roman yoki Arial dan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘zbek tilidagi BMI lar lotin alifbosida bo‘lishi shart. Matn qisqa, aniq va ravon yozilishi, foydalanilgan adabiyotlar to‘liq ko‘rsatilishi kerak.

BMI ning boblari, boblar ichida paragraflari arab raqamlari bilan belgilanadi. Kirish va xulosa qismlari raqamlanmaydi.

Paragraflar raqami nuqta bilan ajratilgan: bob va paragraf (2. 3) raqamlashdan iborat. Paragraf raqami oxirida nuqta qo‘yiladi, BMI matnidagi formulalar puxta va aniq, alohida satrda yozilgan bo‘lishi shart. Katta va kichik harflar, yuqori va pastki indekslar formulada aniq berilishi kerak.

BMI matni va ilovadagi jadvallar, chizmalar, sxemalar, diagrammalar, grafiklar, fotosuratlar o‘lchami A – 4 formatli standart varaqda bajarilishi kerak.

Foto va rasmlarga izohlar hamda yozuvlar o'qish uchun qulay joyda joylashtirilishi lozim. Illyustratsiya (surat) lar ko'rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak. Suratlar nomlangan bo'lishi kerak. Barcha suratlar (grafik, chizma, diagramma, fotosurat) lar «rasm» so'zi va bo'lim bo'yicha ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Ilovalardagi suratlar bundan mustasno. Surat raqami bo'lim va surat raqamidan iborat bo'lib, nuqta bilan ajratiladi. Misol uchun: «1. 2-rasm».

Raqamli materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiq. Har bir jadval sarlavhaga ega bo'lishi shart. Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi. Ko'plab grafalarga ega bo'lgan jadvalni qismlarga bo'lish va bir qismini ikkinchi qismidan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi.

Boblar doirasidagi jadvallar izchil ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Jadval raqami bob raqami bilan jadval tartib raqamidan tashkil topadi va ular bir-biridan nuqta bilan ajratiladi. Misol uchun: «1. 3-jadval».

Agar BMI da bitta jadval bo'lsa, u raqamlanmaydi va «jadval» so'zi yoziladi. BMI ning matnidagi havolalarning manbaning «foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati» bo'yicha tartib raqamini kvadrat qavslarda ko'rsatish yoki satr osti eslatmalari keltirilishi lozim.

Illyustratsiyalarga qilingan ilovalar suratning tartib raqami bilan ko'rsatiladi, misol uchun: «1. 2-rasm», formulalarga qilingan havolalar formulaning qavs ichidagi tartib raqami bilan ko'rsatiladi, misol uchun: «... (3. 3) formulada».

BMI dagi har bir ilova yangi betning o'ng burchagida «Ilova» so'zi bilan boshlanadi.

Agar BMI da ilova ko'p bo'lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Misol uchun: «1-ilova», «2-ilova» va hokazo.

**BMI ning o'quv metodik yo'naltirilganligi va unga nisbatan qo'yiladigan talablar.** BMI talaba uchun o'quv jarayonining yakuni bo'lib hisoblanadi. Bitiruv bosqichida talaba o'quv dasturiga ko'ra mustaqil ravishda xalq ta'limi, xalq xo'jaligi oldiga qo'yilgan masalalarni hal etishga doir nazariy va eksperimental izlanish ishlarini o'tkazadi. O'tkazilgan izlanish ishlarining natijalari asosida BMI yoziladi.

BMI sifati va saviyasi muallifning tanlangan sohasi bo'yicha yaxshi tayyorlanganligi, keng va chuqur bilimga egaligini, shu sohaning nazariyasi va uslubiyotini yaxshi egallaganini ko'rsatishi kerak.



BMI izlanish natijalarini o'z ichiga olganiga qaramay mustaqil xulosalarga ega bo'lishi shart.

BMI ning tuzilishi va tarkibiy qismlari muayyan talablarga javob beradigan bo'lishi kerak.

**BMI ning bajarilish jarayoni jadvali.** BMI ning mavzusi, rahbarlar III kurs 6-semestrda tanlanadi va kafedra tavsiyasi bilan fakultet Ilmiy kengashining iyun oyidagi majlisida ma'qullangandan so'ng rektor buyrug'iga tasdiq uchun (avgust oyi oxirida) kiritiladi. Dekanat talaba va rahbarga buyruq ko'chirmasini taqdim qiladi. BMI ni bajarish va uning hisobotida 3 bosqich joriy etiladi: *1-bosqich* – BMI ning kengaytirilgan rejasini himoya qilish, *2-bosqich* – BMI ning bajarilishi to'g'risida kafedra majlisida yoki ilmiy-uslubiy seminarda 2 marta axborot berish, *3-bosqich* – tugallangan BMI ni tegishli kafedra ilmiy-uslubiy seminarlarida muhokamadan o'tkazish. Tegishli kafedra BMI ning bosqichlari jadvali bo'yicha talabaning axborotlari va ishning yakunlanishi jadvalini kafedra yig'ilishi rejalari kiritadi va bosqichlar bo'yicha vazifalar kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib boriladi. Har bir yig'ilish qarori BMI hujjatlari ro'yxatiga tikiladi.

**BMI ni rejalashtiradigan kafedraning majburiyatlari:**

– BMI rahbarlarini (rektor buyrug'i uchun) aniqlaydi va taklif beradi;  
– talabaning so'roviga ko'ra konsultantlarni rasmiylashtirish uchun taklif beradi;

– BMI larini bajarish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyanomalar ishlab chiqadi. Bunda BMI ning sohasi bo'yicha hajmini belgilaydi (10 – 15 ming so'zdan chiqib ketmagan holda), foydalaniladigan majburiy adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqadi;

– BMI ning nazorat bosqichlarida uni muhokama qilib boradi;

– BMI ni shaxsan talabaning o'zi bajarayotganligini nazorat qiladi;

– BMI ni bajarish nihoyasida ish rahbarining taqrizi, tashqi taqrizlar asosida uni mukammal muhokama qiladi va himoyaga tavsiya etish yoki tavsiya etmaslik bo'yicha qaror qabul qiladi;

– BMI ning himoyasini zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari yordamida prezentatsiya (taqdimot) shaklida tashkil etadi. Har bir BMI bo'yicha slaydlar soni kamida 5 ta bo'lishi kerak;

– Yakuniy davlat attestatsiyasi Hay'ati (YaDAH) xulosasiga ko'ra yuqori saviyada bajarilgan BMI larning mualliflarini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash.

**BMI ni bajaruvchi talaba tahsil olayotgan fakultet dekanining majburiyatlari:**

– BMI ning talaba tomonidan mustaqil bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

– BMI lar bo'yicha kafedralar tomonidan ishlab chiqilgan maslahat (konsultatsiya) jadvallari bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi;

– BMI ni bajaruvchilar tomonidan belgilangan muddatlarda kafedralarga hisobot berib borilishini nazorat qiladi (3-ilova).

**Yakuniy davlat attestatsiya hay'ati tarkibi.** Yakuniy davlat attestatsiyasi Hay'ati (YaDAH) raisi va uning a'zolari «O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining Yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom» asosida shakllantiriladi. YaDAH raisi oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining tavsiyasi asosida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. YaDAH raisi boshqa oliy ta'lim muassasalari, buyurtmachi tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot institutlari hamda o'quv-metodik markazlardan tanlanadi. U, odatda, fan doktori, professor ilmiy daraja va unvoniga ega bo'ladi. YaDAH tarkibi (uning raisi bilan birgalikda) oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan shakllantiriladi. Uning tarkibiga buyurtmachi tashkilotlar va boshqa oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlaridan mutaxassislar kiritilishi mumkin. Bunda oliy ta'lim muassasalaridan jalb qilingan a'zolar 50 % dan ortiq bo'lmasligi lozim. YaDAH tarkibi, odatda 5 – 7 a'zodan iborat bo'ladi.

YaDAH raisi BMI lari himoyasi oldidan quyidagi hujjatlarni fakultet dekanatidan qabul qilib oladi:

– BMI lari mavzulari va rahbarlarining tasdiqlanishi to'g'risidagi buyruq ko'chirmasi;

– talabaning Yakuniy Davlat Attestatsiyasiga qo'yilganligi to'g'risidagi buyruq ko'chirmasi;

– BMI larni himoya qilish jadvali (rektor yoki prorektor tasdiqlagan holda);

– jadval bo'yicha BMI ni himoya qiluvchi talabalar ro'yxati;

– BMI ni baholash mezonlari.

**Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish.** Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ish (komputerda bajarilgan holda uning elektron varianti bilan birga) talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar bitiruv malakaviy ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch



bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va bitiruv malakaviy ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, bitiruv malakaviy ishni talaba tomonidan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasida himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi, bitiruv malakaviy ishlar himoyasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot (prezentatsiya) shaklida tashkil etiladi, bitiruv malakaviy ishlar mavzusi, mazmun-mohiyati va xususiyatlariga muvofiq ularning himoyasini tashkil etish va o'tkazishning boshqa shakllari oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashi tomonidan o'rnatilishi mumkin, arxiv, axborot-resurs markazi va kafedralarda saqlanayotgan yoki internet resurslaridan foydalanib aynan ko'chirib olinganligi rasmiy himoyagacha aniqlanib tasdig'ini topgan bitiruv malakaviy ishlari kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor bo'yrug'i bilan bekor qilinadi va bitiruvchiga qoniqarsiz baho qo'yilib, ish rahbari keyingi uch yil davomida bitiruv malakaviy ishlarga rahbar etib tayinlanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti  
umumiy tarix kafedrası

«Himoya qilishga ruxsat beraman»

Tarix fakulteti dekani

dots. G'oziyev S. H.

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2014-y.

**5110600 – tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
bakalavr darajasini olish uchun**

\_\_\_\_\_ mavzusida bajarilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajaruvchi: \_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_

Ishni himoyaga tavsiya etaman \_\_\_\_\_

(ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

BMI \_\_\_\_\_ kafedrası yig'ilishi-  
ning qarori bilan (Qaror № 6, 12. 05. 2014-y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

\_\_\_\_\_ (Ismi va sharifi) (imzo)

**Jizzax - 2014**



**O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi**  
**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti**

Fakultet \_\_\_\_\_  
yo'nalish \_\_\_\_\_

«Tasdiqlayman»

Kafedra mudiri

\_\_\_\_\_ dots. Amanlayev A.

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2014-y.

**BAKALAVRNING BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA**  
**TOPSHIRIQ**

\_\_\_\_\_ ism va sharif

1. Ish mavzusi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ 2014-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ dagi buyruq bilan tas-  
diqlangan.

1. Ishni himoyaga topshirish muddati \_\_\_\_\_

2. Ishga oid dastlabki ma'lumotlar \_\_\_\_\_

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining mazmuni (hal etiladigan  
masalalar ro'yxati) \_\_\_\_\_

5. Grafik materiallar ro'yxati (lozim bo'lgan chizmalar ko'rsatmasi  
bilan) \_\_\_\_\_

6. Topshiriq berilgan sana \_\_\_\_\_

Rahbar \_\_\_\_\_

(ismi, sharifi)

(imzo)

Topshiriq oldim \_\_\_\_\_

(ismi, sharifi)

(imzo)





Himoya muddati \_\_\_\_\_

Talaba \_\_\_\_\_  
(FISH) \_\_\_\_\_ (imzo)

Rahbar \_\_\_\_\_  
(FISH) \_\_\_\_\_ (imzo)

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_  
(FISH) \_\_\_\_\_ (imzo)

O'quv-metodik kengashning \_\_\_\_\_ bayonnomasi asosida institut  
Ilmiy kengashida tasdiqlangan.

## JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

fakulteti \_\_\_\_\_  
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi \_\_\_\_\_ ning  
(FISH) \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ mavzusidagi bitiruv malakaviy ish haqida YaDAH ning

## XULOSASI

1) BMI ning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor tabiiy yo'nalishlar – 50 betdan, ijtimoiy yo'nalishlar – 70 betdan kam bo'lmasligi kerak) : talabga javob beradi – 10 ball, talabga qisman javob beradi – 7 ball, talabdan chetga chiqish holatlari mavjud – 4 ball.

2) Mavzuning davlat va institut grant loyihalari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi: davlat dasturiga kirgan – 8 ball, grant loyihasi bo'yicha – 7 ball, institut dasturi bo'yicha – 6 ball, dolzarb muammolar bo'yicha – 5 ball.

3) Mavzu dolzarbligining asoslanganligi: yetarli darajada asoslangan – 5 ball, yetarli darajada asoslanmagan – 3 ball, noaniq – 2 ball.

4) Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi: aniq – 7 ball, to'liq aniq emas – 5 ball, aniq emas – 3 ball.

5) BMI ni bajarishda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi: to'la – 7 ball, qisman – 5 ball, yetarli emas – 3 ball.

6) Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi: natija yangi – 8 ball, ilgari olingan – 6 ball, to'la ishonchli emas – 3 ball.

7) BMI ning xulosa qismida ishlab chiqarishga tavsiyalar berilganligi: bevosita ishlab chiqarishga tavsiyasi bor – 6 ball, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...) tavsiya qilingan – 5 ball, tavsiya yo'q – 3 ball.

8) Bitiruvchining mavzu bo'yicha olgan natijalarining tanqidiy baholananglik darajasi: aniq – 8 ball, to'la aniq emas – 6 ball, tanqidiy baholanmagan – 4 ball.

9) Ishning ilmiylik xarakteri: ilmiy tadqiqotlar asosida – 8 ball, aralash shaklda – 5 ball, referativ xarakterda – 3 ball.

10) Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi: ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan – 8 ball, ilmiy adabiyotlardan kam foydalanilgan – 6 ball, faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanmalari va ma'lumotnomalardangina foydalangan – 4 ball.

11) Bitiruvchining ma'ruzasiga baho: a'lo – 10 ball, yaxshi – 7 ball, qoniqarli – 6 ball.

12) Berilgan savollarga javoblari: to'liq – 8 ball, o'rta – 6 ball, qoniqarli – 4 ball.



13) BMI ning tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi: a'lo – 7 ball, yasahi – 6 ball, qoniqarli – 5 ball.

14) BMI ga qo'yilgan yakuniy ball \_\_\_\_\_ ball.

Hahosi \_\_\_\_\_.

*Eslatma:* Har bir band bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

**Yadavi rasi:** \_\_\_\_\_  
(FISH) (Imzo)

**A'zolari:** \_\_\_\_\_  
(FISH) (Imzo)

\_\_\_\_\_  
(FISH) (Imzo)

\_\_\_\_\_  
(FISH) (Imzo)

\_\_\_\_\_  
(FISH) (Imzo)

\_\_\_\_\_  
(FISH) (Imzo)

\_\_\_\_\_  
(FISH) (Imzo)

\_\_\_\_\_  
(FISH) (Imzo)

Muhr o'rni, sana « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 201\_\_ y.

## **TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISHNING REYTING TIZIMI**

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi bosqichma-bosqich turli nazorat shakllari bo'yicha aniqlik, xolislik, haqqoniylik, ishonchlik va qulay shaklda ochiq baholashni ta'minlashga asoslangan. «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida nizom»da talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning bir-birini to'ldiruvchi 3 ta turi tavsiya etilgan. Ular JN – joriy nazorat, ON – oraliq nazorat, YaN – yakuniy nazorat. JN va ON lar soni, shakli ularni o'tkazish muddatlari muayyan fan dasturi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fan o'qituvchisi tomonidan belgilanadi. YaN semestr uchun ajratilgan soatlar to'liq o'tilib, ishchi dasturda belgilangan barcha tadbirlar bajarilgandan keyin, semestr oxirida amalga oshiriladi. Fan bo'yicha nazorat shakllarini o'tkazish tartibi, muddatlari va mezonlari fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan reyting nazorat jadvali kafedra yig'ilishida muhokama qilinib, kafedra mudiri tavsiyasi bilan institut (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Fan bo'yicha semestr boshidagi birinchi darsda bu jadval baholash mezonlari bilan birga talabalarga taqdim etiladi. Tarqatma material talabalarga semestr davomida mazkur fan bo'yicha to'plagan ballari orqali o'zining bilim darajasini nazorat qilish imkonini beradi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda, nazorat shaklidan qat'iy nazar, ba'zi umumiy qoidalarga rioya qilinadi.

Har bir fan o'qituvchisi tasdiqlangan yo'riqnoma asosida fan dasturi va xususiyatidan kelib chiqqan holda, JN va ON lar (ON larning soni bir semestrda ikki martadan oshmasligi kerak) soni ularni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan reyting jadvallari va baholash mezonlarini ishlab chiqadi. Har bir baholash shakli tasdiqlangan reyting nazoratlari jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda va belgilangan ko'rinishda o'tkazilishi ta'minlanishi kerak. Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 % i saralash ball hisoblanib, ushbu saralash ballini to'plamagan talabalar YaN ga kiritilmaydi. JN va ON turlari bo'yicha 55 va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha YaN ga kirmasligiga yo'l qo'yiladi. Talaba semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari saralash balidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida JN, ON va YaN turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor hisoblanadi.



Akademik qarzdor talabalarga semestr tugagandan so'ng (bahorgi semestr natijalari bo'yicha esa, talabalarning yozgi ta'tili hamda professor-o'qituvchilarning mehnat ta'tilidan so'ng) qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning bo'yrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba bilimni nazorat qilish jarayonida quyidagilar inobatga olinadi: talaba tomonidan berilgan topshiriqning to'liq bajarilganligi, topshiriq javoblarining to'g'riligi, ilmiyligi, olingan natijalarning xatolardan xoliligini, olingan natijalardan chiqarilgan xulosalarning ilmiy asoslanganligi, turli xil xatolardan xolislik, berilgan javoblarda mustaqil shakllangan ijodiy fikrlarning mavjudligi.

**Nazorat turlari.** JN – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli bo'lib, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. ON – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. YaN – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. YaN, asosan, semestr oxirida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «Yozma ish» (kafedra, fakultet yoki institut o'quv-uslubiy kengashi tavsiyasi bilan test) shaklida o'tkaziladi.

### **Baholash mezonlari**

**Joriy nazorat turida baholash mezonlari.** Amaliy mashg'ulotlardagi baholash jarayonida quyidagilar inobatga olinadi: mustaqil nazariy tayyorgarlik darajasi, amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarish jarayonida nazariy bilimlarni to'g'ri qo'llay bilganligi (kerakli formula, qonuniyatlar to'g'ri ishlatilganligi).

*Izoh:* // amaliy // mashg'ulotlarni // baholash jarayonida // muayyan mashg'ulotga ajratilgan mustaqil ish hisobga olinadi.

Laboratoriya ishini baholashda quyidagilar inobatga olinadi: mustaqil nazariy tayyorgarlik darajasi (konspekt, og'zaki savol-javob), ishni bajarishdan maqsad va bajarish tartibini bilishi, ishni bajarish jarayonida

olingan natijalar asosida hisoblashlarning to'g'ri amalga oshirilganligi, olingan natijalarni tahlil qilish orqali chiqarilgan xulosalarning ilmiyligi.

*Izoh:* laboratoriya mashg'ulotlarini baholash jarayonida muayyan mashg'ulotga ajratilgan mustaqil ish hisobga olinadi.

Seminar mashg'ulotlarini baholash jarayonida quyidagilar inobatga olinadi: seminar mavzusi doirasida ko'rsatilgan savollar bo'yicha konspektning mavjudligi, mashg'ulotga tayyorgarlik jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanganligi, tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (darslik, davriy matbuot, internet manbalari) foydalanganmi, seminar rejasida qo'yilgan savollarga javoblarning aniq ilmiy asoslanganligi, har bir savol bo'yicha xulosalarning to'g'riligi.

*Izoh:* Muayyan seminar mashg'ulotlarni baholash jarayonida seminar ga ajratilgan mustaqil ish soatlari hisobga olinadi.

**Oraliq nazorat turida baholash mezonlari.** Fanning ON uchun belgilangan bo'limi yoki qismi bo'yicha nazariy bilimlarni to'la o'zlashtirganlik darajasi, olingan nazariy bilimlarni qo'llay bilish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi, qo'yilgan savollarga berilgan javoblarning ilmiy asoslanganligi, o'tilgan mavzular bo'yicha mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etganligi, tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari, boshqa davriy matbuot, va h. k. manbalardan foydalanilganlik.

**Talaba mustaqil ishini** baholash quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Joriy nazorat turi orqali: laboratoriya mashg'ulotlarida – muayyan laboratoriya ishining nazariy asosini qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash orqali; amaliy mashg'ulotlarda – muayyan mashg'ulotga tegishli mavzu (mavzular) bo'yicha nazariy bilimlarni to'g'ri bilishi va qo'llay bilishini aniqlash orqali, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasini aniqlash orqali.

2. Oraliq nazorat turi ko'rinishida: semestr oxirida mustaqil ish mazmunini to'la qamrab oluvchi savollar (testlar) majmuasi asosida oraliq nazorat orqali.

**Kurs ishi (referat).** Kurs ishini (referat) baholashda quyidagilar inobatga olinadi: mavzu dolzarbligining ochib berilganligi, mavzuda ko'rsatilgan masalalarning to'la ochib berilganligi, ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda eng samarador usullardan foydalanilganligi, chiqarilgan xulosalarning ilmiy asoslanganligi.

*Izoh:* Kurs ishini baholash uchun maksimal ball 100 ball qilib belgilanadi.



**Pedagogik amaliyot** jarayonini baholashda quyidagilar inobatga olinadi: amaliyot davrida belgilangan tadbirlarni barchasida qatnashganligi, amaliyot rejasida belgilangan topshiriqlarning hammasi bajarilganligi, kuzatilgan darslarning tahlil etilganligi, o'zi o'tishi lozim bo'lgan dars mavzulari bo'yicha tayyorgarlik darajasi (dars rejasini, dars o'tish xronometeorologik jadvali, mavzu bo'yicha konspektlarning mavjudligi), o'tilgan dars sifati, dars sifatini oshirish bo'yicha taklif va mulohazalar kiritilishi, pedagogik amaliyot bo'yicha hisobot sifati, uning kafedradagi himoyasi.

*Izoh:* Pedagogik amaliyot uchun maksimal ball 100 ball qilib belgilanadi.

**Malakaviy amaliyot** jarayonini baholashda quyidagilar inobatga olinadi: Malakaviy amaliyotning kurslar bo'yicha taqsimoti va belgilangan topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilganligi, belgilangan topshiriqlarni bajarish jarayonida olingan nazariy bilimlarni qo'llanganlik darajasi, belgilangan topshiriqlarni bajarish, olingan natijalarni tahlil qilishda eng muvofiq usullarni tanlab qo'llanganligi, malakaviy amaliyot bo'yicha xulosalarning ilmiy asoslanganligi, malakaviy amaliyot sifatini oshirish bo'yicha takliflar tavsiya etilganligi.

*Izoh:* Malakaviy amaliyot uchun maksimal ball 100 ball qilib belgilanadi.

Nazorat shaklidan qat'iy nazar baholash jarayonida ballar tizimi qo'llanilib 86 – 100 ball (a'lo), 75 – 86 ball (yaxshi), 55 – 70 ball (qoniqarli) 0 – 54 ball (qoniqarsiz) baholar darajasi tavsiya etiladi.

**86 – 100 ball (a'lo) baholash bo'yicha talablar:**

1. Fan dasturi, mavzu yoki bo'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni to'liq o'zlashtirganligi;
2. Berilgan topshiriqlarni belgilangan vaqtda aniq, to'liq va to'g'ri bajarilganligi;
3. Berilgan vazifani mustaqil ravishda bajarish iqtidorini namoyon etilganligi;
4. Amaliy mashg'ulotlarda bexato natijalar olinib, qo'lga kiritilgan natijalardan to'g'ri xulosa chiqarilganligi;
5. Matematik qayta ishlash usullarini mukammal bilishligi;
6. Berilgan topshiriqlar hisobotini to'g'ri va puxta shakllantirilganligi;
7. Seminar mavzularining maqsad va mazmunining atroflicha yoritilganligi;

8. Matnlar bayonida ilmiylik va mantiqiylik saqlanib ilmiy xatolik va mantiqiy xatoliklarga yo'l qo'yilmaganligi;

9. Berilgan mavzu doirasida mustaqil fikrlash qobiliyatining namoyon etilganligi;

10. Fan yoki mavzular materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega ekanligi.

**71 – 85 ball (yaxshi) baholash bo'yicha talablar:**

1. Fan bo'yicha mashg'ulotlar mavzularining maqsad va mazmunini to'g'ri tushinib yetganligi;

2. Berilgan topshiriqlarning nazariy va amaliy ahamiyatini tushunganligi;

3. Mashg'ulot vositalaridan to'g'ri foydalanishni bilish;

4. Olingan natijalarni matematik qayta ishlashni bilish;

5. Mavzu materialining amaliy ahamiyatini tushunganlik;

6. Berilgan topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarilganligi;

7. Amaliy mashg'ulotlar (laboratoriya ishlari) yuzasidan hisobotlarni shakllantira olganligi;

8. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha konspektning puxta shakllantirilganligi.

**55 – 70 ball (qoniqarli) baholash bo'yicha talablar:**

1. Fanning mavzulari va topshiriqlarning maqsad va mazmuni haqida umumiy tasavvurga egalik;

2. Mashg'ulotlar jarayonida asbob-uskunalardan mustaqil foydalanish mahoratiga ega bo'lmay, chetdan bo'ladigan har xil yordamlarga muhtojlikning mavjudligi;

3. Berilgan topshiriqlar bo'yicha natijalarni mustaqil qayta ishlab chiqish ko'nikmasiga ega emaslik;

4. Topshiriqlar bo'yicha hisobotlarda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yganlik;

5. Tayyorlangan matnlarning puxta shakllantirilmaganligi;

6. Matnlar bayonida masalalar tor doirada yoritilib, ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilganlik.

**0 – 54 ball (qoniqarsiz) baholash bo'yicha talablar:**

1. Fanning mavzulari va topshiriqlarining maqsad va mazmuni haqida yuzaki tasavvurga ega;

2. Topshiriqlar hajmining 50 foizi atrofidagi qismi bajarilmagan holda;



3. Topshiriqlar bo'yicha olingan natijalarda qo'pol xatoliklarning mavjudligi;

4. Qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurlarda noaniqlikka yo'l qo'yilganda;

5. Hisobotlar bayonida orfografik va grammatik xatoliklarga yo'l qo'yilganda;

6. Topshiriqlar bo'yicha javoblarda mujmallik, noaniqlik va mantiqiy chalkashliklar qayd etilganda;

7. Ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilganda.

\_\_\_\_\_ fanidan nazorat turlari bo'yicha ballar taqsimoti.

\_\_\_-semestr

№	Mashg'ulotlar	Auditoriya soati	Mustaqil ish	Umumiy vaqt sarfi
1	Ma'ruza	40	30	70
2	Amaliy mashg'ulot	20	20	40
3	Laboratoriya mashg'ulot	20	20	40
4	Seminar	30	22	52
5	Mustaqil ish	-	-	-
	Jami	110	92	202

Fan bo'yicha talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball-100. Mustaqil ish JN, ON va YaN larda qo'shib baholanadi. Shuning uchun mustaqil ish soatlari auditoriya mashg'ulotlari o'rtasida taqsimlanib, nazorat turlari uchun ballar taqsimotini aniqlashda mashg'ulot uchun umumiy vaqt sarfi asos qilinib olinadi.

Amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari bo'yicha JN lar belgilanadi. JN va ON ga 70 ball, YaN ga 30 ball ajratilgan. 70 ball JN va ON ga quyidagicha bo'linadi.

$$\text{JN lar uchun } \frac{70}{202} \cdot (40 + 40 + 52) = \frac{70}{202} \cdot 132 \approx 46 \text{ ball.}$$

Shu jumladan:

$$\text{Amaliy mashg'ulot uchun } = \frac{70}{202} \cdot 40 \approx 14 \text{ ball}$$

$$\text{Laboratoriya mashg'ulot uchun} = \frac{70}{202} \cdot 40 \approx 14 \text{ ball}$$

$$\text{Seminar mashg'ulot uchun} = \frac{70}{202} \cdot 52 \approx 18 \text{ ball}$$

$$\text{ON lar uchun} = \frac{70}{202} \cdot 70 \approx 24 \text{ (yoki } 70 - 46 = 24) \text{ ball}$$

$$\text{YaN uchun} = 30 \text{ ball}$$

Jami: 100 ball

\_\_\_ – semestr uchun

№	Mashg'ulotlar	Auditoriya soati	Mustaqil ish	Umumiy vaqt sarfi
1	Ma'ruza	40	30	70
2	Amaliy mashg'ulot	20	20	40
3	Laboratoriya mashg'uloti	20	20	60
4	Seminar	38	22	-
5	Mustaqil ish	-	-	210
	Jami	118	92	

$$\text{JN lar uchun} \frac{70}{210} \cdot (40 + 40 + 60) = \frac{70}{210} \cdot 140 \approx 47 \text{ ball}$$

Shu jumladan:

$$\text{Amaliy mashg'ulotlar uchun} = \frac{70}{210} \cdot 40 \approx 13 \text{ ball}$$

$$\text{Laboratoriya mashg'ulotlar uchun} = \frac{70}{210} \cdot 40 \approx 14 \text{ ball}$$

$$\text{Seminar mashg'ulotlari uchun} = \frac{70}{210} \cdot 60 \approx 20 \text{ ball}$$

$$\text{ON lar uchun} = \frac{70}{210} \cdot 70 \approx 23 \text{ (yoki } 70 - 47 = 23) \text{ ball}$$

YaN uchun 30 ball

Jami: 100 ball



## **Nazorat turlari bo'yicha ballar taqsimoti va uni baholash mexanizmlari.**

**a) amaliy mashg'ulotlar bo'yicha:**

Amaliy mashg'ulot uchun 5 ta JN belgilangan. Natijada: birinchi JN uchun maksimal ball – 2, qolgan JN lar uchun maksimal ball – 3 baldan belgilanadi. JN lar yozma shaklda o'tkaziladi. Har bir JN lar uchun 10 ta misol va masalalar yechishdan iborat topshiriq berilsa birinchi JN turida har bir to'g'ri ishlangan misol va masalalar maksimal 0,2 baldan, qolgan keyingi JN lar uchun har bir to'g'ri ishlangan misol va masala uchun maksimal ball 0,3 baldan to'g'ri keladi.

Bajarish vaqti dars jarayonida bo'ladi.

**b) laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha:**

Talaba 4 ta laboratoriya ishi bajarishi belgilangan. Natijada:  $4 \times 3,5 = 14$  ball, ya'ni har bir to'g'ri bajarilgan laboratoriya uchun maksimal ball – 3,5. Bu maksimal ball quyidagi ishlarga bo'linadi:

– // nazariy tayyorgarlik ko'rish – 1 ball

– // laboratoriya ishini mustaqil bajarish – 1 ball

– // olingan natijalar bo'yicha hisobot va xulosalar tayyorlash – 1,5 ball  
jami: 3,5 ball

Bajarish vaqti dars jarayonida bo'ladi.

**v) seminar mashg'ulotlari bo'yicha:**

Seminar mashg'uloti uchun 6 ta JN belgilangan. Natijada:  $6 \times 4 = 24$  ball. Bitta JN uchun maksimal ball – 4 ball qilib belgilanadi. Bu maksimal ball quyidagi ishlarga bo'linadi.

– // seminar rejasida qo'yilgan savollarga javoblarning konspektlashirilganligi – 1

– // javoblarning aniq ilmiy asoslanganligi – 1

– // har bir savol bo'yicha xulosalarning to'g'riligi – 1

– // savol-javoblarini himoya qila olishligi – 1

jami: 4 ball

Bajarish vaqti dars jarayonida bo'ladi.

**g) ma'ruzalar bo'yicha:**

Ushbu fandan semestrda 2 ta ON belgilandi. Har bir ON ga 12 baldan maksimal ball belgilandi. ON lar yozma shaklda o'tkaziladi. Birinchi ON ga tugallangan tegishli bo'lim bo'yicha 12 ta savoldan iborat variantlar mosida yozma nazorat o'tkazish. Har bir 1 ta to'g'ri javob uchun maksimal ball 1 ga teng.

Xuddi shuningdek, ikkinchi ON uchun ham o'tkaziladi.

*Izoh:* ON larni test savollarini yechish, og'zaki suhbat va boshqa ko'rinishda ham amalga oshirish mumkin.

**d) ma'ruza va amaliy ko'nikmalar bo'yicha:**

YaN semestr oxirida belgilangan jadval asosida ko'rsatilgan muddat va auditoriyada yozma shaklda o'tkaziladi. Yozma ishda 3 ta nazariy 2 ta amaliy – jami 5 ta savoldan iborat variant tuziladi. Har bir nazariy va amaliy savol uchun maksimal 6 ball.

*Izoh:* YaN ni test savollarini yechish, og'zaki suhbat va boshqa ko'rinishda ham o'tkazish mumkin.

JN lar va ON lar bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish darajasi aniqlanib, YaN natijasini qo'shish orqali talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

Bu natija talabaning reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimida va qaydnomada aks ettiriladi.

Umumiy natijalar kafedra majlisida muhokama qilinib tavsiya etiladi (bayonnoma soni, sanasi ko'rsatiladi).

### **O'zbekiston tarixi fanidan nazorat turlari bo'yicha ballar taqsimoti**

No	Mashg'ulotlar	Auditoriya soati	Mustaqil ish	Umumiy vaqt sarfi
1	Ma'ruza	28	28	56
2	Seminar	30	30	60
3	Mustaqil ish	-	-	-
	Jami	58	58	116

$$\text{JN lar uchun } \frac{70}{116} \cdot 60 \approx 36 \text{ ball}$$

$$\text{ON lar uchun } \frac{70}{116} \cdot 56 \approx 34 \text{ (yoki } 70 - 36 = 34) \text{ ball}$$

YaN uchun -- 30 ball

Jami: 100 ball

Xulosa qilib aytganda guruh talabalari muayyan fan bo'yicha YaN o'tkaziladigan muddatgacha JN va ON turlaridan yiqqan ballari bo'yicha quyidagi uch guruhga bo'linadi.



*Izoh:* 39 ball fər- bo'yicha JN va ON larga ajratilgan 70 ballning 55% saralash bali.

Bunda: a) 1-guruh muayyan fan bo'yicha akademik qarzdor talabalar sonini tashkil etib YaN ga kiritilmaydi;

b) 2-guruh muayyan fan bo'yicha saralash ballarini to'plagan talabalar sonini tashkil etib, YaN ga kiritiladi;

v) 3-guruh muayyan fanni o'zlashtirgan talabalar sonini tashkil etib, YaN ga kirmasligiga yo'l qo'yiladi (reytingini oshirish uchun YaN ga kirishi ham mumkin).

## OLIV TA'LIMNING O'QUV-USLUBIY JARAYONLARIG'A OID ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

**Akademiya** – (yunonchadan «Academia» – afsonaviy qahramon Akadem, shuningdek, Platon o'z shogirdlariga ta'lim bergan, Afina yaqinidagi kichik o'rmon nomi bilan yuritiladi) ilm-fan yoki san'atni rivojlantirish maqsadida tuzilgan, yuqori malakali ilmiy kadrlarga ega bo'lgan oliy o'quv yurti yoki ilmiy muassasa.

**Amaliy mashg'ulot** – maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma, malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan ta'lim shakli.

**Axloq** – (lotincha «moralis» - xulq-atvor) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sanaladi.

**Axloqiy me'yor** – jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, uning a'zolari tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan qoida hisoblanadi.

**Baynalmilallik** – («inter» – orasida, o'rtasida, birgalikda, aro, «nation» – xalq) o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biridir.

**Bakalavr** – (lotinchadan «bachelor's» – bo'ysunuvchilar) o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotga hamda davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega mutaxassis.

**Bakalavriat** – (lotinchadan «bachelor's degree» – birinchi akademik daraja) oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

**Baho** – o'quvchilarga ularning ta'lim olishlari, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashuvlarini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

**Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.



**Bilim olish** – borliqni idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor, faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni sanaladi.

**Bilimlarni tekshirish va nazorat qilish darslari** – o‘qituvchiga o‘quvchilarning ma‘lum sohadagi bilim, ko‘nikma, malakalarining shakllanganlik darajasi, o‘quv materialini o‘rganishdagi kamchiliklarni aniqlash, navbatdagi topshiriqlarni bajarish yo‘llarini belgilab olishga yordam beradi.

**Bitiruv malakaviy ishi.** Uning bajarilishi va himoya qilinishi oliy ta‘lim tizimida bakalavr tayyorlashning muhim bosqichi hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilmasi.** BMI quyidagi tuzilmaga ega bo‘lishi kerak: titul varaq, mundarija, kirish, asosiy qism (bo‘lim, bob, paragraflar), xulosa va takliflar, adabiyotlar.

**Davlat ta‘lim muassasalarini moliyalash.** Respublika va mahalliy byudjet mablag‘lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

**Davlat ta‘lim standartlari** – (inglizcha «standard» – me‘yor, namuna) uzluksiz ta‘lim bosqichlarining asosiy ta‘lim dasturlari mazmunining zaruriy minimumini, o‘quvchilarga yuklanadigan o‘quv yuklanmalarning maksimal hajmini, ta‘lim muassasasi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini, ta‘lim jarayonini ta‘minlash (uning moddiy-texnik, o‘quv-laboratoriya, axborot-metodik, kadrlar ta‘minoti) ning asosiy talablarini aniqlab beradigan me‘yor va talablar.

**Davlat ta‘lim standartlari quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo‘ladi:** Ta‘limning yangi yoki aniqlashtirilgan maqsadlari, fanning o‘rganish obyektlari va asosiy mazmunli yo‘nalishlari ko‘zda tutiladigan o‘quv fanining umumiy ta‘rifi. O‘quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlash. Ta‘limning majburiy natijalarini ifodalash, ya‘ni o‘quvchilarning o‘quv tayyorgarliklari zarur bo‘lgan minimal darajasiga qo‘yiladigan talablar. Bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan talablar (bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining «o‘lchami» bo‘lib, tekshirish ishlari, testlar, alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o‘quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqidagi xulosaga kelinadi).

**Dars** – bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta‘lim jarayoni-ning asosiy shakli sanaladi.

**Darsga tayyorlanish** – aniq sharoitlarda yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlaydigan o'quv jarayonini tashkil etish choralarini ishlab chiqishdir.

**Darslik** – muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni, tuzilishiga ko'ra o'quv dasturiga mos keladi.

**Darsni loyihalash (rejalashtirish)** – o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

**Darsning asosiy vazifalari** – ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat.

**Yevropada tashkil etilgan dastlabki universitetlar** – Parij universiteti (1200-yil), Oksford universiteti (1206), Neapol universiteti (1224-yil), Kembrij universiteti (1231-yil) va Lissabon universiteti (1290-yil).

**Dastlabki universitet qachon tashkil topgan?** Universitet ta'lim muassasasi sifatida cherkov maktablari tizimida paydo bo'lgan. XI asrning oxiri XII asrning boshlarida alohida kafedra va monastr maktablari yirik o'quv markazlariga aylandi va keyinchalik universitet maqomiga ega bo'ldi.

**Didaktika (ta'lim nazariyasi)** – (ta'lim nazariyasi; yunoncha «didaktikos» – o'rgatuvchi, «didasko» – esa o'rganuvchi) ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va h. k. muammolar) ni o'rganuvchi fan.

**Didaktikaning asosiy kategoriyalarini quyidagilar tashkil etadi:** ta'lim mazmuni, o'quv fani, dars, ta'lim jarayoni, bilim olish, ta'lim tizimi, ta'limni boshqarish, ta'lim mazmuni, ta'limning didaktik tizimi, ta'lim texnologiyasi.

**Didaktikaning maqsadi** – ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari) ni tadqiq etish.

**Didaktikaning predmeti** – o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillari, o'qitish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati) ning o'zaro bog'liqligi.



**Dunyoqarash** – shaxsning tabiatga, jamiyatga, o‘zining ijtimoiy muhitdagi o‘rniga, o‘z-o‘ziga, turli voqeliklarga munosabatini belgilab beradigan qarashlari, e‘tiqodi, hayotiy tajribasi va faoliyat tamoyillari-ning tizimi.

**Jazolash** – ota-onalar, o‘qituvchilar, yoshi katta kishilar tomonidan o‘quvchilar va o‘smirlar tomonidan sodir etilgan nojo‘ya ish, harakat, faoliyat, so‘z uchun ogzaki, amaliy, ba‘zan jismoniy jazoni qo‘llash tarzida ko‘riladigan choralar.

**Zamonaviy didaktikada darsning qo‘yidagi turlari ajratib ko‘rsatilgan:** aralash darslar, yangi ma‘lumotlarni berish darslari, bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari, o‘rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va mustahkamlash darslari, bilimlarni tekshirish va tahlil qilish darslari hamda bitta asosiy didaktik maqsadga ega darslar.

**Zamonaviy o‘qituvchi shaxsida namoyon bo‘ladigan sifatlarni quyidagicha turkumlashtirish mumkin:** kasbiy sifatlari, tashkilotchilik sifatlari, muloqotga kirishuvchanlik sifatlari, o‘quvchilar jamoasiga rahbarlik sifatlari, boshqaruvchilik sifatlari, ish yurita olish sifatlari, ijodiy faoliyatni tashkil eta olish sifatlari, voqelikni to‘g‘ri baholay olish sifatlari va tadqiqotchilik sifatlari.

**Zamonaviy sharoitda ta‘lim** – individual mashg‘ulotlar, individual-guruhli mashg‘ulotlar, sinf-dars, ma‘ruza, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, ta‘lim muassasasidan tashqari mashg‘ulotlar kabi shakllarda tashkil etilmoqda.

**Ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari** – muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini to‘g‘ri, maqsadga muvofiq, puxta tashkil qilish orqali ularni axloqiy me‘yor, xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantiruvchi usullar.

**Izohlash** – tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta‘sir etish usuli bo‘lib, uning muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganligidir. O‘quvchilar bilan ishlaganda ma‘naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma‘nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltiradi: yangi ma‘naviy-axloqiy sifatlari yoki xulq ko‘nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash, tarbiyalanuvchilarda sodir etilgan muayyan hodisa (mas: sinf o‘quvchilarining ommaviy ravishda darsga kelmaganliklari) ga ongli munosabatni tarbiyalash.

**Iqtidorli talabalarni izlash** – o‘qishning dastlabki kunlaridan va kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Iqtidorli talabalar, boshlang‘ich bilimlar, hisobga olingan holda, psixologik va pedagogik hamda intellektual testlar o‘tkazish orqali qobiliyatning rivojlanganlik darajasiga qarab aniqlanadi.

**Ilmiy dunyoqarash** – ilmiy metodlar yordamida ko‘p bor tekshirish, umumiy holda insoniyat tajribasi bilan tasdiqlanish qonunlariga tayanuvchi dunyoqarash.

**Ilmiy Kengash** – ta‘lim muassasasining boshqaruv organi sanaladi.

**Ilmiy tafakkur** – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisa va jarayonlarga ilmiy yondashuvni anglatadi.

**Individuallik** – alohida olingan shaxsgagina xos bo‘lib, uni boshqalardan ajratib turadigan xususiyatlarining namoyon bo‘lishi.

**Innovatsion ta‘lim** – (inglizchadan «innovation» – yangilik kiritish, ixtiro) o‘quvchi, talabada yangi g‘oya, me‘yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me‘yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yarata-di. Uzlüksiz ta‘lim tizimida innovatsion ta‘limdan foydalanish o‘quvchi va talabalarda ular tomonidan bilim, ko‘nikma, malakalar o‘zlashtirayotgan sohalarda yangiliklarni yaratish, ilgor g‘oyalarni asoslash, amaliyotga samarali tatbiq etishga tayyorlaydi.

**Institut** – (lotinchadan «ineticutum» – o‘rnatish, tuzish, ta‘sis etish) muayyan yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatib, oliy ma‘lumotli, malakali mutaxassislarni tayyorlovchi oliy o‘quv yurti yoki ilmiy muassasa.

**Interfaol ta‘lim** – (lotinchadan «inter» – oraliq, o‘rtasi, o‘zaro) ta‘lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozaralar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, o‘qituvch – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhining o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

**Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish** – tarbiya jarayonida bolalar va o‘smirlarni biror ish, tadbir, faoliyatni amalga oshirishga doir tartib-qoidalar bilan tanishtirish, ularga amal qilish shartlarini ifodalashga qaratilgan faoliyat.



**Ishchi o'quv rejalari** – namunaviy o'quv rejalari asosida o'quv muassasalarining mavjud sharoitlarini hisobga olgan holda yaratiladi.

**Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi** – kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalarni yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadini ko'zlaydi.

**Kadrlar tayyorlash milliy modeli** – O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining mohiyatini, malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan iborat yagona tizim mazmunini yaxlit holda aks ettiradigan model bo'lib, u shaxsning yosh xususiyatini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich, izchil rivojlanib borishini kafolatlaydi.

**Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari** – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan hamda ishlab chiqarish sanaladi.

**Kreativ pedagogikaning maqsadi** – shaxs (o'quvchi, talaba) ni o'qishga, ta'lim olishga ijodiy yondashishga, o'zining va o'z kelajagining yaratuvchisi bo'lishga o'rgatishdan iborat.

**Ko'nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

**Kurs loyihasini bajarishdan maqsad** – o'quv rejasida ko'zda tutilgan muayyan fan bo'yicha ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarda olingan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, umumlashtirish va ushbu bilimlarini konkret muhandislik masalasini mukammal yechishda qo'llash.

**Laboratoriya ishlari** – o'quvchilarga turli jixoz, maxsus uskuna, qurol, texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish imkoniyatini yaratuvchi darslar bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Ushbu dars shakli o'quvchilarda asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish, ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma, jihoz va materiallarni, vaqtni sarflash hisobiga ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi.

**Magistr** – (lotinchadan «magistr» – boshliqlar, murabbiylar, amaldorlar) ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali, ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega mutaxassis.

**Magistratura** – (lotinchadan «magistratus» – ikkinchi akademik daraja) aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

**Maqsad** – (arabcha - niyat, oliy tilak, intilish) erishish, amalga oshirish uchun ko'zda tutilgan narsa, murod, muddao. Tarbiyada maqsad ham muhim omil sanaladi, zero, uning yordamida shaxs o'z faoliyati yo'nalishini aniq belgilab oladi.

**Malaka** – muayyan harakat, faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Maslahat** – tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda muayyan ish-harakat, faoliyatni oqilona tashkil etish yuzasidan ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida tashkil etiladigan muhokama.

**Masofaviy ta'lim** – (lotincha «distantia» – masofadan foydalanish) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri, shaxsiy aloqasiz «masofadan o'qitish» imkonini yaratib beruvchi zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o'qitish jarayonining o'ziga xos yangi shakli bo'lib, unga ko'ra ta'lim jarayoni yangi axborot texnologiyalar, multimediya tizimi yordamida tashkil etiladi.

**Mahorat** – muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malakalar majmui.

**Ma'lumot** – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan, tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar, tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Ma'naviy-axloqiy tarbiya** – o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

**Ma'naviy-axloqiy tarbiyani** tashkil etishda o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va taqiqlar) ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish maqsadi ko'zlanadi.

**Ma'ruza** – o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, oliy o'quv yurtida dars berishning asosiy shakllaridan biri. Ma'ruza (arabcha – o'qish) – o'quv materiallari, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma'lum bir



tizimga solingan bayonidir. Hozirgi pedagogik texnologiyalar tizimida ma'ruza o'ziga xos modul, uni tayyorlash va o'tkazish esa kichik pedagogik texnologiya jarayonidan iborat. Bu jarayon dastlab ma'ruza uchun matreallarni to'plash, o'rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, tegishli amaliy vazifalarni belgilash va ularni sifatli amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar shakllantirish bosqichlaridan iborat bo'ladi.

**Metodik kengash** – ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahoratlari takomillashtirilib borilishiga nazariy-metodik jihatdan rabbarlik qiluvchi organ sanaladi.

**Metodologik asos** – muayyan nazariya va ta'limotlarning yetarlicha ilmiy asoslanishi, shaxs faoliyatining to'g'ri uyushtirilishi uchun asos (negiz) bo'lib xizmat qiladigan muhim, yetakchi g'oyalar.

**Metodologiya** – (yunoncha «methodos» – yo'l, usul, «logos» – ta'limot) shaxsning amaliy va nazariy faoliyatini to'g'ri uyushtirish, tuzish to'g'risidagi ta'limot; ilmiy bilish va dialektik taraqqiyot mohiyatini yorituvchi ustuvor g'oya, yetakchi tamoyil, muhim qonuniyatlar, nazariy hamda amaliy yondashuvlar majmui.

**Modul ta'limi** – (lotinchadan «modulus» – kichik o'lcham, ya'ni umumiy o'quv materialining alohida yoki fikran ajratilgan tarkibiy qismi) o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarini yo'lga qo'yish, ularni ma'lum o'quv materiallari bilan ta'minlash, ularning ta'limiy faoliyati yuzasidan monitoringni tashkil etishda foydalaniladi. Uni qo'llashda beriladigan yaxlit o'quv materiali blok (alohida ajratilgan qism) larda 1-blok, 2-blok va hokazo tarzida taqdim etiladi. Modul ta'limi asosida masofaviy ta'limni ham yo'lga qo'yish mumkin. Bunda o'quvchilar alohida chop etilgan yoki komputer varianti ko'rinishidagi bloklardan iborat materiallar bilan ta'minlanadilar. Taqdim etilgan materiallar o'quvchilar tomonidan to'la o'rganilgandan so'ng ularga nazariy bilimlarga egalikni mustaqil baholash, mavjud bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi pedagogik yoki psixologik topshiriqlar beriladi.

**Muammoli ta'lim** – zamonaviy ta'lim mohiyatini aks ettiruvchi ilg'or pedagogik texnologiya. Ta'lim amaliyotida undan foydalanish ta'lim oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash va ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Muammoli o'qitishda muammoli vaziyatlarni hal qilish metodi faol

qo'llaniladi. Muammoli vaziyatlarni hal qilishda bahs-munozaralardan foydalaniladi. Bunda, ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash samarali kechadi.

**Muloqot** – (arabcha – uchrashish, ko'rishish, qabul qilish) ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'zaro bir-birlariga ta'sir etishlari bo'lib, u shaxslararo axborot almashish, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini tanlash o'zgalarni tushunish, idrok etish va baholash xarakteriga ega.

**Munozara** – tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, u siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzularda o'tkaziladi. Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun uni tashkil etishga jiddiy, puxta tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Munozara uchun 5 – 6 ta savol tayyorlanib, ular bilan ishtirokchilar oldindan tanishtiriladi. Chiqishlar jonli, erkin va qisqa bo'lishi zarur. Pedagog ishtirokchilarga fikrlarini ixcham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi.

**Mustaqil ta'lim** – olingan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadida tashkil etiladi. Mustaqil ta'limning afzalligi o'quvchilar bilimlarni o'zlari uchun qulay bo'lgan sharoit va vaqtda o'zlashtira olishlari bilan boshqa shaxsga yo'naltirilgan ta'limning turlaridan farq qiladi.

**Mustaqil ta'lim turlariga quyidagilar kiradi:** ayrim mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlash; amaliy mashg'ulotlar va seminarlarga tayyorgarlik ko'rish; laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish; kurs ishlarini bajarish; nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash; mavzu yoki ma'lum bir bob bo'yicha tahliliy ma'lumotlar asosida xulosalar qilish va ilmiy maqola tayyorlash; anjumanlarda ma'ruzalar bilan qatnashish; bitiruv malakaviy ishini tayyorlash; magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash; fanlar bo'yicha uyga berilgan topshiriqlarni bajarish va mavzular bo'yicha slaydlar, prezentatsiyalar tayyorlash. O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talabalar mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

**Muhit (yoki ijtimoiy muhit)** – individ, shaxs, ijtimoiy guruhlarining mavjud bo'lishi, shakllanishi va faoliyati kechadigan ijtimoiy (moddiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy) shart-sharoitlar.



**Nazorat turlari** – JN – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli bo‘lib, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi. ON – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. YaN – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. YaN, asosan, semestr oxirida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «yozma ish» shaklida o‘tkaziladi.

**Namunaviy o‘quv rejalari** – tayanch o‘quv rejasi asosida uzoq muddatga mo‘ljallab tuziladi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

**Noan’anaviy darslar** – an’anaviy sanalgan sinf-dars tizimidan farqli ravishda nostandart holatda tashkil etiladigan darslar noana’anaviy darslar deb yuritiladi.

**Og‘zaki bayon qilish metodlarining** – hikoya, suhbat, tushuntirish, ma‘ruza kabi turlari mavjud.

**Ogohlantirish** – sodir etilishi mumkin bo‘lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo‘llaniladigan tarbiyaviy usul.

**Oliy maktablardan biri – Auditorium** (lotinchadan «audire» – ting-lamoq) milodning 425-yilida Konstantinopolda imperator Fedosey II tomonidan tashkil etilgan. Milodning IX asridan boshlab u imperator saroyi binolaridan birining nomi bilan Magnavra (Oltin saroy) deb atala boshlagan.

**Oliy ta‘lim** – ikki bosqich (bakalavriat va magistratura) da tashkil etiladi.

Oliy ta‘lim Sharqda ham, G‘arbda ham o‘rta asrlardan boshlab rivojlangan. Oliy ta‘lim Sharq musulmon mamlakatlarida madrasalarda tashkil etilgan bo‘lsa, G‘arbda universitetlarda tashkil etilgan.

**Oliy ta‘lim tizimi** – turli yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimi.

**Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim** – jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etiladigan ta‘lim.

**Pedagog xodimlarni oliy o‘quv yurtlariga ishga qabul qilish** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

**Pedagogik ijod** – pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati.

**Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari** – suhbat, anketa, test, intervyu, pedagogik tahlil, pedagogik kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish (ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish), bolalar ijodini o'rganish, modellashtirish, pedagogik tajriba, matematik-statistik metodlar pedagogik tadqiqot metodlari sirasiga kiradi.

**Pedagogik kreativlik** – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

**Pedagogik kuzatish metodi** – ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammoning mavjud holatini aniqlash usuli. Kuzatish natijalariga ko'ra tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq tahlil qilindi.

**Pedagogik madaniyat** – pedagogning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan xulq-atvor, odob, muomala, xatti-harakat ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish darajasi; pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o'zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika, madaniyatni namoyon qila olishning yuqori darajasi.

**Pedagogik novatorlik** – pedagogik faoliyatda ilg'or tamoyil yoki g'oyani asoslash, yangi yo'l, usul yoki vositalarni tavsiya qilish, ularning amaliyotga tatbiqini ta'minlashga qaratilgan ijodiy yondashuv.

**Pedagogik obro'** – pedagogning o'quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomi.

**Pedagogik odob** – pedagog (o'qituvchi) oldiga uning o'ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan munosabatda samimiy, ochiq bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan axloqiy talablar tizimi.

**Pedagogik refleksiya** – pedagog tomonidan shaxs ongining mohiyati, qadriyatlari, qiziqishlari, shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadigan rag'batlantiruvchi omillar, shaxsning xatti-harakatlari, fikrlashi, idroki, qarorlar qabul qilishi, hissiy ta'sirlanishi va boshqalarning anglab yetilishi.



**Pedagogik tajriba** – tabiiy tajriba, laboratoriya tajribasi, tajriba ishi kabi turlari mavjud.

**Pedagogik tajribaning ilmiy-amaliy ahamiyati** – pedagogik tajriba (lotincha «experimentum» – sinov, sinash, tajriba) metodining ilmiy-amaliy ahamiyati muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi va ularning samaradorligini aniqlash uchun keng imkoniyatlarni yaratishda aks etadi.

**Pedagogik talab** – turli xatti-harakatlarni bajarish, muayyan faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulk-atvor me‘yorlari va tarbiyaviy ta’sirning muhim usullaridan biri bo‘lib, u ma’lum harakatlarni rag‘batlantirish yoki to‘xtatish, shaxsni ijobiy harakatlarga undash xarakteriga ega bo‘ladi.

**Pedagogik tahlilni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad** – tanlangan muammoning falsafiy, psixologik, pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

**Pedagogik texnika** – pedagog tomonidan samarali o‘zlashtirilib, alohida o‘quvchilar (talaba, tarbiyalanuvchi), bolalar jamoalariga pedagogik ta’sir o‘tkazish metodlarini amalda oqilona qo‘llay olishi uchun imkon beradigan bilim, ko‘nikma, malakalar majmui; pedagogik faoliyatda o‘rtirilgan ko‘nikma, malakalar yig‘indisi.

**Pedagogik faoliyat** – pedagog tomonidan kasbiy maqsadga muvofiq tashkil etiladigan tizimli harakatlarning muayyan shakli.

**Pedagogikaga xos asosiy didaktik tushunchalar quyidagilardir:** ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka.

**Pedagogikada texnologiya pasporti tushunchasi** – ta’lim yoki ma’naviy- ma’rifiy tadbirning asosiy ko‘rsatkichlari, ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat ma’nosini anglatadi.

**Repititor** – o‘quvchiga ma’lum bir o‘quv fani yoki kursi bo‘yicha chuqur bilimlarni berish maqsadida pulli qo‘shimcha ta’lim turini tashkil etadigan, maxsus o‘quv mashg‘ulotlarini olib boradigan o‘qituvchi.

**Respublika ta’lim tizimi** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari (tegishli vazirliklar va idoralar), mahalliy davlat hokimiyati organlari kabi subyektlar tomonidan boshqariladi.

**Respublika ta'lim tizimini** – O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi boshqaradi.

**Rivojlanish** – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor hamda sifat o'zgarishlar mohiyatining ifodasi. Rivojlanish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski holatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishi tarzida ro'y beradi.

**Seminar (amaliy) mashg'ulot** – bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

**Taqiq** – ota-onalar, oilaning katta yoshli a'zolari, ba'zan o'qituvchilar tomonidan nojo'ya, ijtimoiy axloq me'yorlariga zid xatti-harakatlari, yurish-turishlari, xulq-atvorlari, gap-so'zlari uchun talabalar, o'smirlarni ular avval foydalanib kelgan imtiyozlardan maxrum etish.

**Tarbiya** – muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori, dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Tarbiya metodlari** – (yunoncha «methodos» – tadqiqot usuli, yo'li) – tarbiya maqsadiga erishish, tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish yo'llari.

**Tarbiya metodlari quyidagi turlarga ajratiladi:** shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar, ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari, xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlari va o'z-o'zini tarbiyalash metodlari.

**Tarbiyalash** – tarbiya jarayonini muntazam, izchil ravishda tashkil etish orqali bolalar, o'smirlarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan kamol (voya) ga yetkazish.

**Tarbiyalovchi vaziyatlar** – tabiiy ravishda sodir bo'ladigan yoki sun'iy hosil qilinib, shaxsda u yoki bu ma'naviy-axloqiy sifat, xulq-atvor, ko'nikma, shakllantirishga yo'naltiriladigan holat, sharoit hisoblanadi.

**Targ'ibot** – tarbiyaviy jarayonda ota-onalar, o'qituvchilar, katta yoshli kishilar tomonidan muayyan g'oya, qarashni talabalar, o'smirlarning ongiga singdirishga qaratilgan amaliy harakatlari.

**Tarqatma materiallar** – ta'lim oluvchilar uchun o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo'lmagan (1 – 2 varaq) yozma o'quv materiali hisoblanadi. Mazkur materiallar mashg'ulotni qiziqarli qilish imkonini berib, ko'p hollarda ta'lim



oluvchilar uchun mustaqil ravishda o'qib chiqib, muhokama qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

**Tafakkur** – ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

**Ta'lim** – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

**Ta'lim vositalari** – o'qitish samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari va qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komputer va b.) va subyektiv (o'qituvchi nutqi, muayyan shaxs hayoti, faoliyatiga oid misollar va b.) omillar hisoblanadi.

**Ta'lim jarayoni** – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiladigan, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Ta'lim jarayonidagi tekshirish** – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida qaytma aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishlari haqidagi obyektiv axborotni olish, bilimlarni samarali o'zlashtirishdagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdan iborat.

**Ta'lim jarayonini tashkil etishni rejalashtirishda** o'qituvchi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzishga e'tibor qaratadi.

**Ta'lim konsepsiyalari** – (lotinchadan «conception» – to'plash, birlashtirish, tizim, ibora) tushunchasi «ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi», «uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyatining yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli» ma'nolarini anglatadi.

**Ta'lim qonuniyatlari** – ta'lim jarayonida ro'y beradigan hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar, ularning mohiyatini ifodalovchi shart-sharoit, asos.

**Ta'lim mazmuni** – davlat ta'lim standarti, o'quv rejaları va o'quv dasturlari mazmunida aks etadi.

**Ta'lim mazmuni** – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilib, ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar, shuningdek, shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot

va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyatidan iborat.

**Ta'lim metodlari** – o'quv jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi uslublar majmui.

**Ta'lim metodlarining asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat: rag'batlantirish, rivojlantirish, tashkil etish, o'qitish va tarbiyalash.

**Ta'lim muassasalari xodimlarining ijtimoiy himoyalanihi.** Bunday himoyalanih ularga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanganligi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar va qonun hujjatlari-da nazarda tutilgan imtiyozlarning berilishida aks etadi.

**Ta'lim muassasasi** – yuridik shaxs bo'lib, u qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi va faoliyat olib boradi.

**Ta'lim muassasasi davlat akkreditatsiyasidan** milliy qonunchilik, tegishli qonunlar talablariga rioya etmaganda; milliy mafkuraviy qarashlarga zid, buzg'unchi g'oyalarni targ'ib etganda; qo'poruvchilik harakatlari-da ishtirok etganda; diniy va milliy axloq me'yorlariga zid qarashlarni targ'ib qilganida maxrum etiladi.

**Ta'lim muassasasi faoliyatini atestatsiyadan o'tkazish** – ta'lim muassasasi faoliyati qonun talablariga muvofiq izchil, tizimli, uzluksiz amalga oshirilayotganligini tahlil qilish va baholash.

**Ta'lim muassasasi faoliyatini yorituvchi hujjatlar.** O'quv mashg'ulotlarining jadvali; o'quv dasturi; guruh jumallari; o'quvchilarning shaxsiy varaqalari; buyruqlar; pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari va qarorlari; ta'lim muassasasi smetasi va pasporti; tarbiyaviy ishlar rejasi; o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishga oid hisobotlar; ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol, stullar va h. k.) qayd etilgan daftar kabilar ta'lim muassasasi faoliyatini yorituvchi hujjatlar sanaladi.

**Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash** – (lotincha «accredo» – ishonmoq, ishonch bildirmoq) ta'lim muassasasiga o'quv va tarbiyaviy ishlarni olib borish huquqi, vakolatining berilishi.

**Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatiga** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ega.

**Ta'lim muassasasining Ustavi** – ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

**Ta'lim oluvchilar ijtimoiy himoyalanih huquqiga egami?** Ular qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq muayyan imtiyozlarga ega bo'ladi, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.



**Ta'lim oluvchilarga beriladigan stipendiya** – (lotincha «stipendium») oliy va ayrim kasb-hunar kollejlarining o'quvchilari, doktorantlar, maxsus kurslarning tinglovchilariga har oyda berib turiladigan nafaqa, pul.

**Ta'lim tamoyillari** – ta'lim nazariyasining asosiy yetakchi qoidalari bo'lib, o'qitish asosidagi ta'lim va uni tashkil etish jarayonini tashkil etish mazmuni, shakli, metodi, vositalari tanlanishini belgilaydigan boshlang'ich asoslar hisoblanadi.

**Ta'lim texnologiyasi** – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish, ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

**Ta'lim tizimi** – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

**Ta'lim tizimini boshqarish** – ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, ta'lim muassasalarining faoliyati ustidan rahbarlik qilish.

**Ta'lim tizimini boshqarishda** mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari quyidagilardan iborat: ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash, ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga olish, o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlari va imtiyozlarini belgilash, ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlash va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

**Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzish** – javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

**Ta'lim turlari** – (yunoncha «species» – alohida, o'ziga xos xususiyatga ega) tushunchasi ta'lim mazmuni, ta'limning tashkil etilish o'rni, bosqichi, qo'llaniladigan vositalari va ta'lim oluvchilarning yoshiga ko'ra farqlanuvchi ta'lim ko'rinishlari, shuningdek, o'quv jarayonini

tashkil etish, amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar degan ma'noni anglatadi.

**Ta'lim shakli deganda** – ta'lim jarayonining tashkiliy qurilishini tushunish lozim.

**Ta'limni axborotlashtirish** – tushunchasi o'quvchilarning o'qitish jarayonida hisoblash texnikasi, axborot texnologiyalaridan ommaviy ravishda, keng va faol foydalanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan tashkiliy-pedagogik faoliyatni anglatadi.

**Ta'limni boshqarish bo'yicha** O'zbekiston Respublikasining Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi respublikada ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari sanaladi.

**Ta'limni boshqarish bo'yicha** vakolatli davlat organlari quyidagi vakolatlarga ega: ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish, ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash, o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish, o'quv, o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish, ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish, pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga egalik qilish.

**Ta'limning guruhli shakli** – o'qituvchi bir vaqtning o'zida guruh o'quvchilarining bilish faoliyatlarini boshqaradi. Unga ko'ra o'quvchilar 3 – 6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradi. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin.

**Ta'limning individual shakli** – har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini nazarda tutadi; unga ko'ra o'quvchilar boshqa o'quvchilar bilan bevosita aloqaga kirishmaydi. Individual ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasada, biroq o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi.



**Ta'limning ommaviy shakli** – turg'un o'quvchilar guruhi bilan o'quv faoliyatini tashkil etishni, sinfdagi jami o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikda muayyan harakatlarni bajarishlari.

**Ta'limning uzluksizligi** – yagona ta'lim tizimi bosqichlarining ketma-ketligi asosida o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilimlarni oddiydan murakkabga qadar bosqichma-bosqich rivojlantirib borishni, ular o'rtasida mantiqiy izchillikni ta'minlashni anglatadi.

**Test** – (inglizcha «test» – sinash, tekshirish, o'rganish) – aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

**Test topshiriqlarining shakllari** quyida keltirilgan 4 xil shakldan iborat: yopiq, ochiq, o'xshashlikni shakllantirish va ketma-ketlikni tartibga solish. Test topshiriqlarining boshqa turlari ham mavjud (zanjirsimon, tekstsimon va hokazo)

**Texnologiya** – (yunoncha «techne» – mahorat, san'at; «logos» – tushuncha, ta'limot) – ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarim fabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llaniladigan usullar (metodlar) majmui.

**Topshiriq** – ta'lim yoki tarbiya jarayonida o'quvchi zimmasiga yuklanadigan muayyan vazifa.

**To'garaklar** – OTMlarida talabalarning ma'lum fanlar yuzasidan bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, ularda fan yuzasidan o'rta qo'yilgan muammoga atroflicha yondosha olish, o'z fikrlarini asoslash va aniq bayon etish malakalarini shakllantirish hamda to'g'ri yo'naltirish, talabalarning turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda qatnashishini tashkil qilish, mantiqiy argumentlar tuzish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish, talabalarda faol fuqarolik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, notiqlik, liderlik sifatlarini shakllantirish va boshqa (fan dasturi va maqsadidan kelib chiqib) bir qancha maqsadlarda tashkil etiladi.

**Tushuntirish** – muayyan xatti-harakat, xulq-atvor, shaxslararo munosabatlar mazmunini ochib berish, yoritishdan iborat harakat.

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:** ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish, ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va

tugatish tartibini belgilash, ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni atesstatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash, boshqa davlatning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini ta'minlovchi ruhsatnomalarni berish, qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash, davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarini tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash, davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash, davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash, ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga egalik qilish.

**O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini ro'yobga chiqarish** – uch bosqichda amalga oshiriladi.

**O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga ko'ra pedagogik faoliyat bilan tegishli ma'lumot, kasb tayyorgarligi va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar shug'ullanish huquqiga ega.**

**O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining maqsadi** – Fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash, har kimga bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash.

**O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:**

I. Umumiy qoidalar (8 ta modda).

II. Ta'lim tizimi va turlari (11 ta modda).

III. Ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish (5 ta modda).

IV. Ta'lim tizimini boshqarish (5 ta modda).

V. Yakunlovchi qoidalar (5 ta modda).

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni jami beshta bo'lim, 34 ta moddadan iborat.

**O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining bosh g'oyasi** – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, milliy ta'lim tizimini jahon ta'lim standartlariga tenglashtirish, kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq zamonaviy bilimlarni puxta egallagan, erkin, mustaqil fikrlovchi, har tomonlama rivojlangan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.



**O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining mohiyati** – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlarida, shuningdek, Respublika Vazirlar Mahkamasi, tegishli vazirlik hamda idoralarning ta'lim mazmunini yorituvchi hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

**O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimi** – maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini, ularning faoliyatini nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi boshqaruv organlarini o'z ichiga oladi.

**O'zini-o'zi tarbiyalash** imom G'azzoliyning fikriga ko'ra – o'zini-o'zi kuzatish va o'zini-o'zi anglashdan boshlanadi. Shaxs tomonidan boshqalar xatti-harakatlarining kuzatilishi esa unga o'z kamchiliklarini ko'rish va ular to'g'risida mulohaza yuritishga imkon beradi.

**O'qituvchi** (pedagog) – pedagogik, psixologik va tegishli mutaxassislik bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lib, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

**O'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini boshqarish** – quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi: 1) rejalashtirish; 2) tashkil etish; 3) boshqarish; 4) nazorat qilish; 5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

**O'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini boshqarish** – muayyan mavzu bo'yicha yoki nazorat ishlarini o'tkazish maqsadida tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlarining ilmiy-pedagogik va amaliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishi, olib borilishi, natijalarning tahlil etilishini anglatadi.

**O'qituvchining darsga tayyorlanishi quyidagi to'rt bosqichda kechadi:** ma'lumotlarni yig'ish, ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish, bashoratlash, loyihalash (rejalashtirish).

**O'qituvchining ta'lim jarayonini tashkil etishdagi roli** – o'quvchilar oldiga o'quv masalalarini qo'yish, ularning samarali bajarilishi uchun zarur sharoitni yaratishdan iborat.

**O'qish** – ta'lim oluvchi tomonidan mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan faoliyat bo'lib, uni tashkil etish jarayonida insonning aqliy qobiliyati rivojlanadi, tafakkuri o'sadi, dunyoqarashi kengayadi.

**O'quv adabiyotlari** – o'quv fanlari bo'yicha yaratilgan darsliklar, o'quv hamda metodik qo'llanmalar, mashq va masalalar to'plamlari, xrestomatiyalar, ma'lumotnomalar, atlaslar, o'quv lug'atlari.

**O'quv dasturi** – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar mazmuni, umumiy vaqtning muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzular ketma-ketligining belgilanishi va ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

**O'quv dasturlarining quyidagi turlari mavjud:** 1) namunaviy o'quv dasturlari; 2) muqobil o'quv dasturlari; 3) ishchi o'quv dasturlari; 4) mualliflik o'quv dasturlari; 5) individual o'quv dasturlari.

**O'quv muassasalaridan biri sifatida madrasa musulmon mamlakatlari**da ilk bor – 1055-yilda Bag'dodda barpo etildi.

**O'quv rejalarining quyidagi turlari mavjud:** 1) tayanch o'quv rejaları; 2) namunaviy o'quv rejaları; 3) ishchi o'quv rejaları.

**O'quv rejasi** – me'yoriy hujjat. Unda har bir o'quv predmetining mazmuni ochib beriladi, muayyan o'quv yilida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

**O'quv fani** – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq n'larga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma, malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manba.

**O'quv fani bo'yicha yakuniy testni ishlab chiqish.** Test topshiriqlarini ishlab chiqishdan oldin testning spetsifikatsiyasi tuziladi. Odatda, u jadval tariqasida ishlanib, qatorlari esa o'quv materiallarining bo'linmalarini aks ettiradi. Bo'linmalar B. Blum taksanomiyasiga asoslangan o'quv maqsadlarining kategoriyalarini bildiradi.

**O'quv ekskursiyalari** – alohida yoki bir qancha fanlar bo'yicha rejalashtirilib, ommaviy, guruhli va kichik guruhli tarzda tashkil etiladi.

**O'quvchiga bilimlarni yetkazish shakliga ko'ra ta'lim metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:** og'zaki bayon qilish metodlari, ko'rgazmali metodlar va amaliy metodlar.

**Universitet** – (nemischada «universitat», lotinchada «universitas», «universitatus» – jami, barchasi, yig'indi, majmua) – tarkibida bir qancha tabiiy-matematik va ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fakultetlari bo'lgan, muayyan yo'nalishlarda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ko'p tarmoqli oliy o'quv yurti yoki ilmiy muassasa.



**O'rgatish** – tarbiya jarayonida bolalar va o'smirlarda muayyan ish-harakat, faoliyatni sifatli, samarali bajarishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilish.

**Fan to'garaklari** – ta'lim oluvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Faoliyat** – shaxsning moddiy borliqqa, tabiatga, boshqa shaxslarga munosabati shakli, ularga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan xatti-harakatlarining majmui.

**Hayotiy tajriba** – har bir shaxs tomonidan uning umri davomida o'tirgan bilimlar, malakalar, o'quvlar majmui.

**Hayfsan** berish o'quvchi yoki xodimning ma'lum xatti-harakatlarni qat'iy choralar asosida baholash bo'lib, u tanbex va ogohlantirish kutilgan natijani bermagan holatlarda qo'llaniladi.

**Hujjatlarni tahlil qilish (ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish) metodi** – pedagogik hodisa va dalillarni har tomonlama tekshirish, ta'lim muassasasi tomonidan me'yoriy talablarning bajarilishi holatini o'rganish, erishilgan yutuq, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or ilmiy-pedagogik, shuningdek, ta'lim muassasasi tomonidan to'plangan amaliy-pedagogik tajribalarni ommalashtirish maqsadida qo'llaniladi.

**Huquqiy madaniyat** – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning samarali o'zlashtirilishi va huquqiy faoliyatni samarali tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

**Shaxs** – jamiyatning psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari, xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega a'zosi.

**Shaxsga xos ma'naviy-axloqiy sifatlar** – shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliqqa, o'ziga hamda atrofdagilarga ijobiy munosabatini, shaxslararo munosabatda axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilishini ifodalovchi sifatlar.

**Shaxsga xos salbiy sifatlar** uning tabiiy va ijtimoiy borliqqa, o'ziga, atrofdagilarga salbiy munosabatini, shaxslararo munosabatda axloqiy me'yorlarga amal qilmasligini ifodalaydi.

**Shaxsning ijtimoiylashuvi** – uning jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim va qadriyatlar tizimini samarali o'zlashtirishi asosida ijtimoiy hayotga moslashishi, ko'nikishi jarayoni.

**Shaxsning individual xususiyatlari.** Shaxsning yo'nalganligini ifodalovchi, qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy

kamoloti va faoliyatining o'ziga xos, barqaror, muhim xususiyatlari shaxsning individual xususiyatlari deb yuritiladi.

**Shaxsning rivojlanganlik darajasi** uning fiziologik, ruhiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi faoliyat, xatti-harakatlarning miqdor va sifat jihatdan o'zgarishi kabi holatlar bilan belgilanadi.

**Ekskursiya metodi.** Narsa va hodisalar mohiyatini tabiiy sharoitlar (ishlab chiqarish muassasalari, fermer va jamoa xo'jaliklari, tabiat) yoki maxsus muassasalar (muzey, ko'rgazma zallari va h. k.) da bevosita o'rganilishini tashkil etish bo'lib, ana shu maqsadga xizmat qiladigan metod ekskursiya metodi deb nomlanadi.

**Elektron o'quv uslubiy majmua** – bu fanning barcha tarkibiy qismlari elektron hujjat shaklida tayyorlanadigan o'quv-uslubiy majmuasi.

**Estetik did** – estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy me'yorlar yig'indisi orqali shakllanib, shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa.

**Estetik madaniyat** – go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim, amalga oshiriladigan estetik faoliyat sifat darajasini belgilovchi ko'rsatkich.



## XULOSA

Oliy ta'limni rivojlantirish, yetuk va malakali pedagog kadrlar tayyorlash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash, intellektual salohiyati yuqori, har tomonlama raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish bugungi kunda pedagoglar oldiga ulkan mas'uliyatli vazifalar yuklaydi. Mamlakatimizda bu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida bir qator islohotlar o'tkazilmoqda. Yurtimiz istiqbolga erishgan dastlabki yillardayoq ta'limni rivojlantirish maqsadida qator qonun va farmonlar, nizom va dasturlarning qabul qilinishi ushbu yo'lida ilk qadamlardan biri bo'ldi. Shu sababli 1997-yilgacha mavjud bo'lgan ta'lim to'g'risidagi qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, bir qator o'zgartish va qo'shimchalar bilan 1997-yil 29-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida tasdiqlandi. Shu bilan birgalikda qonunda ko'rsatilgan pirovard maqsadlarni amalga oshirish yo'lida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham qabul qilinganligi fikrimizning isbotidir.

Mazkur hujjatlarda qayd etilganidek, malakali kadrlar tayyorlash, ularni zamonaviy bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, bu yo'lida yangi darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlanishi kabi masalalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida kasbiy mahoratini rivojlantirish pedagog kadrlar saviyasini oshirishda yangi metodlarni ta'lim tizimiga olib kirish, mutaxassisliklari bo'yicha yangi o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash, dars davomida o'quv rejalarida fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlaridan unumli foydalanigan holda o'quvchilar ongiga o'tilayotgan mavzuni singdira olish oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari uchun ham muhim vazifa sanaladi. Shu sababdan qo'lingizdagi uslubiy qo'llanma oliy ta'limda uslubiy jarayonlarni tashkil etish va talabalar tomonidan ularni bajarish jarayonlari mavzusiga bag'ishlandi. Talabalarning kasbiy mahoratini yuksaltirishda, ya'ni tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda darsdan tashqari amlga oshiradigan mustaqil faoliyatlarining o'rnini beqiyosdir.

Prezident I. A. Karimovning «O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorida keltirilgan O‘zbekistonning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, yoshlarning ma’naviy, aqliy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashadigan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tahliliy, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ta’lim hamda boshqa axborotdan keng ko‘lamda foydalanishni ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorida nazarda tutilgan bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun davlat ta’lim standartlarini, o‘quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, ular asosida darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratish kabi masalalarning amaliy yechimi sifatida yaratilgan qo‘lingizdagi ushbu uslubiy-qo‘llanma yoshlarning yetuk va malakali kadr bo‘lib yetishishlarida ko‘makchi bo‘la oladi. Uslubiy-qo‘llanmada bugungi kunda yoshlarning puxta bilim egallashlari uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalardan samarali foydalanish, darsni to‘g‘ri tashkil etish, iqtidorli talabalar bilan ishlash va fan to‘garaklari tashkil etish, bakalavriat yo‘nalishi uchun mutaxassislik fanlaridan kurs loyihalari va bitiruv malakaviy ishini tayyorlash, talabalar bilimini nazorat qilishning reyting tizimi va boshqa pedagogik xodimlar bajarishi lozim bo‘lgan uslubiy yo‘nalishlar bo‘yicha zarur ko‘rsatmalar mavjudligi bilan ahamiyatlidir.

Uslubiy qo‘llanma ta’lim sohasidagi xizmatlardan to‘laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishish, talabalarga yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishlari uchun yo‘nalish bo‘la oladi.



### **Foydalanilgan adabiyot va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ro'yxati**

1. *Karimov I. A.* Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008-yil.

2. *Karimov I. A.* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi, 2012. 29-may, № 10.

3. *Karimov I. A.* O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: Sharq, 1997-yil.

4. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi 464 – I-sonli «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Davlat ta'lim standartlari to'g'risida»gi nizom.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998-yil 10-iyuldagi «Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va ularning maqsadli tayyorlash to'g'risida»gi № 185-sonli buyrug'i.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008-yil 7-martdagi 61-sonli buyrug'i va «Oliy ta'lim muassasalarida kurs loyahasini bajarish tartibi» haqidagi nizom.

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablarni tasdiqlash to'g'risida» gi 225-sonli buyrug'i.

9. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 14-avgustdagi «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha 286-sonli buyrug'i.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 25-avgustdagi 333-son va 2013-yil 13-dekabrda 470-son bilan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida»gi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 13-dekabrda 1981 – 2-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nizom.

11. Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. 1 – 2-kitoblar. T.: 2013-yil.

12. *Rahimov B.* «Bo'lajak o'qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi» nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2003-yil.

13. *Tolipov O', Usmonboyeva M.* Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005-yil.

14. *Xodiyev B. Y., Golish L. B.* Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. –T.: TDIU, 2006-yil.

15. *Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G.* Interfaol ta'lim – sifat kafolati. –T.: 2008-yil.

16. *Ochilov M., Ochilova N.* Oliy maktab pedagogikasi. – T.: 2008-yil.

17. *Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A.* Ta'limda innovatsion texnologiyalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi. – T., 2008.

18. *Axunova G. N., Golish L. B., Fayzullayeva D. M.* Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: «Iqtisodiyot», 2009.

19. *To'raqulov X., Hasanboyev J., Usmanov N., Alqarov I., To'raqulov O.* Ilmiy tadqiqot asoslari. –T.: 2011-yil.

20. *U. I. Inoyatov, N. A. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Inog'omova.* Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Metodik qo'llanma. – T., 2012-yil.



21. *Shamuratov E. B.* I – III kurs talabalarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish uslubi (uslubiy tavsiyalar). 2012-yil.

22. *Aqchayev F.* Tarix fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. – Jizzax. 2014-yil.

23. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

24. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

25. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Oliy ta'limda darslarning tuzilishi va turlari .....	6
Ta'lim modeli va darsning texnologik xaritasi .....	15
Darslarda taqdimot va tarqatma materiallar tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar .....	19
O'quv-uslubiy va EO'UM tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar .....	23
Ta'lim tizimida test topshiriqlari tayyorlash. Testlarni turlari va shakllari.....	27
Mustaqil ta'lim, uning turlari va bajarish usullari .....	35
Iqtidorli talabalar bilan ishlash va fan to'garaklari tashkil etish .....	41
Oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz malakaviy amaliyotlarni tashkil etish metodikasi.....	49
Kurs ishlari, BMI tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar .....	94
Talabalar bilimini nazorat qilishning reyting tizimi .....	120
Oliy ta'limning o'quv uslubiy jarayonlariga oid atamalarning izohli lug'ati .....	130
Xulosa.....	153
Foydalanilgan adabiyot va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ro'yxati.....	155



Muharrir *D. Ismoilova*  
Badiiy muharrir *A. Aqilov*  
Texnik muharrir *B. Irisboyev*  
Musahhah *B. Isomiddinov*  
Sahifalovchi *B. Usmonov*

---

Нашриёт лицензияси. АИ № 111. Bosishga 7. 05. 2014 yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 60x 84  $\frac{1}{16}$ . Hajmi 10,0 б. т. Adadi 500 nusxa.  
Shartnoma № 17/14. Buyurtma № 12.

---

«YANGI NASHR» nashriyoti,  
100115 Toshkent, Chilonzor ko'chasi, 1-uy.  
Tel.: (99890) 998-60-96

Original maket «Bilik-Print» MChJ matbaa korxonasi tayyorlandi.  
100115 Toshkent, Chilonzor ko'chasi, 1-uy.

«Tafakkur bo'stoni» bosmaxonasi.  
Toshkent sh. Chilonzor tumani, Чилонзор ko'chasi, 1-uy.

WUNDARI

Kirib

*Uslubiy qo'llanma*

Oliv va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Ta'lim oshirish va baxarish usullari va baxarish

Doqirahat usullari va baxarish usullari baxarish va baxarish

g'ayb qo'llanma

O'y qo'llanma va baxarish usullari **Axror Hasanovich Pardayev**

Ta'lim oshirish va baxarish usullari **Farrux Shavkatovich Aqchayev**

shaxs

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

Shaxs va boshqa daraxtlarning tashkili va baxarish usullari

**OLIV TA'LIMDA  
USLUBIY JARAYONLAR**

*(tashkil etish va baxarish usullari)*